


Maqsuda Jammatova

**“LAYLI VA MAJNUN”
DOSTONINING XALQ
VARIANTLARI**



83.3(54)

7.23

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH
DAVLAT UNIVERSITETI

M.Jammatova

**“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONINING
XALQ VARIANTLARI**
(monografiya)

*Ushbu monografiya Urganch davlat universiteti ilmiy kengashi
bayonnomasi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

Urganch – 2015

UDK: 398.22:82-131(575.171)

KBK: 83.3(5Ÿ)

Ж23

M.Jammatova. "Layli va Majnun" dostonining xalq variantlari. Monografiya. Mas'ul muharrir **S.Ro'zimboyev.** O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, al-Xorazmiy nomli Urganch davlat universiteti. Urganch, Urganch davlat univer-siteti noshirlik bo'limi, 2015. 128 bet.

KBK 83.3(5Ÿ)

Ushbu monografiyada Sharq xalqlari folklorida keng tarqalgan "Layli va Majnun" dostonining tarixiy asoslari, doston sujetining ilk manbalari va uning xalq orasida tarqalish tamoyillari, doston sujetining yozma adabiyotga kirib kelishi, dostonning xalq variantlari, uning Xorazmdan yangi topilgan qo'lyozma varianti, shuningdek, doston variantlarining badiiy xususiyatlari tahlil etiladi.

Monografiya gumanitar fanlar bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir

S.Ro'zimboyev, f.f.d., prof.

Taqrizchilar:

**G.Eshchanova, f.f.n., dots.,
I.Hajiyeva, f.f.n.**



ISBN: 978-9943-4516-4-3 © UrDU noshirlik bo'limi, 2015.

© M.Jammatova. "Layli va Majnun" dostonining xalq variantlari. Monografiya.

**URDU
KIROATXONA**

KIRISH

Keyingi yillarda mumtoz adabiyotimizga, xalq ijodiyotining nodir namunalariga qiziqish tobora ortib bormoqda.

Yosh avlodni yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli qilib tarbiyalash, ularda Ona-Vatanga, o'z xalqiga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini kamol toptirishda mumtoz merosimizni, qadimiy qadriyatlarimizni izlab topish hamda teran tadqiq qilish davrimizning asosiy talabi bo'lib qolmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimovning: "Jahon madaniyati yutuqlariga zo'r hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi teranligi va chuqurligi anglab olinganligi, har bir avlodning o'z o't-mishiga, olijanob milliy va diniy an'analariga hurmat bilan qarash, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi, ayni chog'da hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi va ma'naviyati qadriyatlarini o'zlashtirish va ularga oshno bo'lish zarurligi ravshan anglab yetilganligi – mana shularning hammasi hayotbaxsh bir zamindirki, bizning yangilanish va xalqimizning milliy o'zligini anglashini oshirish, aholining siyosiy yetukligi va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi", – degan so'zlari milliy ma'naviyatimiz va qadriyatimizni o'rganishda o'ziga xos bir yo'l-yo'riq bo'lib xizmat etayotir".¹

Mumtoz adabiyotimiz, uning xalq ijodiyotiga singib ketgan teran tomirlari negizida yaratilib, asrlar osha xalqning ma'naviy ozig'i bo'lib kelgan asarlar haqida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi.

Bu borada "Layli va Majnun" dostonining xalq variantlari, ularni o'zaro va yozma adabiyotdagi sujetlar bilan qiyosiy ravishda milliy istiqloq g'oyalari asosida tahlil qilish haligacha o'z tadqiqotini kutib turibdi.

Keyingi yillarda Xorazmdan topilgan "Layli va Majnun" dostonining yozma nusxa asosida tarqalgan yangi xalq varianti ushbu tadqiqotni amalga oshirishni kun tartibiga qo'yimoqda. Ushbu yangi topilgan qo'l-yozma o'z sujeti, uning yangi tafsiloti negizida ishlanishi bilan alohida originallik kasb etadi.

Bu asarni baxshilar repertuaridagi variantlar, shuningdek, yozma adabiyotdagi ayrim manbalar bilan qiyosiy o'rganish ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

¹ Karimov I.A. Vatani sajjadga kabir muhaddaslar. III tom, Toshkent, "Uzbekiston", 1996, 274-bet.

“Layli va Majnun” dostonining yozma adabiyotdagi sujetining ishlanishi, uning genetik ildizlari, asardagi asosiy obrazlar, A.Navoiy, “Xamsa”sidagi “Layli va Majnun” dostonining forsiy va turkiy xalqlarda tarqalgan sujetlarining o‘zaro aloqasi xususida rus va o‘zbek olimlari keng doirada yirik tadqiqotlarni amalga oshirganlar.¹

Shu bilan birga, “Layli va Majnun” dostonining xalq variantlari xususida hozirgacha biror yirik tadqiqot yaratilmadi. Binobarin, shu paytgacha yirik olimlarimiz tomonidan e‘lon qilingan barcha tadqiqotlar ishimizni yozishda asosiy tayanch vazifasini o‘tadi.

O‘zbek adabiyotida ildizlari xalq og‘zaki ijodiyotiga aloqador sujetlar asosiga qurilgan badiiy asarlar ko‘plab uchraydi. Shulardan biri A.Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidir. Ushbu doston sujeti asosida talantli o‘zbek baxshisi Fozil Yo‘ldosh og‘li shu nomda asarning og‘zaki variantini yaratgan. Endilikda dostonning Xorazmda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxasining xalq varianti ham qo‘lga kiritildi.

Ushbu yangi topilgan qo‘lyozma variant bilan og‘zaki variant va ayrim yozma manbalarni qiyosiy o‘rganish asosida yangi xulosalarni inkishof etish ishning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

Ishda qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutildi:

- asar sujetining shakllanishiga turtki bo‘lgan asosiy omillarga e‘tiborni qaratish;

- doston sujetining yozma adabiyotga kirib kelishi sabablarini yoritish;

- dostonning xalq variantlariga xarakteristika berish;

- Xorazmdan topilgan yangi qo‘lyozma nusxani qiyosiy tahlil qilish;

- og‘zaki variantdagi baxsh manbalarining o‘lchov berish;

- yozma nusxadagi badiiy tilning o‘ziga xosliklarini tadqiq qilish.

“Layli va Majnun” dostonining yozma va og‘zaki adabiyotdagi

¹ Кратковский И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейле в арабской литературе. Известия АН СССР. М., 1941, №2, с. 7–21. Маллаев Н. Узбек адабиёти тарихи, 1 китоб, Т., “Уқитувчи”, 1963; Шарафиддинов О. Алишер Навоий, Ўзлавишлар, Т., 1948; Афзалов М. Навоий ҳақида халқ афсоналари. “Шарк юлдузи”, 1948, №5; Аҳмедов Т. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” дostonи, Т., “Фан”, 1970; Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодияти, Т., “Фан”, 1974; Нарзуллаева С. Навоий ва Андиалибининг “Лайли ва Мажнун” дostonлари ҳақида. Филология тадқиқотлари, Т., ТошДУ, 1970, 133–144-бетлар; Нарзуллаева С. “Лайли ва Мажнун” дostonида гуманизм ҳолати. “Адабий мерос”, Т., 1981, №4 (20), 14–20-бетлар; Жапбаров Т. “Хамса” талқинлари, Т., 1962; Зокидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби, Т., 1970; Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеър, Т., 1991; Иzzат Султон, Навоийнинг қалб дафтари, Т., 1969; Ботирхон Аҳрам. Фасоҳат мулкининг соҳибқирони, Т., 1991; Шайхзода М. Ҳазрат мулкнинг султони. 6-том, Т., 1979 ва бошқалар.

quyidagi variantlari ishda asosiy obyekt qilib olindi:

1. A.Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni.
2. Andalibning "Layli va Majnun" dostoni.
3. Fozil Yo'ldoshdan yozib olingan og'zaki variant.
4. Dostonning yangi topilgan Xorazm nusxasi.
5. Dostonning Umar Boqiy varianti.

Doston sujetining yozma va og'zaki adabiyotda ishlanish tamoyillarini yoritib berish tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Mumtoz adabiyotimiz va xalq ijodiyoti bilan aloqador ancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, uzoq yillar davomida ularning mag'zidagi ko'plab milliy-ma'naviy g'oyalar tom ma'noda tahlil etilmadi. Shuningdek, keyingi yillarda yangidan yangi materiallar topilmoqda. Ular ayrim masalalar bo'yicha ilgari aytilgan fikrlarni yangidan tahrir qilishni taqozo etmoqda.

"Layli va Majnun" dostoni sujeti bilan aloqador masalalar ham o'sha muammolar bilan bog'lanib ketadi. Bunga misol qilib dostonning yangi topilgan Xorazm nusxasini ko'rsatish mumkin. Ushbu nusxani A. Navoiyga mansub doston va turkiy versiyalar bilan qiyosiy ravishda o'rganish, doston sujetining har bir ijodkor tomonidan individual qayta ishlanishini umumiy sujetning alohidalik belgilarini aniqlashga yordam beradi. Bu muammolarni yechish esa ishimizning yangiligini tashkil etadi.

Ushbu tadqiqot ishi muayyan nazariy qimmatga ega bo'lib, uning xulosalari va ilmiy umumlashmalari yozma va og'zaki adabiyotning o'zaro aloqalari, shuningdek, ayrim sujetlarining millatlararo tarqalish tamoyillarini aniqlash uchun nazariy asos bo'la oladi. O'z navbatida, ushbu xulosa va natijalar mumtoz adabiyot va folklor bo'yicha ayrim qo'llanmalar yozishda, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida tanlama fanlarni o'qitishda asqotishi mumkin.

I BOB

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONINING TARIXIY ASOSLARI”

1.1. Doston sujetining ilk manbalari va uning xalq orasida tarqalish tamoyillari

Sevgi-sadoqat, ilohiy ishq sarguzashtlarini tarannum qiluvchi, ming yillar davomida xalqning tilidan tushmasdan kelayotgan mashhur dostonlardan biri “Layli va Majnun”dir.

Dastlab, arab qabilalari orasida tugʻilib ildiz otgan mazkur sujet forsiy va turkiy xalqlar adabiyotida koʻplab asarlarning yaratilishiga zamin boʻlib xizmat qildi.

“Shekspirning sharofati bilan Gʻarb Romeo va Juletta haqidagi gʻamgin qissadan bahramand boʻldi, qaysiki, bu asar Sharqda XIX asrga kelib mashhurlik qozondi. Biroq Sharqda bundan koʻp asrlar burun “Layli va Majnun” haqida yaratilgan oʻzining sevgi haqidagi gʻamgin qissasi mavjud edi. Bu qissa oʻtmishda oʻnlab shoirlarning manbayiga aylangan va hozirda ham qanchalab shoir drammaturg va bastakorlarga ilhom bagʻishlamoqda”.¹

Darhaqiqat “Layli va Majnun” jahon adabiyotida sevgi haqida yaratilgan eng gʻamgin qissalardan biridir.² A.Navoiydan oldin va keyin yashab ijod qilgan koʻplab forsiygoʻy va turkigoʻy shoirlar Layli va Majnun obrazlarini oʻz asarlarida sevgi-muhabbatning ilohiy ramzi darajasida tilga olishadi:

Yor ishq tilar: bedil-u bedin boʻlsam,

Xummor-u xaroboti-yu Majnun boʻlsam,

Devonaligim tufayli orzu qilmaki:

Eng oqilu men – barchadan ustun boʻlsam.

Ushbu ruboiy yirik mutasavvuf shoir Farididdin Attor (1145–1221) qalamiga mansub boʻlib, shoir ishq yoʻlida oʻzining Majnun boʻlishidan faxr-iftixorga toʻladi.

1353-yilda “Muhabbatnoma”ni yozib tugallagan Xorazmiy ham oʻz yorini madh qilish asnosida uning xislatlarini Layli va Majnunlarga taqqoslaydi:

Soʻzung Shirin oʻzung Xisravdin afzun,

¹ Короглы Х.Г. Низами Гянджеви. М., “Знание”, 1991, с. 29.

² Маддаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. Т., “Адабиёт ва санъат”, 1974, 156-бет.

³ Муҳаббат тароналари. Т. “Шарк”, 2005, 190-бет.

Bo' lur Layli sening husnunga Majnun.¹

Layli va Majnunlarni ilohiy ishq siymosi sifatida ta'rif etish Atoyi ijodidan ham joy olgan:

Ey soching zanjirining aql-u xirad devonasi,

Qissayi "Layli-yu Majnun" kamtarin afsonasi.²

Alisher Navoiydan keyin yashab ijod qilgan shoirlar ham ishq-muhabbat siymosiga aylangan bu obrazlarni ulug'lash an'anasini davom ettirdilar. Turkman shoiri Maxtumquli o'z sevgilisiga murojaat qilar ekan, qalbidagi muhabbatini Layli va Majnun ishqiga qiyoslaydi:

Yalanchini tutdi adi,

Olardir ishkin binyadi,

Mejnun Leyli perizadi,

Sen dek seymushem seni.³

Bu ikki jafokash oshiqqlar obraziga yuksak hurmat bilan qarash Munis va Ogahiyilar ijodida ham o'zini namoyon qiladi:

Aylamish ko'nglimni Majnun jilvayi Laylivashi,

Kim asiri g'amzasidur pari ruxsorlar.⁴

Hech bir Laylivash o'z Majmunig'a ko'rgizmadi,

Lutflarkim, aylading zohir mane hayroningg'a.⁵

Xorazm dostonlarining aksariyatida ishqiy sarguzasht mavzusi asosiy yo'nalish sifatida bo'rtib turadi. Xalq ijodkorlari bo'lgan baxshi-lar ham doston qahramonlari tilidan bu ikki oshiq-ma'shuqa obrazlariga murojaat qilishadi:

Layliga Majnundek bo'ldim intizor,

Injitma nozanin, ko'zdin sol mani.⁶

Bunga o'xshash misralar boshqa dostonlar tarkibida ham ko'p uch-raydi. "Layli va Majnun" dostoni qadimdan boshlab, yozma adabiyot bi-lan birga og'zaki adabiyotda, ayniqsa, qissaxonlar repertuarida faol tar-qalgan.

Xorazmda qo'lyozma nusxalarda ommalashgan ayrim dostonlarda asar qahramonlarining Majnunning ruhi bilan uchrashib mulohazaga kiri-shuvi lavhasining berilishi fikrimizga dalil bo'la oladi. "Royi Chin" dos-toni bosh qahramoni o'z ma'shuqasini izlab borayotib, Majnunning qab-

¹ Муборах мактублар. Т., "Адабиёт ва санъат", 1987, 28-бет.

² Атойти Девон. Т., "Фан", 2008, 239-бет.

³ Мағъамулуми. Ашгабат. "Туркменистан", 1977, 125-нэки саҳыпа.

⁴ Мунис. Т., "Адабиёт ва санъат", 1980, 234-бет.

⁵ Огаҳий. I том, Т., "Адабиёт ва санъат", 1971, 73-бет.

⁶ Ошикнома. II том, Урганч, "Хоразм", 2006, 176-бет.

riga duch keladi va ishq yo'lida undan madad so'raydi. Majnun unga boshidan o'tganlarni bayon qiladi. Ushbu bayonda dostonning qisqacha mazmuni o'z ifodasini topgan. Oxirida Majnun Royni Yusuf va Zulayholarning qabrini ziyorat qilib, ulardan hojatingni tila, deb Misrga jo'natadi.¹

Dostonda bunday lavhalarining uchrashi, bu ikki oshiq ismlarining boshqa dostonlarda ham tez-tez tilga olinishi "Layli va Majnun" qissasining turkiy xalqlar orasida juda mashhur ekanligidan darak beradi.

Demak, ushbu sujet faqat yozma adabiyot orqali emas, balki og'zaki tarzda ham xalq orasida afsona, qissa, rivoyat kabi turli shakllarda keng ommalashgan.

VII asrlarda arab o'lkalarida aks sado bergan ushbu afsonalar keyinchalik ko'plab forsiy va turkiy xalqlar istiqomat qiladigan mamlakatlarga yoyilgan.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, bu sujet asosida forsiy adabiyotda yigirmata, turkiy, kurd va urdu tillarida yigirma to'qqizta doston yaratilgan.

XII–XVI asrlar davomida usmonli turk tilida 14, ozarbayjon tilida 4, eski o'zbek tilida 2 shoir "Layli va Majnun" nomli dostonni yozishda o'z iste'dodlarini sinab ko'rishgan. Ular orasida Maxtabiy, Xotifiy, Abdullo Buxoriy, Vays, Noriy, Umar Boqiy kabi shoirlar bor.²

Arab xalq romanlari ustida tadqiqot olib borgan N.Ibrohimovning ta'kidlashicha, Arabistonda yetti yoshida qo'y boqib yurganida bo'riga duch kelib, uni o'ldirgan Antara haqida ko'plab rivoyatlar to'qilib, keyinchalik "sirat" (xalq romani) yuzaga kelgan. Biroq "Layli va Majnun" haqida yaratilgan afsonalar bunga qaraganda batafsilroq va ko'proqdir.³

"Layli va Majnun" dostonining dastlabki manbalari haqida ko'pgina arab olimlari turlicha ma'lumotlarni yozib qoldirishgan. Ularning bergan ma'lumotlarining ayrimlari o'zaro bir-biriga zid keladi. Lekin ular bari bir o'sha davr aks sadosi sifatida qimmatlidir.

Ushbu ma'lumotlarni umumlashtirib "Layli va Majnun" dostonining genezisi haqida dastlabki tadqiqot olib borgan olimlardan biri I.Y. Krachkovskiydir. Adabiyotshunos olim "Arab adabiyotida "Layli va Majnun" qissasining dastlabki tarixi" maqolasida Majnun va Layli

¹ Ошикнома. I җилд. Урганч, "Хоразм", 2006, 161–164-бетлар.

² Нурутлосова С. "Лайли ва Мажнун" сюжети тарихидан. Филологик тадқиқотлар. Т., ТошДУ, 1970, 136-бет.

³ Ибрагимов Н. Арабский народный роман. Т., "Фан", 1984, с. 91.

shaxslarining tarixiy ildizlari haqida muhim fikr va mulohazalarni bildirdi. N.M.Mallayev ham o'z tadqiqotida o'sha manbaga asoslanib fikr yuritganini qayd qiladi.

I.Y.Krachkovskiyning tadqiqotida tahlil qilinishicha, arab adabiyotidagi manbalar orasida Abul Faraj al-Isfaxoniyning (897–967) “Qo‘shiqqlar kitobi”, Ibn Qutaybining (828–889) “She‘r va shoirlar”, al-Volibiyning (XII asr) “Devoni Majnun” kabi asarlari alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, Ibn Abd Rabbixiyning “Kitobi iqd” asarida ham Majnun haqida muhim ma‘lumotlar uchraydi. Abul Farajning ko‘rsatishicha, Majnunning asl ismi Qays binni Mulavvah binni Muzohim binni Adas binni Rabia binni Jahda binni Kahb binni Omardir.

Abul Faraj turli rivoyatlarga asoslanib ta'kidlaydiki, bani Amiya xonadoniga aloqador bo‘lgan bir yigit amakisining qiziga oshiq bo‘lib qoladi va miskin she‘rlar yozadi. Bu she‘rlarda o‘zini nihon saqlash uchun Majnun taxallusini tanlaydi. Al-Volibiyning “Devoni Majnun” majmuasi esa Majnun taxallusiga nisbat berilgan she‘rlar yig‘indisidan iboratdir. Shu tariqa, Majnun va Layli haqida arab dunyosida ko‘plab afsonaviy va yarim afsonaviy sujetlar yuzaga kela boshlagan. Arab folklorida bunday afsona va rivoyatlar juda ko‘p. Ularning ayrimlarida asar bosh qahramonining epik biografiyasi tug‘ilganidan boshlab, o‘limigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bunday epik biografiyalar barcha xalqlar, jumladan, o‘zbek folklorida ham mavjud.

Arab folkloridagi Antara haqidagi siratlar ham xuddi o'sha tamoyilga to‘g‘ri keladi. Biroq Majnun haqidagi to‘qilgan afsona va rivoyatlarda ketma-ketlik, voqealarning muntazam ravishda rivojlanishi, bir tizimga solingan holda namoyon bo‘lishi kuzatilmaydi.¹ Mana shu xususiyatni ko‘zda tutgan holda, Majnun taxallusli shoirning tarixiy shaxs ekanligi ko‘pgina tadqiqotchilarda shubha uyg‘otadi.

Arabistonda IX–X asrlarda yashagan al-Shohiz, Ibn al-Mo‘taz kabi olimlar Majnunning tarixiy shaxs ekanligini rad qilishadi.

“Demak, Majnunning tarixiy shaxsligi masalasi munozarali bo‘lganligi kabi, Majnun nomiga nisbatan berilgan she‘rlarning muallifi masalasi ham munozaralidir. Biroq shunisi aniqki, mana shu she‘rlar zaminida Majnun haqida rivoyatlar paydo bo‘la boshlagan edi. Agar VIII asr boshlarida Majnun haqidagi ana shunday ayrim rivoyatlar paydo bo‘lgan va ular hali u qadar keng tarqalmagan bo‘lsa, IX asrga kelib bunday ri-

¹ Ибрагимов Н. Арабский народный роман. С. 62.

voyatlar ko'payib, keng tarqala boradi, X asrda esa Majnun nomi, Majnun she'rlari va rivoyatlari faqat Arabistondagina emas, balki Yaqin va O'rta Sharqning boshqa o'lkalarida ham keng tarqaladi".

N.Mallayevning Y.E.Bertels fikrlariga tayangan holda ta'kidlashicha, Layli ham tarixiy shaxs bo'lgan. Nosir Xisrav (XI asr) o'zining "Safarnoma" asarida Arabistonda bo'lgan chog'ida unga Layli yashagan qo'rg'onning xarobalarini ko'rsatishgan ekanlar.¹

Shu tariqa, Majnun va Layli haqidagi afsona va rivoyatlar, she'rlar butun Sharq bo'ylab og'izdan og'izga o'ta boshlagan. Albatta, bunday ma'lumotlarga tayanib, biror bir aniq xulosaga kelish qiyin. Lekin shu narsa aniqki, ushbu sujetning paydo bo'lishida asosiy material bo'lib xizmat etgan turli afsona va rivoyatlarning tug'ilishiga hayotda nimadir turtki bo'lganligi ehtimoldan xoli emas. Chunki har qanday afsona va rivoyat nigizida qandaydir hayotiy voqea yotishi o'z-o'zidan ma'lum. Bu voqea-hodisaning keyinchalik og'izdan og'izga o'tib, turli o'zgarishlarga uchrashi, unda xayoliy-fantastik bo'yoqlarning quyuqlashishi xalq ijodiyotiga xos an'anaviy hodisadir.

"Layli va Majnun" haqida ko'pgina ijodkorlar o'sha davrlarda muayyan bir tizimga solingan xalq variantlarini yaratgan bo'lishi mumkin.

N.Mallayev o'z tadqiqotida ta'kidlashicha, turkiy tilda Gulshahriy, Oshiq Posho, Shohidiy kabi adiblar Layli va Majnun sevgisi bilan aloqador she'riy hikoyalar, dostonlar yaratishgan. Biroq ular unchalik omaviylik kasb etmaganligi sababli Navoiyga ma'lum bo'lmagan.²

Bu asarlar mashhurlik qozonmagan bo'lsa-da, ushbu sujetning xalq orasida tarqalishida ozmi-ko'pmi rol o'ynaganligini unutmazlik lo-zim.

Sharq xalqlarida muayyan auditoriyada qissaxonlik qilish an'anasi qadimdan beri davom etib keladi. Ushbu sujetning qadimiy ildizlari o'sha an'ana bilan aloqador bo'lishi haqiqatga ancha yaqin. Chunki "Layli va Majnun" dostonining Xorazmdan topilgan varianti ham asosan qissaxonlar va xalfalar tomonidan targ'ib qilib kelingan.

"Layli va Majnun" haqidagi afsona va rivoyatlar VII asrdayoq shakllanib, Navoiygacha va Navoiy yashagan davrlarda ham xalq orasida aytilib yurilgan. Buni buyuk shoir dostonning nihoyasida alohida qayd qilib o'tgan:

Mazmuniga bo'ldi ruh mayli,

¹ Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. 157-бет.

² Уша кўрсатилган асар, 158-бет.

*Afsona edi aning tufayli.
Lekin chu raqamg'a keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun...*¹

Layli va Majnunlar haqidagi afsona va rivoyatlarning Navoiydan keyin ham xalq orasida yashab kelganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi, chunki so'nggi asrlarda ham bu sujet ancha adiblarga ilhom bag'ishlaganligi ma'lum.

"Layli va Majnun" dostoni qo'lyozmalarining boshqa o'ziga o'xshash dostonlarga qaraganda juda ko'p uchrashi ham bu asarning xalqchillik ruhidan darak beradi.

Toshkentning asosiy kutubxonalarida bu dostonning 66 ta qo'lyozmasi borligi haqida ma'lumotlar bor.²

Bu qo'lyozmalarining barchasi bir vaqtlari xalq orasida qissaxonlar tomonidan ijro qilib kelingan. Bu yerda ijro so'ziga, albatta, sharh berib o'tish lozim. Xorazmda (umuman, O'zbekistonda) qissaxonlar va xalfalar biror dostonning qo'lyozma nusxasini o'qiganda matnni yoqimli ovozda qiroat bilan "yarim kuylash" ohangida o'qib berishadi.³ Shu sababli bu uslubni ijro deb atash to'g'riroqdir.

"Layli va Majnun" dostonining qissaxonlar va xalfalar repertuariga o'tishi uning ko'p nusxalarda qo'lyozma holida tarqalishiga imkoniyat yaratdi.

"Layli va Majnun" dostonining Andalib varianti haqida tadqiqot olib borgan turkman olimlarining ko'rsatishicha, Turkmaniston Fanlar akademiyasi Maxtumquli nomidagi Til va adabiyot instituti qo'lyozmalar xazinasida mazkur dostonning 20 ga yaqin qo'lyozmasi mavjud bo'lib, ularning to'rttasi alohida bir mazmunga, to'rttasi esa ulardan tafovut qiladigan boshqacharoq bir mazmunga ega. Qolganlari "Layli va Majnun"ning qissa shaklidagi nusxalaridir.⁴

Mana shu qissa shaklidagi qo'lyozmalar biz yuqorida ta'kidlab o'tgan qissaxonlar va xalfalar repertuarida yashab kelgan doston variantlaridir.

"Layli va Majnun" dostonining qo'lyozma nusxalari xalq orasida keng tarqalganligi sababli uning qo'lyozmalari turli kishilar tomonidan ko'chirilgan va ushbu ko'chirilgan nusxalar yuqorida turkman olimlari

¹ Хамса. Т., "Фан", 1960 (Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев). 454-бет.

² Нарзуллоева С. Кўрсатилган мақола, 136-бет.

³ Рузмибоев С. Хоразм дostonчилиги эъик аъналария. Урганч, "Университет", 2008, 32-бет.

⁴ Мулламанов А., Назиров Г., Чармев М. Сөз усталы. Акдaлып. Ашгабат, "Туркменистан", 1991, 6-нжы сахыпа.

ta'kidlaganlari kabi bir-biridan variant beradigan darajada tafovutlanadi. Ayrim qo'lyozmalarda Majnun taxallusi bilan bir qator Noriy, Sabotiy kabi nomlar ham uchrab qoladi. Turkman olimlari asardagi bu ikki taxallusni qo'lyozmalarni kitobdan kitobga ko'chirgan kotiblarga aloqador, deb belgilaydilar.¹

Xorazm mintaqasida ko'chirilgan doston qo'lyozmalarida bunday holatlar uchraydi. Masalan, "Shahriyor" dostonida bitta she'riy parchaning nihoyasida quyidagi misralar uchraydi:

Kel, Muhammad Rizo sen haqq'a yong'il,

Ki tonglar ko'rsatur sango ul diydor.²

Dostonning boshqa biror joyida bu ism tilga olinmaydi. "Oshiq Alband" dostonida esa yana bir ism e'tiborni tortadi:

Bechora kotiblar yozg'an xatlari,

Mulla Bo'jon derlar ismi otlari,

Ko'p ta'rif ayladim parizodlari,

Alarni ko'p takror qilmishin ko'ring.³

Ushbu keltirilgan ismlar haqiqatan ham kotiblarga aloqadordir. "Oshiq Alband" dostonidan olingan ko'chirmada esa Mulla Bo'jonning kotib ekanligi aniq ta'kidlab ko'rsatilgan. Bu an'ana turkmanlar orasida tarqalgan qo'lyozma dostonlarga ham to'la tegishlidir. Chunki "Xorazm vohasida yashovchi o'zbek, turkman va qoraqalpoq xalqlari baxshilari hamda qissaxonlari arab alfavitida bitilgan yagona qo'lyozmalardan foydalanishgan".⁴

Mana shu holatlardan kelib chiqib masalaga yondoshilsa, turkman olimlarining fikriga qo'shilishga to'g'ri keladi. Biroq turkman olimlari tahlil qilgan qo'lyozmalarga qaraganda Sabotiy taxallusi yuqoridagi andozaga to'g'ri keladi. Lekin Noriy taxallusini kotiblarga nisbat berish ikkilanishni tug'diradi. Buning sababi shuki, Andalib qalamiga mansub "Layli va Majnun" dostoni yig'ma variantlar asosida nashrga tayyorlangan. Shu sababli uning tarkibida Noriy taxallusi ancha ko'p ko'zga tashlanadi. O'z navbatida, shu narsani ta'kidlash joizki, bu taxallus she'riy parchalarda turli o'rinlarda, turlicha tartibda joylashgan. Buni quyidagi misollar orqali ko'rish mumkin. Ayrim parchalarda Majnun bilan Noriy taxalluslari yonma-yon beriladi:

¹ Андалиб. 8-бет.

² Ошпономов. II китоб, Урганч, "Хоразм", 2006, 353-бет.

³ Уша китоб, 202-бет.

⁴ Рўзмибоев С. "Гурути" эпосининг Хоразм версияси ҳақида. "Ўзбек тили ва адабиёти". 1989, 2-сон, 59-бет.

*Majnun, Noriy g'arib yig'lab oh ursam,
Sharoridin gulistonim o'rtandi.¹*

Ba'zi o'rinlarda to'rtlik misralarning ayrimlarida har bir ism alohida keltiriladi:

*Layli der, Majnunim, sango intizor,
Furqat aro jism-u jonim beqaror,
Ketishga yo'q yo'l Noriyda ixtiyor,
Qismati haq, taqdir mango shul bo'ldi.²*

Majnun bilan Noriy taxalluslari yuqoridagi she'riy parchada vergul bilan ajratilgan holda yonma-yon kelgan bo'lsa, quyidagi she'riy parchada ular tire orqali berilgan:

*Oshiqarning oqar ko'zidin yoshi,
Zahardir yegani, zaqqundir oshi,
Majnun Noriy, ko'rma hech kimdan ishi,
O'zim taqdirima qoyil aylayin.³*

Shunisi ham borki, Layli monologlarida bir joyning o'zida bu ikki nom birgalikda tilga olinadi:

*Ado bo'lmas aytsam hasbi holim Noriyu zora,
Ayo ey intizori Layli, Majnun otli yorim kel!⁴*

Dostondagi she'riy parchalarning aksariyatida bu nomlarning turli o'rinlarda birga kelishi ko'p uchraydi. Shu bilan birga, Noriy taxallusi-ning alohida mustaqil ravishda qo'llanilgan o'rinlari ham uchrab qoladi:

*Onang firog'inga do'za bilmadi,
Qismat-u taqdiring yoza bilmadi,
Noriy o'ynab-kulib keza bilmadi,
Olg'il so'zim, jabri ishqa sabr ayla.⁵*

Ushbu keltirilgan misollar Majnun va Noriy taxalluslari haqida jiddiy o'ylab ko'rishni taqozo qiladi. Bu masalada S.Narzullaevaning Noriyni dostonning mualliflaridan biri sifatidagi qarashi to'g'ri bo'lib chiqadi.

Ma'lumki, "Layli va Majnun"ni xalqimiz ming yillar davomida saqlab, qora kunlarning alamli yodgori sifatida bizga – baxtli bolalariga sovg'a qildi.⁶

¹ Андалип, 80-бет.

² Ўша манба, 83-бет.

³ Ўша манба, 3-бет.

⁴ Ўша манба, 91-бет.

⁵ Андалип, 57-бет.

⁶ Жалолов Т. Нафосат оламода. Т., "Адабиёт ва санъат", 1974, 33-бет.

Xalq orasida ming yillar davomida yashab kelgan dostonning turlicha o'zgarishlarni boshdan kechirishi, tabiiy.

Buni Navoiyning o'zi ham alohida ta'kidlab o'tadi:

Eshitgan ila avomdin so'z,

Yo roviyi notamomdin so'z.

Bu qissag'a oncha berdilar zeb,

Kim bo'lmas vasfi ichra so'z deb.¹

"Layli va Majnun" dostoni qo'lyozmalarini ko'chirgan kotiblar ismining ko'p hollarda asarning oxirida berilishi an'ana tusini olgan. Shu sababli matn ichidagi she'rlarda kotiblarga aloqador ismlar kam uchraydi. Bundan tashqari, ular hech qachon o'z ismlari yoki taxalluslarini asar qahramonlari ismlari bilan yonma-yon qo'llashmaydi.

Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, Noriy taxallusini kitobni ko'chirgan kotibga nisbat berish ancha mushkuldir.

Ilgari ta'kidlaganimizdek, VII asrning ikkinchi yarmidayoq arab poeziyasida Majnun taxallusi zikr etilgan ko'pgina mungli she'rlar vujudga keladi, bu she'rlarning miqdori ko'payib boradi, to'plamlarga kiritiladi. Ammo Majnun nomi zikr etilgan she'rlarning barchasi ham yolg'iz bir kishiniki emas.²

Shunday ekan, dostondagi Sabotiy va Noriy nomlari xususida aniq bir fikrga kelish uchun jiddiy tadqiqot olib borishga to'g'ri keladi. Masalaning ikkinchi bir tomoni borki, Noriy arab tiliga emas, balki forsiy tilga aloqador nomdir. Shu sababli bu nomdagi shoir keyingi davrlarga aloqador bo'lishi ehtimoldan yiroq emas.

Dostondagi she'rlar orasiga faqat Majnunninggina emas, balki Noriy taxallusi bilan ish ko'rgan shaxsga aloqador she'rlar ham kiritilgan bo'lishi mumkin. Majnun bilan Noriy nomlarining birga kelish hollari ularning ikki nom bilan ataluvchi bir shaxs emasmikan, degan fikrni ham tug'diradi.

Turkman olimlarining ta'kidlashlaricha, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida "Layli va Majnun" dostoniga aloqador uchta nusxa mavjud. 5030, 5176-raqamli nusxalarda Noriy taxallusi, 7686-raqamli uchinchi qo'lyozmada Sabotiy nomi uchraydi. Lekin bu qo'lyozma ancha kichik, atigi 29-sahifadan iboratdir.³

¹ Хамса. 358-бет.

² Миллаев Н. Кўрсатишган асар, 157-бет.

³ Андалип. 7-бет.

Ushbu ma'lumotlar mazkur nomlarni aniqlash uchun maxsus tadqiqotlar olib borishni kun tartibiga qo'yadi. Noriy taxallusi Majnun bilan yonma-yon qo'llanilgan qo'lyozma nusxalar Xorazm mintaqasida ham uchraydi.

Bu hududda "Layli va Majnun" dostonining ikki qo'lyozma nusxasi borligi tadqiqotlarda qayd qilingan. Bularning birinchisi "Oshiqnoma" majmuasining 3-kitobida chop etilgan. Bu variant haqida navbatdagi faslimizda batafsil fikr yuritamiz.

Dostonning yana bir nusxasi haqida S.Ro'zimboyev quyidagicha ma'lumot beradi: "Qo'limizda dostonning xonqalik Zevar xalfaga taalluqli, 1974-yilda arab alifbosida ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi bo'lib, uning hajmi 32 varaq. Dostonda hammasi bo'lib 904 misra she'riy parcha jamlangan. Uning tarkibidan 5 g'azal, bir muxammas o'rin olgan".¹

Qo'lyozma nusxa bilan tanishish shunday fikrga olib keldiki, bu asarning qo'lyozmalari bir-ikkita emas, balki ancha ko'pdir. Mazkur nusxa 1916-yilda Toshkentda chop etilgan nusxadan 1974-yilda qayta ko'chirilgan ekan. Qo'lyozma nusxaning o'rtasidan 2-3 sahifa yo'qolganligi sababli "Oshiqnoma" majmuasida Shukur xalfa nusxasi bosilgan. Shukur xalfa bilan Zevar xalfalar bir tuman hududida yashashadi. Biroq ularning qo'lidagi doston variantlari bir-biridan oz bo'lsa-da, farq qiladi. Zevar xalfa nusxasiga qaraganda chop etilgan nusxada bitta g'azal va bitta muxammas ko'pdir.

Bizni qiziqtirgan yana bir muhim narsa shuki, Zevar xalfa nusxasida Noriy taxallusi uchraydi. Chop qilingan variantda esa bu nom tilga olinmaydi. Sabotiy taxallusi Xorazmdan topilgan har ikkala nusxada ham ko'zga tashlanmaydi. Noriy taxallusi Zevar xalfa bisotidan olingan qo'lyozmaning to'rt joyida she'rlar tarkibidan o'rin olgan. Ikki joyda Majnun nomi bilan yonma-yon, ikki joyda esa yakka o'zining nomi qayd qilingan. Quyidagi namunalar bunga misol bo'la oladi:

Ishqing hijroniga o'rtandi Noriy,

Hasratu g'am bilan ayladi zori,

Oqizur ko'z yoshin sitamdur bori,

Dunyo yuzin go'yo dumon tutundur. (Qo'lyozma, 22-bet)

Qo'lyozma matnning ayrim she'riy parchalarida ikkala nom ham baravar ravishda qayd qilinadi:

Noriy firoqingda chekibdur ohi,

¹ Ruzimboyev S. Xorazm dostonlari. T., "Fan", 1985, 38-bet.

*Xabar qildi sango arablar shohi,
Majnun uchun yasab oliy xirgohi,
Haq yaratmish charxi gardun ustina. (Qo'lyozma, 27-bet)*

Ushbu misralarda Majnun bilan Noriy nomlari muqobil tarzda tilga olinadi. She'rdagi ma'no nuqtayi nazaridan qaraganda, bitta nomning ikki xildagi ko'rinishiga o'xshaydi.

Ularning yonma-yon tarzda birgalikda qo'llanilishi esa ushbu holatni yanada yorqinroq namoyish etadi.

*Layli ishi fig'on bilan, oh bilan,
Oshiqarning ne ishi bor joh bilan,
Noma aytib Noriy Majnun shoh bilan,
Soata yetmadi davronim mening. (Qo'lyozma, 29-bet)*

Doston tarkibidagi mazkur misralarda ikkita nomning bir ma'noda, birgalikda kelishi yuqoridagi fikrimizni yanada mustahkamlaydi. Qo'lyozma nusxalarning ko'pligi, ularning bir-biridan jiddiy farq qilishi doston sujetining turli ijodkorlar tomonidan hamisha qayta ishlab kelinganligidan guvohlik beradi.

Xorazmda tarqalgan ikki nusxani solishtirganda shu narsa ayon bo'ladiki, Zevar xalfa variantining tili sodda, mazmunan Andalibning "Layli va Majnun" dostoniga o'xshash keladi. Ba'zi she'riy parchalar aynan bir-biriga mos tushadi.

"Oshiqnoma" majmuasining III kitobida chop etilgan variant Andalib dostonidan mutlaqo farq qilgani holda, Fuzuliyning "Layli va Majnun"iga ancha yaqindir. Tili esa ancha murakkabdir.

Ushbu holat shuni ko'rsatadiki, "Layli va Majnun" sujeti yozma adabiyotdan alohida ravishda xalq orasidagi talantli baxshilar va qissaxonlar tomonidan doston sifatida qayta yaratilgan. Umar Boqiyning "Kitobi Majnunu Layli" qissasi ham o'sha xalq orasida o'qib yurilgan asarlardan bittasi bo'lib hisoblanadi. Bu variantlar biror ijodkor tomonidan yaratilgandan keyin og'izdan og'izga, kitobdan kitobga o'tib, aksariyatining dastlabki muallifi unutilgan va xalq kitoblari sifatida istifoda etilgan. Xorazmdan topilgan ikkita qo'lyozma nusxa buning yaqqol dalilidir.

"Layli va Majnun" dostoni baxshilar repertuariga o'tmagan. Chunki, asar sujeti nihoyatda mungli voqealar tizimidan iborat bo'lganligi sababli, uni baxshilar to'y va sayillarda kuylamaganlar. Shu sababli doston, asosan, qissaxonlar, qiroatxon xalfalar repertuaridan mustahkam joy olib, maxsus auditoriyalarda muntazam ijro etib kelingan.

Doston, asosan, yozma nusxalar orqali ommalashgan. Uning ayrim she'rlari xonandalar repertuariga o'tgan. Doston sujetiga aloqador turli afsona va rivoyatlar, bizning fikrimizcha, xalq orasida Navoiygacha bo'lgan davrda ham tarqalib yurgan bo'lsa kerak. Chunki kekxa san'atkorlarning eslashlariga qaraganda "Layli va Majnun"ga aloqador ayrim she'rlar darvesh va qalandarlar tomonidan qo'shiq ohangida aytilib kelingan. Bu fikrga qo'shilish mumkin. Chunki "Layli va Majnun"ning Nizomiya mansub variantida so'fiylikka xos motivlar ancha kuchli ekanligi ayrim tadqiqotlarda qayd qilingan.¹

Asardan olingan parchalarning doimo el oshib, xalq orasida kezib yuradigan darvesh va qalandarlar tomonidan targ'ib qilinishi bu mungli sujetning dovruq taratishiga sababchi bo'lganligi haqiqatdan yiroq emas.

Mana shu omillar "Layli va Majnun" dostonining xalq variantlarining shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazganligi shubha tug'dirmaydi.

Keyinchalik, asarning A.Navoiy, Fuzuliy, Andalib tomonidan yozma adabiyotda dovruq qozonishi bu sujetning ziyolilar, umuman, xalq orasida faol ommalashishiga keng yo'l ochib bergan.



Xorazmdan topilgan Zevar xalfa variantida Andalib dostonining, Shukur xalfa variantida Fuzuliy dostonining kuchli ta'siri seziladi. Ayni paytda, ular ushbu yozma adabiyot manbalaridan jiddiy farqlarga ega. Fozil Yo'ldosh o'g'li repertuaridagi og'zaki variantda esa A.Navoiy dostonining ta'siri beqiyosdir. Shunday bo'lsa-da, bu variantda ham Fuzuliy dostonidagi ayrim lavhalar aks sado berib turadi. Binobarin, "Layli va Majnun" sujetining VII asrlarda Arabistonda tug'ilib, keyinchalik, forsiy, turkiy xalqlar istiqomat qiladigan hududlarga tarqalishi murakkab va qiziqarli hodisadir.

Bu sujetning yozma adabiyotdan tashqari, og'zaki adabiyotda alohida an'ana sifatida og'izdan og'izga o'tib, keyinchalik qissalar shaklida yashab kelishi tadqiqotga arzigulik masaladir. Chunki dostonning xalq orasidagi mustaqil variantlari faqat o'zbeklar va turkmanlar orasidagina emas, balki ozarbayjonlar, turkmanlar va qozoqlar folkloridan ham joy olgan.

Dostonning Ozarbayjonda tarqalgan qissa shaklidagi xalq varianti 1872-yilda chop etilgan. 1911-yilda asarning nasriy bayoni bosilgan.²

¹ Короглы Х.Г. Низомий Гянджеви. С. 13.

² Азербайжан менаббат дастанлари. Баку, "Елга", 1979, 495-бет.



1979-yilda dostonning 1938-yilda nashr qilingan varianti qaytadan chop etilgan.¹

“Layli va Majnun” haqidagi qo‘lyozmalarni izlab topish hamda ularni tahlil qilish katta ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Bunday qo‘lyozmalarni qo‘lga kiritish hali adabiyotshunoslik va folklorshunoslik ilmidagi ko‘plab yangiliklarni ochib berishi mumkin.

Dostonning Ozarbayjonda tarqalgan xalq varianti nasr va nazm aralash holda yaratilgan. Uning boshlanma qismi Fuzuliy dostoniga o‘xshaydi. O‘z navbatida, Xorazmdagi xalq variantining debocha qismiga ham monand keladi. Bu dostonida Laylining otasi Sulton Mahmud podsho, Majnunning otasi Abdulla, onasi Rayhon xonim ismlari bilan berilgan. Asardagi sujet an‘anaviy sujetdan unchalik ko‘p farq qilmaydi. Unda ham Salom shahzoda, Zeyd, Nofal kabi obrazlar mavjud. Shu bilan birga unda yangi bir obraz – Chug‘ul g‘arq degan shaxs salbiy obraz sifatida keltirilgan. Chug‘ul so‘zi Xorazm shevasida ham faol ishlatiladi. Bu birikma o‘zbek adabiy tilida “chaqimchi” ma‘nosini bildiradi.

Doston muqaddimasida tasvirlanishicha, Qays tinmasdan yig‘lay boshlaydi. Bir kuni tasodifan Layli bilan uchrashib yig‘idan to‘xtaydi. Keyin Laylining otasidan ruxsat olib ikki chaqaloqni bir joyda tarbiyalashadi. Birga maktabga berishadi. O‘n olti yoshga yetganda Qays undan bo‘sa oladi. Buni chaqimchi chol Layli xonadoniga yetkazadi. Shundan keyin an‘anaviy sujetdagi voqealar boshlanib ketadi. Salom shahzoda, Nofal, Zeyd kabi obrazlar tanish voqealarda ishtirok etishadi. To‘y kechasi Layli Salomdan 7 kun muhlat so‘raydi. Shu orada bir bahona bilan Majnun huzuriga borib uchrashadi. Bu uchrashuvni ham chaqimchi chol Layli xonadoniga yetkazadi. Shundan so‘ng fojiali voqealar boshlanadi. Layli halok bo‘ladi. Buni eshitgan Majnun ham uning qabri ustida jon berib, ularni birgalikda dafn qilishadi.

Doston xalq tilida bitilgan. She‘riy parchalar boshqa dostonlari kidan mutlaqo farqlanadi. Ularning barchasi an‘anaviy xalq dostonlaridagi kabi faqat murabballardan iborat.

Bu asarda Laylining onasi jahldor, qo‘rs ayol sifatida tasvirlanadi. Salom shahzoda obrazida salbiy xususiyatlar deyarlik yo‘q.

Umuman, asar xalq dostonlari talablariga to‘la javob bera oladi. Ushbu dostonning ancha qadimdan Ozarbayjon ashuglari repertuarida bo‘lib, keyin yozuvga olinganligi “Layli va Majnun”ning xalq kitoblari

¹ Ушбу китоб, 323–355-бетлар.

shaklida turkiy xalqlar orasida qadimdan beri mavjudligini ko'rsatadi.

Qozoq romanik dostonlari tadqiqotchisining ta'kidlashicha, bu doston qozoq xalqi orasida ham qissa shaklida qadimdan beri yashab kelgan.¹

Demak, bu asarning turli davrlarda ko'chirilgan qo'lyozma nusxalari turkiy xalqlarning aksariyatida qadim davrlardan boshlab qissaxonlar tomonidan o'qib kelingan.

1.2.Doston sujetining yozma adabiyotga kirib kelishi

Sharq xalqlari orasida uzoq yillar mashhurlik qozonib afsona, rivoyat va turkum she'rlar shaklida yashab kelgan Layli va Majnun haqidagi namunalar faqat Arabistondagina emas, balki boshqa o'lkalarda ham talantli adiblar e'tiborini o'ziga torta boshladi.

Birinchi marta buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy ijodida Layli va Majnun haqidagi qissa o'zining to'la-to'kis badiiy ifodasini topdi, romanik dostonchilikning buyuk namunasi sifatida namoyon bo'ldi. Nizomiy Ganjaviy (1141–1205) ushbu dostonini 1188-yil 24-sentabrda yozib tugallaydi. Shoir birinchi bo'lib Sharqda "xamsa"chilik an'anasini boshlab berdi. Dastlab, she'rlar yozib, ijod cho'qqilarini egallagach, katta epik asarlarga qo'l urdi.

Nizomiy Ganjaviy o'z davrining ilg'or ziyolisi edi. U azarbayjon, fors va arab adabiyotini mukammal bilishidan tashqari, Yunon, Xitoy, Vizantiya kabi mamlakatlarning adabiyoti, madaniyati va falsafasi bilan yaqindan tanish edi. U ushbu xalqlar og'zaki ijodiyotidan ham boxabar edi.²

Shoir "Layli va Majnun" dostonini o'sha davr an'anasiga muvofiq fors tilida yozadi. Dostonning XIV, XV, XVI boblarida adib o'zining boqiyga ketgan ajdodlari, otasi, onasi, amakisi haqida so'z yuritadi.³

Uning otasi Yusuf Zakiy Muhayyid, onasi Raisabonu amakisi Xoja Omar o'ziga yarasha madaniyatli kishilar bo'lishgan. Ayniqsa, amakisi shoirning kamolotida katta yordam bergan. Uning uylanishi ham tasodifiy bo'lgan.

"Mahzan-ul asror" asarini yuqori baholagan Darband hokimi shoir-

¹ Алибаева Б.У. Казахские народные романтические дастаны. Автореф. канд. дисс. Т., 1984, с. 6. (20).

² Ибрагимов М. Слово, пережившее века. Низами Гянджеви. Собр. Соч. В пяти томах. Т., М., "Художественная литература", 1985, с. 6.

³ Низами Гянджеви. Собр. Соч. В пяти томах. Т. 3, М., "Художественная литература", 1986, с. 52–55.

ga Afoq ismli turkiy toifaga mansub bo'lgan cho'rini hadya qiladi. Nizomiy esa uning tabaqasiga ahamiyatsiz qarab, o'sha cho'riga uylanadi. Undan Muhammad ismli o'g'li borligini shoir mamnuniyat bilan aytib o'tadi.¹ Asarning VI bobida hikoya etilishicha, "Layli va Majnun"ni yozishni undan o'g'li iltimos qiladi.

Shoir 63 yoshida vafot etadi.²

Nizomiy "Layli va Majnun" dostonini arab xalqi orasida tarqalgan afsona va rivoyatlar asosida yaratgan bo'lsa-da, u bu afsona va rivoyatlarni badiiy jihatdan qayta ishlab original bir asarni vujudga keltirdi.

Dostonning boshida shoir Sharqdagi an'anaga muvofiq xudoga, payg'ambarga, asarni yozishni buyurgan hukmdorga nisbatan madhiya va olqishlar bag'ishlaydi. Keyin asar voqealari bilan bog'liq ekspozitsiyaga murojaat qiladi.

Nizomiy "Layli va Majnun"ida hikoya qilinishicha, arab mamlakatida shayxlar va hukmdorlar orasida obro'-e'tiborga ega bo'lgan adolatparvar, kambag'alparvar bir kishi yashagan. Lekin u befarzand bo'lgan. Kunlardan bir kun xudo unga bir ajoyib farzand ato qiladi. Uning ismini Qays deb qo'yishadi.

Qays maktab yoshiga yetgach, o'qishga boradi. Uning bilan birga latofatli, go'zal qiz Layli ham maktabga qatnay boshlaydi. Bu ikki yosh orasida sevgi-muhabbat paydo bo'lib, el orasiga yoyiladi. Natijada Layliga maktabga borishni taqiqlashadi. Qays bundan qattiq ta'sirlanadi, odamlardan uzoqlashib darbadar kezadi. Natijada unga Majnun laqabini qo'yishadi. Majnun Layli yashaydigan ko'chadan nari keta olmaydi. Oxir-oqibat otasi Laylilarning uyiga sovchilikka boradi. Biroq Laylining otasi Qaysning Majnunligini ro'kach qilib, qizini unga berishdan bosh tortadi. Majnun bu xabarni eshitib, qattiq hayajonlanadi, Layliga atab ko'plab she'rlar yozadi. Otasi uni Makkaga ziyoratga olib borib, Ka'bada xudodan iltijo qilib, sevgi azobidan qutqarishni so'rashga undaydi. Majnun esa, aksincha, o'sha sevgining ijobiy hal bo'lishini yaratgandan so'raydi. Otasi Majnunni bu yo'ldan qaytarib bo'lmasligini anglab yetadi. Shundan so'ng Majnun hayvonlar orasida hayot kechira boshlaydi.

Makkada bo'lib o'tgan voqea Layligacha borib yetadi. U qattiq hayajonga tushadi.

Layli otasining qabila oqsoqollari Majnun o'z g'azallari bilan se-

¹ Ута китоб, 31-бет.

² Короткий Х.Г. Низами Генджени. С. 9.

ning oilangning obro'sini to'kmoqda, deb gap tarqatishadi. Natijada Laylining otasi Majnunni o'ldirishga qasd qiladi. Majnun bilan Layli o'zaro g'azallar yozishib turadilar.

Bir kuni Majnun Navfalga duch kelib qoladi. Navfal Majnunning ahvolini ko'rib, unga yordam berish uchun qo'shin to'plab Laylining otasi oldiga boradi. Biroq Laylining otasi qizni Majnunga berishdan bosh tortib qizini o'ldirishni lozim topadi. Navfal esa bu fojidan dahshatga tushib, zo'ravonlikni to'xtatadi.

Nizomiy Navfal obrazida adolatli va dono hukmdor qiyofasini ko'rsatmoqchi bo'ladi. U Laylining otasiga nisbatan qarama-qarshi timsoldir. U Majnun qiyofasida aqldan ozgan shaxsni emas, balki talantli shoirmi, sog'lom fikrlovchi shaxsni ko'radi. Uni odatdagi hayotga qaytarishga urinadi. Biroq Majnun hayvonlar orasida hayot kechirishni tark etmaydi.

Nizomiy Majnunning rahmdilligi, oliyanobliligini ko'rsatish uchun xarakterli bir lavhani keltiradi. Bitta ovchi kiyikni otmoqchi bo'lganida unga o'zining oxirgi kiyimini taqdim qilib, jonivorni qutqaradi.

Kunlardan bir kun arab boyvachchalaridan bo'lgan Ibn Salom Laylini tasodifan ko'rib qolib, unga sovchi qo'yadi. To'y bo'lib o'tadi. Lekin Layli Ibn Salomni yoniga yo'latmaydi. Majnunga bo'lgan sevgisiga sodiq qoladi.

Nizomiy Qays obraziga ko'proq ahamiyat berib Layli obrazi asarda soyada qolganday ko'rinadi. Bu holat Sharq xalqlariga xos urf-odatlar bilan bog'liq bo'lib, ayollarning sevgi yo'lida andisha saqlashi odati asar ruhidan sezilib turadi. Chunki u paytlarda qizlar nikoh masalasida faqat ota-ona roziligiga qarab ish ko'rishgan.

Shunday bo'lsa-da, shoir eng qaltis paytda Laylidagi sevgi isyonining oluv olishini nikoh kechasidagi lavnada ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Layli o'sha isyondan keyin Majnunga maktub yozib uchrashuvga taklif etadi. Qulog'idagi isirg'alarini o'tkinchi bir kishiga berib, maktubni Majnunga yetkazishni so'raydi. Yo'lovchi iltimosni bajo keltirib, ularni uchrashtiradi.

Majnunning otasi obrazini shoir ma'naviyatli, farzandiga mehribon, o'g'lining orzusi ushalishi uchun hech narsani ayamaydigan yetuk shaxs sifatida tasvirlaydi. Mehribon ota o'limi oldidan o'g'li huzuriga keladi, o'g'li bilan oxirgi marta vidolashib, vasiyatlarini bayon etadi. Tez o'tmay Majnun otasining o'limi haqida eshitadi, uning mozorini quchoqlab yig'laydi. Shu yerda onasini ko'radi, u bilan quchoqlashib erka-

lanadi. Onasi unga uyga qaytishni maslahat beradi, biroq Majnun ko'nmaydi.

Sal o'tmay ona ham olamdan o'tadi. Majnun buni eshitib qo'sh mozor ustida zor-zor yig'laydi. Ota-ona o'limidan so'ng Majnun jamiyatdan uzil-kesil ajraladi.

Nizomiy Majnunning shoirlik qobiliyatini ulug'lash maqsadida asariga bag'dodlik o'smir Salom obrazini kiritadi. Salom Majnun she'rlariga muxlis bo'lib, bu she'rlarni yod olish uchun cho'lga – Majnun huzuriga keladi.

Shu orada Ibn Salom ham vafot etadi. Odat bo'yicha Layli eri uchun ikki yil motam tutishi lozim edi. U motam tutadi, lekin eri uchun emas, balki Majnun bilan bo'lgan sevgisi fojiasi uchun qayg'uradi. Nihoysa, bu alamlar Laylini o'lim chohiga yetaklaydi. U o'limi oldidan, onasini yoniga chaqirib, Majnunga bo'lgan sevgisini tan oladi. O'limidan keyin uni bokira qiz sifatida dafn etishni iltimos qiladi.

Laylining o'limini eshitib Majnun uning mozoriga kelib faryod qiladi, hushini yo'qotib tog'-u toshlarda darbadar kezib fig'on qiladi. U shunda oxirgi fikrga keladi. Ularni faqat o'limgina birga qo'shadi. U Layli mozori oldida "Yo do'st" deya qichqirib jon taslim qiladi:

Har neni yaratgan, ey, xudoyim,

Har neni qilib o'zi atoyim!

Ozod ayla jonim itobdan,

Obod ayla meni shu tobdan.

Bundog' deya bosh qo'yib holka,

Yori go'rini ul olib quchoqqa.

Yor qabrini chun quchgan oni,

"Yo do'st"! dedi-yu chiqdi joni.¹

Ikki oshiq ma'shuqni yonma-yon dafn qilishadi. Nizomiy o'z dos-tonida bir-biridan jiddiy farq qiladigan obrazlarni yaratdi. Majnunning otasi bilan Laylining otasi ijtimoiy kelib chiqishlari bilan bir toifaga mansub. Har ikkalasi ham qabila boshlig'i. Lekin bittasi ma'naviyatli, insoniy xislatlarga ega bo'lgan yetuk shaxs. Lekin o'sha davr qonun-qoidalarini yengib chiqishga imkoniyat topa olmaydi. Ikkinchi johil va xudbin kimsa, u Layli sevgisi bilan hisoblashmay o'z oilasini barbod qiladi.

¹ Нисомий Гинавий. "Лайли ва Мажнун" (Фарсийдан О.Бўриев таржимаси). Ташкент, "Алфудо" халқаро нашриёти, 2005, 241–242-бетлар.

Nizomiy Ibn Salom obrazini yaratarkan, uni boy-badavlat, aqlli, har qanday ishini uddalash qo'ldan keladigan shaxs sifatida ko'rsatadi. Lekin bu shaxsda o'ziga yarasha diyonat, insof barqarordir. U Layliga nisbatan zo'ravonlik qilishdan voz kechadi, Laylini jamiyat oldida tahqir qilishni istamaydi, bu fojidan qattiq ta'sirlanib o'lib ketadi.

Binobarin, Nizomiy "Layli va Majnun" asarida insoniy qadr-qimmatni, sof sevgi-sadoqatni, insoniyat qalbidagi cheksiz ma'naviy boylikni kuyladi. O'z baxt-iqboli, sevgi-sadoqati yo'lida hech narsadan qo'rqmaydigan yuksak irodali insonlar timsolini jonlantirdi.

Nizomiy Ganjaviyning bu asari keyingi asrlarda boshqa ijodkorlar uchun ilhom chashmasi bo'lib xizmat etdi. O'lmas asar sifatida jahon adabiyoti oltin fondidan joy oldi.

Garchi asar fors tilida yozilgan bo'lishidan qat'iy nazar turkiy xalqlar ziyolilari orasida ham keng tarqaldi. Turkiy adabiyotda "Layli va Majnun" ning tug'ilishiga, qolaversa, "Xamsa" yozish an'anasining paydo bo'lishiga turki bo'ldi.

Bu omillar Nizomiy Ganjaviy ijodining jahonshumul ahamiyatidir. XV asrga kelib turkiy adabiyotda ham "Layli va Majnun" dostoni yaratildi. Uni buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy amalga oshirdi.

Navoiy yashagan davrga kelib bu sujetga qiziqish doirasi ancha kengayadi. Navoiyning do'sti bo'lgan Abu Saidning mulozimi Amir Suhayliy ham eski o'zbek tilida "Layli va Majnun" asarini yozadi.¹ Alisher Navoiy esa "Layli va Majnun" dostonini yozishdan oldin arab manbalaridagi rivoyatlarni puxta o'rganib chiqib, Nizomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Ashraf va Amir Shayxim Suhayliylarning "Layli va Majnun" dostonlari bilan mufassal tanishib chiqqan.²

Alisher Navoiy afsona va rivoyatlarni puxta o'rganib chiqdi. Biroq uning asl maqsadi "afsona" so'zlash emas, balki "mazmun" bayon etishdir. "Afsona" asarning "mazmun libosi" bo'lsa, hayot, Navoiy yashagan muhit masalalari asarning mazmuni, mohiyatidir.³

Shoir doston muqaddimasida o'zidan oldin ushbu mavzuga qo'l uрган ustoz shoirlarni hurmat bilan tilga oladi. U Nizomiyni "besh xazina" egasi, deb olqishlasa, Xusrav Dehlaviyni "besh qasr" sohibi tarzida ulug'laydi. Nizomiy dostonlarini "Ka'ba", Dehlaviynikini esa "Ka'ba"

¹ Бертельс Е.Э. История литературы и культуры Ирана. М., "Наука", 1988, с. 290.

² Ахмедов Т. "Лайли ва Majnun". Ўзбек адабиёти тарихи. II том, Т., "Фан", 1978, 258-бет.

³ Миллаев Н. Кўрсатилган асар, 160-бет.

oldidagi “but”ga tenglashtiradi.

Navoiy Nizomiy “Layli va Majnun”iga baho berib, uni “qal’a”ga, Amir Xisrav dostonini yaxshi bezangan “qasr”ga o’xshatar ekan, o’z asarini “qal’a” va “qasr” atrofidagi “shahar” va “bog”ga nisbat bera di.¹

Alisher Navoiy dostoni ekspozitsiyasida (X bob) arab yurtidagi bir boy-badavlat xonadon sohibi va uning befarzandligi, xudodan tun-u kun farzand tilashi va tilagining ijobat bo’lishi hikoya etiladi. Tug’ilgan o’g’ilga Qays ismini berishadi. Qaysning otasi – Omir, Laylining otasi – Hay qabilasining boshlig’i deb beriladi. Laylining badavlat otasiga tegishli maktabga borgan Qays sochlari uchun, ikki qoshi orasida xolli go’zal qiz Laylini ko’rib, sevib qoladi. Shoir XI bobda Layli timsolini batafsil ta’rif etadi.

Qays shoir sifat yigit edi. Layli ham unga ko’ngil qo’yadi. Bu sevgi oshkor bo’lgandan keyin Laylining otasi Qaysning tabaqa jihatdan past ekani uchun unga qizini berishdan or qiladi va Qaysning qo’li oyo-g’iga kishan solishni talab qiladi. Qaysning otasi noilojlikdan bu talabni bajaradi.

Layli otasining bu qilig’i Qaysning odamlar va jamiyatdan bezishi va dunyo ishlariga loqayd bo’lib, sahroga hayvonlar orasiga ketib qolishi, ular bilan do’stlashishiga olib keladi. Shu tariqa, u Majnun laqabini oladi.

Majnun dunyoviy-ilohiy ishq timsolidir.² U o’z davrining ilg’or kishisi, aql va idroklilik, adolat va insofilik namunasidir. U yaxshi shoir, ilm cho’qqisini egallagan olim. U insonni dildan sevadi va ardoqlaydi. U aqlli bo’lgani uchun, samimiy sevgani uchun, sevrishga sodiq bo’lgani uchun zamon hokimlari uni jinni (telba) deb e’lon qiladilar.³

Otasi Majnunni “haj”ga olib boradi. Lekin foydasi bo’lmaydi, u e’tiqodidan, sevgisidan qaytmaydi. Oxir-oqibat otasi uni o’z ixtiyoriga qo’yadi. U dasht va cho’llarda parranda va darrandalar bilan birgalikda hayot kechiradi. Shu yurishida Navfalga duch keladi. Navfal uning sarguzashtlarini eshitib, yordamga qo’l cho’zadi. Laylining Ibn Salomga unashilgani xabaridan so’ng Laylining otasiga qarshi urushga otlanadi. Biroq Majnun bu ishga rozilik bermaydi.

¹ Ўзбек адабиёти тарихи. II том, 259-бет.

² Тўғиёв У. “Лайли ва Мажнун” дostonида сюжет қисмлари ва Мажнун образи. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2005, 1, 23-бет.

³ Ғаниева С. Аlisher Navoiy. Т., “Фан”, 1968, 74-бет.

Bir kuni Majnun sahroda Layli qabilasiga mansub Zayd degan yigit bilan tanishib qoladi. Bu yigit ikki sevishtan qalblarga yordam berib, ularning maktublarini bir-biriga yetkazib turadi. A.Navoiy ushbu maktublarda sevishtanlar qalbidagi eng nozik tuyg'ularni mahorat bilan misralar jismiga payvand qiladi:

Sening nechakim g'amingga yo'q mahl,

Chun er kishisen, bu sahl erur, sahl.

Har sori uray desang takingni,

Tutquchi tikandur etagingni.

Etok dag'i poybanding ermas,

Davri zihi ham kamanding ermas.

Miskin meni zor-u poybasta,

Yo'q, yo'qki, zaifi poshikasta.

Ne mayli sukun, ne xaddi raftor,

Yuz qaydi balo aro giriftor.

Bo'lmoq yuz alam uyida mahbus,

Bir yon, yana bir yon o'ldi nomus.

Er majlisi ichra roh erur zeb,

Xotun kishiga saloh erur zeb.

Pardasini g'uncha aylasa chok,

Barbod etar oni charxi bebok.

Sensizki, g'amim dami kam ermas,

Sendin gar emas ko'p, oz ham ermas.

Sen tortibon ohi otash olud,

Men o't yoqibon chiqormayin dud.¹

Bu misralarda Layli qalbidagi butun dard-u alam to'kib solingan. Navoiyning mahorati shu yerdaki, har bir misrada ayol qalbi, ayol tabiati o'zini sezdirib turadi. "Xotun kishiga saloh erur zeb", "Men o't yoqibon chiqarmayin dud" kabi misralarda ayol kishiga xos eng xarakterli xususiyatlar o'z ifodasini topgan. Haqiqatan ham sharq ayoli "dud chiqar-masdan yonadi".

Majnun maktubi ham sevgi iztiroblariga limmo-lim to'la holda bayon etilgan:

Devonaman, ey pari sifat hur,

Mahzurdur ulki tutsa mahzur.

Bo'ldim chu sening g'amingda nobud,

¹ Xamca, 411-6er.

*Nobudg'a nukta qayda mavjud?
Yo'qning neki so'z bo'lur xitobi,
Tutmoq kerak oni yo'q hisobi.
Yo'qluq manga gar bo'lubturur yo'l,
Sen bor bo'l-u bu yo'qqa yor o'l.
Iqbol ila baxt yoring o'lsun,
Jonlar naqdi nisoring o'lsun.¹*

Majnunning otasi o'g'lini bu yo'ldan qaytarish uchun yana uni izlab dasht-u biyobonlardan topadi, uyiga olib keladi. Qabila oqsoqollari va xesh-aqrabolar bilan maslahatlashib uni Navfalning qiziga uylantirmoqchi bo'lishadi. Navfal bu taklifni bajonidil qabul qiladi.

Majnun bilan Navfal qizining to'yi bo'lib o'tadi. Nikoh oqshomida qiz Majnunga o'z sevgilisi borligini aytadi. Majnun esa qizning bu jaso-ratidan, sadoqatidan ta'sirlanib chiqib ketadi, unga yaxshi tilaklar bildi-radi. Layli bilan Ibn Salomlarning to'yi ham bir vaqtda o'tadi. To'y kuni Ibn Salom kasal bo'lib qoladi. Shu orada Layli bilan Majnun uchrashib, boshidan o'tgan voqealarni bir-biriga so'zlab berishadi. Keyin Layli uy-ga, Majnun Najd tog'iga chiqib ketadi.

Bu dard-g'amlar Majnunning ota-onasini holdan toydirib, ular olamdan o'tishadi. Majnun esa tobora o'zini yo'qotadi. Layli qattiq be-tob bo'lib qoladi. O'limi oldidan onasi roziligi bilan Majnun ikkovi oxirgi marta uchrashadilar. Shunda Layli onasiga o'limidan so'nggi ish-lar haqida vasiyat qiladi. Laylining bu oxirgi so'zlarini Navoiy juda ta'-sirchan ifodalagan:

*O'z oldig'a istabon anosin,
Arz etti nuhufta mojarosin.
Xossaki gulum xazong'a tushti,
Day yeli bu gulistong'a tushti.
Sarvimg'a ajib surat o'ldi,
Kim tarki chaman zarurat o'ldi.
Har hol ila ketmagim yetibdur,
Bu bog'da bo'lmog'im ketibdur.
Kim: "Bo'lsa bu motam oshkoro,
Fahm etgusi ahli ko'h-u sahro.
Bu so'z qulog'ig'a yetgusidur,
Bu hodisani eshitgusidur.*

¹ Xamca, 415-6er.

Ruhum sori ruhi istabon yo'l,
O'z qolibin aylagay tihi ul.
Tufrog'ima tufrog'ini qotg'ay,
Ruhini mening sori uzotg'ay.
Jonsiz bo'lubon tani nizori,
Tufrog' uza yotsa jismi zori.
Zinhorki aylab ehtiromin,
Yonimda yasog'asen maqomin.
Qo'y kina-u lutf-u mehr fan qil,
Jon pardasidan anga kafan qil.
Chirma meni dog'i ul kafang'a,
Bir jins kafan iki badang'a.
Chun ruhi-la ruh topti payvand,
Bir mahdaro yotqur ikki farzand".¹

Laylining bu vasiyatini bajo keltirishadi, ma'shuqasi vafotidan keyin Majnun ham bu dunyoda yashashni ortiqcha deb biladi. Layli qabri ustida faryod-u nola qiladi. Buni Navoiy quyidagi misralarda qayd qiladi:

Bir nahshqa soldilar ikovni,
Jonsiz kelin-u o'lik kuyovni.
Kirdi iki jism bir kafang'a,
Yo'q, yo'q, iki ruh bir badang'a".²

Alisher Navoiy asarni fojea bilan yakunlar ekan, uni "firoqnoma" deb ataydi va ushbu doston voqealaridan ta'sirlanib, uni "yig'lay-yig'lay" tugatganini qayd qiladi:

Majnun g'amidin bori azoliq,
Layli o'lumi uchun qaroliq.
Ya'ni bu sifat firoqnoma,
Bo'ldi manga qatraz xoma.
So'gin nechakim uzottim oxir,
Yig'lay-yig'lay tugattim oxir".³

Navoiy "Layli va Majnun" dostonini yaratar ekan, o'zbek dostonnavisligida yangi sahifa ochdi. Asarda birorta ortiqcha, kishi esida qolmaydigan obraz yo'q. Uning markazida Majnun insonparvar, adolatparvar, oliyjanob, o'z navbatida, isyonkor shaxs sifatida namoyon bo'lib tu-

¹ Xamca, 443-6et.

² Xamca, 446-6et.

³ Xamca, 453-6et.

radi. Majnun Alisher Navoiy badiiy tafakkurining tuhfası bo'lib, eng yorqin timsol sifatida jilolanib turadi. Dostonda Layli obrazi ham hayotiy va to'laqonli ifoda etilgan. Bu obraz Majnun obrazini to'ldiradi. Bu qiz o'sha davrda sevgisi toptalgan, erkin harakat qila olmaydigan, insoniy tuyg'ulari bilan hisoblashilmaydigan ko'plab Laylilarning umumlashma obrazidir. Uning dard-alami Majnunnikidan baland. Chunki u ayol, dardini boshqalarga to'kib sola olmaydi. Shu sababli u Majnunga:

Sening nechakim g'amingga yo'q mahl,

Chun er kishisen, bu sahl erur, sahl,

– deydi.

Layli keng doirada mulohaza yurituvchi, or-nomusni ulug'lovchi, iffatli, aqlli va odobli qizdir. U sevgida go'zallik va vafodorlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. U sevgisi yo'lida o'limdan ham qo'rqmaydi. Onasiga men o'layapman, lekin ortiqcha dod-faryod qilmang, deydi. Bu so'zni aytilish uchun qanchalik iroda kuchi lozimligini anglash ancha murakkabdir.

Dostondagi Navfal obrazi ham hayotiy xislatlarga boydir. U yaxshilarga muruvvatli, yomonlarga shafqatsizdir. Eng asosiysi, u hayotda faol kishidir. Navfal Majnunga duch kelib, uning ahvolini tushunib achi-nadi, unga yordam qo'lini cho'zadi. Biroq davr taqozosi oldida nima qilarini bilmay qoladi. Uning fikricha, odam hayotning gultojidir. Inson inson bilan yashashi kerak. Shuning uchun u Majnunni hayotga qaytar-moqchi bo'ladi.

Navfal adolatli, chuqur mulohaza yuritishga qodir shaxs. U kuch bilan zo'ravonlikni yengishga urinadi. Navoiy bu obraz orqali o'zining hayotga, jamiyatga bo'lgan munosabatini ochib berishga harakat qiladi.

Dostonda ishtirok qiluvchi Zayd epizodik obraz, lekin u o'z faoliyati bilan ko'zga yaroq etib tashlanadi.

Ayrim sharqshunoslarning fikriga qaraganda, bu obraz Nizomiy dostonida bo'lmagan. Kitobni ko'chiruvchilar uni keyingi davrlarda asarga kiritganlar.¹ Bu obraz Nizomiy dostonida diniy ruhni kuchaytirishga xizmat qilsa, Navoiy asarida voqealar rivojiga faol turtki beradi. Asardagi asosiy obrazlar bo'lgan Layli va Majnunlar xarakterini ochib berishda muhim vosita bo'lib qatnashadi.

Shoir bu obrazning fahm-farosatli, har bir qiladigan ishini puxta bajaradigan shaxs sifatida ko'rsatadi. Zayd Layli maktubini Majnunga

¹ Ўзбек адабиёти тарихи. II том, 271-бет.

eltar ekan, yonida qalam va qog'oz olib ketadi. Chunki Majnun sahro qo'ynida, hayvonlar orasida hayot kechirayotganligi unga ma'lum. Qo-laversa, Majnun maktubga javob yozishi lozim. Bu jarayonni Zayd ol-dindand o'ylaydi va o'z vazifasini uddalash uchun ehtiyot choralarini ko'-radi. Uning ushbu harakatlari o'quvchida iliq taassurot qoldirib, esida muhrlanadi.

Dostonda salbiy obraz sifatida Ibn Salom ko'zga tashlanadi. U feo-dal xonadonidan chiqqan shaxs, istagan ishni pul, boylik bilan o'lchaydi. Layli esa bu shaxsga butunlay qarama-qarshi toifadagi insondir. Ibn Sa-lomda aql-zakovat, oliyjanob his-tuyg'udan asar ham yo'q. Navoiy bu maishatparast obrazni yaratish orqali saroyga in qurgan o'z zamonidagi amaldorlar hayotiga ishora qiladi. Layli bilan Ibn Salomning bir-biriga mutlaqo zid kishilar ekanini shoir original o'xshatishlar orqali bayon etadi. Layli oyga, Ibn Salomni ajdahoga qiyoslaydi va maishatparast ku-yovning kecha-kunduz mast-alastligini bayon qiladi:

*Aysh ayladilar necha tun-u kun,
Kim ne kuni maysiz erdi, ne tun.
Chun topti nikoh ishi saranjom,
Layli haramig'a urdilar gom.
Kim mayl etibon tuman jafog'a,
Bergaylar ul oyni ajdahoga.
Ihti necha kun chu bemaduro,
Ul zaxmati bo'ldi oshkoro.
Ul navhki tarki hush qildi,
O'lgan kishilar kibi yiqildi.¹*

Dostondagi yana bir salbiy obraz Laylining otasidir. Umuman, Ali-sheer Navoiy bu asarida otalar obrazini qiyosiy tarzda ifodaga tortgan.

Laylining otasi o'zini yuqori tabaqa vakili sifatida ko'radi. Unda manmanlik, bepisandlik, johillik, xudbinlik kabi barcha salbiy xususi-yatlar mujassamlashgan. Uning fikricha, barcha kishi uning izmiga bo'ysunishi lozim. Aytgan har bir so'zi to'g'ri deb topilishi shart. Aks holda, u istagan bir kishini jismonan yo'q qila olishiga ishonadi. U Maj-nunning otasiga shunday javob beradi:

*Bilmangmu shukuh-u savlatimni,
Ahrob aro mol-u shavkatimni?
Ham o'g'lunga, ham sanga bilurmen,*

¹ Xamca. 428-6cr.

*Kim harne qilay desam qilurmen,
Qil zabtin aning chu bo'ldung ogoh,
Mundin norikim, nauzu billoh!...
Bo'lsa yana bo'yla amr zohir,
Avval ani aylagumdur oxir.
So'ngra sanga dog'i qahr surgum,
Xaylingni bu dashtdin iturgum!*¹

Navoiy bu obrazni tip darajasiga ko'targan. Dostondagi butun voqea-hodisalarning yuzaga kelishida, barcha fojialarning qalqib chiqishi-da bu obraz asosiy figura sifatida ishtirok etadi.

Majnunning otasi bu odamga qaraganda boshqacharoq xarakterga ega. U o'g'li uchun jonini ham ayamaydigan mehribon inson. Majnun-ning ahvolini ko'rib u qattiq qayg'uradi, uni tabiblarga ko'rsatadi, hajga olib boradi. Boshqa biror qizga uylantirib, uni chalg'itishga urinadi. Navoiy bu inson obrazini yaratish orqali hamma mansabdor shaxslar ham bir xil emas, ularning orasida ham muruvvatli, farzandjonli insonlar bor degan fikrni ilgari suradi. Chunki Navoiyning o'zi ham mansabdor, lekin saxiy, insonparvar, dono tadbirkor inson edi. Dostonda onalar haqida go'zal fikrlar bayon etilgan. Majnunning onasi qiyofasida mehridaryo mushfiq ayollar obrazi o'z aksini topgan. Uning farzandi uchun kuyib-yonishi Majnunning otasi tilidan ta'sirchan misralarda bayon etiladi:

*Men bo'yla hazin-u zor sensiz,
Onang dag'i beqaror sensiz.
Oqshomdin tongg'a joni mahzun,
Tongdin oqshomg'a ashki gulgun.
"O'g'lum" deru ul sifat chekar voy,
Kim charx o'qining qadin qilur yoy,
"Bo'tam" debon aylar ul sifat kech,
Kim qolmas ruhidin asar hech.
Men bo'ylavu ul zaif bo'yla,
Kel ikkalamizga chora ayla!*²

Laylining onasi tasviri ham ushbu qiyofani eslatadi.

Layli o'limi oldidan onasini oldiga taklif etib, vasiyat qiladigan lavhada Navoiy ona qalbining naqadar olijanobligini alam bilan chizib beradi. Layli vasiyatini tamomlab ko'z yumadi, joni uziladi. Lekin

¹ Хамса. 379-380-бетлар.

² Хамса. 418-бет.

mushfiq ona uni uxladi deb o'ylaydi, o'zini to'rt tomonga tashlab, tal-vasa og'ushida qoladi, uni uyg'otmoqchi bo'ladi:

*Ko'z qo'ydi toboni uzra yig'lab,
Uyg'otg'ali kirpiki qichig'lab.
Ya'ni: "Emas uyqu vaqti ko'z och,
Xandon chekibon ayog'in so'z och.
Gah orazig'a yuzin tegurdi,
Ruxsorig'a ashkdin su urdi.
Ya'ni su tegib yuziga nogoh,
Seskangay o'z uyqusidin ul moh."*¹

Navoiy mushfiq onalarning mehribon qiyofalarini muhabbat bilan tasvirlar ekan, ularning farzandlari uchun kuyib-yonishdan boshqa ilojlari yo'qligini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Binobarin, shoir "Layli va Majnun" dostonidagi har bir obrazda o'zining zamonasiga bog'liq masalalarni aks ettirishga urinadi.

Har qanday yozuvchi biror asar yaratganda voqealar tasvirida o'zi ham qalban aralashib yuradi. Ayrim obrazlarda o'z istaklarini bayon etadi.

Nizomiy ham o'z hayotidagi ko'pgina sarguzashtlarini Majnun obraziga ko'chiradi. Bu asarda Nizomiy bilan Majnun ruhiy olam jihatidan juda yaqindir.²

Navoiy ham "Layli va Majnun" dostonining o'z shaxsiy hayotiga aloqasi borligini yashirmagan. U ham sevgan va ayrilgan, xuddi Majnundek uylanmay dunyodan o'tgan.³

"Layli va Majnun" dostoni Navoiy ijodida katta o'rin tutadi.

Asarda aks etgan voqea Arabistonda yuz bergan qilib ko'rsatilsa ham, aslida Navoiy, birinchi navbatda, o'z vatanidagi voqea va ijtimoiy munosabatlarni tasvirlab berdi.⁴

Asardagi o'lmas g'oyalarning umrboqiyiligi ham ana shundadir. Alisher Navoiy keyin ham "Layli va Majnun" sujetiga murojaat qilish an'anasi davom etdi.

Buyuk Ozarbayjon shoiri Fuzuliy Muhammad Sulaymon o'g'li (1498–1556) ana shu an'anani muvaffaqiyatli davom ettirgan adiblardan biridir. U ozarbayjon, fors, arab tillarida ijod qilgan. Shoirning otasi Ba-

¹ Хамса. 443–444-бетлар.

² Короглы Х.Г. Низами Гянджеви. С. 35.

³ Туйчиев У. Курсатилган мақола. 25-бет.

⁴ Ганиева С. Алишер Навоий, 79-бет.

yot urug'idan bo'lib, XV asrda Ozarbayjondan Bag'dodga ko'chadi. Fuzuliy Bag'dod madrasasida tahsil oladi, u turkiydan tashqari fors, arab tillarini ham yaxshi egallagan. Shoir Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi bilan yaqindan tanish bo'ladi hamda ular an'anasini davom ettiradi. Fuzuliy ijodining cho'qqisi "Layli va Majnun" dostoni (1536–1537)dir. Adib an'anaviy sujetga murojaat qilsa-da, o'z qahramonlari-ga yangicha ruh bag'ishladi. Sevgi fojiasini zamonasiga yaqinlashtirdi, milliy kolorit baxsh etdi. She'riy bayonda masnaviydan tashqari, rang-barang shakllarga qo'l urdi. Asar o'rta ozarbayjon tilida yozilgani uchun boshqa turkiy xalqlar orasida ham tezda mashhur bo'lib ketdi.

Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonini ozarbayjonchadan Xolid Rasul nashrga tayyorlagan.¹ Nashrga tayyorlovchining muvaffaqiyati shundaki, asarning ozarbayjoncha uslubiga halal yetkazmagan holda o'zbek o'quvchisiga voqealarni tushunarli tarzda bayon qilib bera olgan.

Fuzuliy asarini uchta ruboiy bilan boshlaydi. Ularda shoir "afsona bahonasila" Layli "vasfin" bayon etmoqchi ekanini aytadi:

Tutsam talabi haqiqata rohi majoz,

Afsona bahonasila arz etsam roz.

Layli sababila vasfin etsam og'oz,

Majnun dili ila etsam izhori niyoz.²

Shoir asar debochasidagi soqiy nomada Nizomiy va Navoiylarni **e'zoz** bilan tilga oladi:

Bo'lmishdi safoyi dil Nizomiy,

Shirvonshaha dushub kiromi.

O'lmishdi Navoiyi suxandon,

Manzuri shahanshahi Xuroson.

So'z gavharina nazar solonlar,

Ganjina verib guhar olonlar. (10-bet)

Fuzuliy voqeani boshlayotib, "Mazmuni fig'on-u nola-vu oh" ekanini ta'kidlaydi. Keyin esa Basra bilan Bag'dod o'rtasida ko'chib yuruvchi "arabdag'i bir juvonmard" haqida so'z yuritadi:

Amvoli jamihi jinsdan cho'x,

Ammo bu jahonda vorisi yo'q. (18-bet)

Ushbu boy-badavlat, befarzand kishiga bir kuni xudo o'g'il farzand ato qiladi. Unga Qays deb ism qo'yishadi.

¹ Муҳаммад Фузулий. Асарлар. II жилдлик, II жилд. Т., "Адабиёт ва санъат", 1968, 3–181-бетлар.

² Муҳаммад Фузулий. II жилд, 5-бет (булдан кейинги олинган мисолларда фақат саҳифа қайд қилинади).


Fuzuliy dostonida voqeaning boshlanishi Nizomiy va Navoiy asarlarinikidan jiddiy farq qiladi. Unda hikoya etilishicha, Qays tug'ilganidan boshlab tinmasdan yig'lay boshlaydi. Uni to'xtatishga hech chora topa olmaydilar. Bir kuni doylalar sayrga olib chiqib, bir uyning oldiga borganda o'sha uydan chiqqan parivash ayol Qaysni qo'liga oladi. Bola yig'idan to'xtaydi. Bu ayol Laylining onasi bo'ladi. Qaysning ko'zi Layliga tushib, fig'onni to'xtatgan edi. Shu tariqa, vaqtlar o'tib o'n yoshida Qaysni maktabga berishadi. U yerda Qays Layliga duch keladi, birga tahsil oladi. Hamisha birga dars tayyorlashadi. Oxir-oqibat bu sir oshkor bo'lib, Laylining onasiga yetib boradi. Onasi unga agar bu sirni otang eshitsa, oxiri juda yomon bo'ladi, deb Laylini maktabdan olib qolish payiga tushadi va maqsadiga erishadi. Ertasi Qays maktabga kelib Laylini topmay iztirobga tushadi. O'zini yo'qotadi va Majnun laqabini oladi.

Bir kuni bahor saylida Majnun bilan Layli tasodifan uchrashib, visol chog'ida ikkalasi ham behush bo'lib yiqilib qolishadi. Shundan keyin Majnun sahroga chiqib ketadi. Bundan otasi voqif bo'lib, uni izlab topadi. Majnun otasini tanimaydi. Faqat Layli ismini takrorlaydi. Otasi unga Layli seni uyda kutib o'tiribdi, deb aldab uni olib qaytadi. Onasi unga nasihat qiladi, yolboradi, senga istagan bir qizni olib beramiz, deydi. Majnundan rad javobini olgach, uning otasi Laylining otasi huzuriga kelib, o'z maqsadini bildiradi. Biroq Laylining otasi Majnun otini ko'targan savdoyiga qizimni bera olmayman, deydi. Majnundagi savdoyilikni yo'qotish uchun uning otasi ko'p urinadi, tabiblarga murojaat qiladi. Oxiri uni haj ziyoratiga olib ketadi. Hajda ham Majnunning ahvoli yana o'zgarmasdan qoladi. Uyga qaytgach, u tog'larga chiqib ketadi. Ki-yiklar orasida hayot kechiradi. Ovchilarga hadya berib jonzotlarni qutqaradi. Laylining ahvoli ham Majnunnikidan battar edi. U o'z holini sham, chiroq, sabo bilan o'rtoqlashar edi.

Kunlardan bir kun Laylining onasi, uning holiga achinib gulzor sayriga yuboradi. O'shanda uni ovga chiqqan Ibn Salom ko'rib oshiq bo'lib qoladi.

Fuzuliy dostonida Navfal obraziga ham muayyan o'rin ajratilgan. U Majnunga yo'liqib, unga yordam qo'lini cho'zadi. Laylining qabilasiga noma yozib, uni Majnunga berishni buyuradi, aks holda, qon to'kilishini aytadi. Ular rad javobini bergach, urush e'lon qiladi. Biroq uni Majnun to'xtatadi.

Majnunning ishq kundan-kunga oshadi. Bir kuni ko'zini bog'lab,



1-2/2



ko'r qiyofasida tilanchilik qilib Layli uyi oldiga kelib ovoz beradi, uni Layli tanib ikkalasi dardlashadi. Shu orada Laylini Ibn Salomga nikoh qilishadi. Visol oqshomi Layli unga barcha sarguzushtlarini hikoya qiladi. Ibn Salom esa unga daxl etmaydi.

Dostondagi Zayd obrazi xuddi Navoiy asaridagidek ikki sevimli insonlarga maktublar eltib turadi. Majnunning otasi bilan sahroda uchra-shuv epizodi Fuzuliy dostonida ham juda ta'sirchan chiqqan. Majnun otasini taniy olmaydi. Shunda otasi qattiq hayojonlanadi. Shoir bu lavhani hayajonli misralarda ifodalay olgan:

Man durjam-u san duri shabafro 'z!

Ya'ni otangam mani siyahro 'z!

Ey hosili mazrai vujudim!

Vay umr hisoratinda sudim,

Ey javhari joniming havosi,

Vay diydai baxtiming ziyosi! (120-bet)

Majnunning otasi uni bu yo'ldan qaytarish uchun ko'p urinadi. Lekin Majnun quyidagi javobni beradi:

San sonmaki, uldur ul, man amman,

Bir jon ila zindadur iki tan. (124-bet)

Shundan keyin otasi u bilan vidolashib, qaytib ketadi. Sal o'tmay u vafot qiladi. Majnun kelib, undan uzurxohlik tilab yig'laydi.

Sal o'tmay, Ibn Salom vafot etib, Layli o'z uyiga qaytib keladi. Majnun bilan maktub olishib turadi. Biroq tushkunlikka beriladi. Buni Laylining kuzda boqqa chiqib, yaproqlari to'kilayotgan daraxtlarga qarab aytgan quyidagi so'zlaridan bilish mumkin:

San garchi xazonsan giriftor,

Albatta, bahora yetmaging vor.

Ummidi visol marda yo'xdur,

Sandan g'am-u g'ussa manda cho'xdur! (167-bet)

Layli o'z ahvolini bilib, onasini huzuriga taklif etib, o'z vasiyatlarini bayon qiladi:

Ey munisi ro'zigorim ona!

G'amxorim-u g'amgusorim ona!

Man dori baqoya azm edanda,

Dunyoya vidoh edib gedanda,

Mansiz chekib ohlar, fig'onlar,

Sahrolara dushdugung zamonlar,

Dushsa yo'lung ul o'lon diyora,

*Arzi g'amin ayla ul figora.
Zinhor onga o'landa vosil,
Xush kimsadur, ondan o'lma g'ofil!
Domonini tut, rizosin asta,
Man mujrim uchun duosin ista!
Arz aylaki! "Ey vafoli dildor!
Jon verdi yo'lingda Layliyi zor.
Gar sodiq esang bu yo'lda sen ham,
Sabr aylama, ayla tarki olam.
Gal, komi dil ila o'lalim yor,
Bir yerdaki, yo'x dur anda ag'yor...
Doim o'lalim bir evda hamroz –
Kim, chixmaya dishra ondan ovoz. (170-bet)*

Bu satrlardagi yopiq dard-alam Laylining onasiga va u orqali Majnunga atalgan vidolashuvi va vasiyatlari edi. Sal o'tmay u olamdan o'tadi. Bu shum xabar Majnunga borib yetadi, u darhol yo'lga tushadi:

*Dushdi yo'la, o'ldi Zayda hamroh,
Bir hol ilakim nauzu-billoh.
Chun ko'rdi mazori gul g'uzorin,
Dushdi-yu quchoqladi mazorin.
Ko'ksini qilib lahad kibi chok,
Mard kibi sochdi boshina hok. (173-bet)*

Majnun Layli mozori ustida fig'on-u zor qiladi. Xudodan o'ziga o'lim tilaydi:

*Mushtoqingam, ey ajal, karam qil,
Dafhi alam ila rafhi g'am qil!
Qutor mani iztirobi g'amdan,
Ver mujda vujudima adamdan! (174-bet)*

Shundan keyin Majnun Layli qabri ustida jon taslim qiladi. Uni o'sha yerda dafn qiladilar:

*Qabr ustina ko'rdilar yiqilmish,
Jononaya jon nisor qilmish.
Ahvolina og'layub sarosar,
Dafn etmagin etdilar muqarrar.
G'usl aylayubon tani nizorin,
Dildorining ochdilar mazorin.
Qo'ydilar oni ham ul mazora,
G'amnok yetishdi g'am gusora.*

*Ruh o'ldi falakda ruha hamroz,
Tan o'ldi tan ila yerda damsoz. (176-bet)*

Shu voqea bilan doston nihoyasiga yetadi. Fuzuliy an'anaviy syujet asosida go'zal bir asarni yaratdi. Dostondagi tasvirda she'riyatning turli janrlariga murojaat etdi. Voqealar taqozosi bilan asarning lozim bo'lgan joylarida obrazlarning monologi tarzida 24 g'azal va har biri 7 banddan iborat ikkita murabbah shaklidagi she'rni doston tarkibiga kiritdi. Bundan tashqari, har bir bobdan keyin "Tamomiya suxan" sarlavhasi ostida yakunlovchi she'r ilova etilgan, shuningdek soqiynomalarga ham murojaat qilingan. Asar oxirida ta'rix janridan ham foydalanilgan. Asar debochasida to'rtta ruboiy berilgan bo'lib, shaklan taronayi ruboiyga asoslangan. Natijada asar rang-barang she'riy janrlar bilan bezalgan. G'azallarning berilishi obrazlarning ichki tuyg'ularini jo'shqin bir tarzda ifodalash imkoniyatini ro'yobga chiqargan.

Dostondagi Majnun va Layli obrazlarini shoir yuksak zavq-shavq bilan tasvirlaydi:

*Layli dema – jannat ichra bir hur,
Majnun dema – zulmat ichra bir nur.
Layli dema – avji husna bir moh,
Majnun dema – mulki ishqqa bir shoh.
Layli – chamani balo niholi,
Majnun – falaki vaf o hiloli.
Layli ishi-ishvavu karashma,
Majnun ko'zi yoshi chashma-chashma.
Laylida kamoli husn ila zavq,
Majnunda jamoli Layliya shavq. (39-bet)*

Shoir Layli va Majnun obrazlaridagi barcha xislatlarni ushbu satrlar mag'ziga joylashtira olgan. Afsuski ularning shoir qalamga olgan behad ishq-muhabbatlari zamona zayli bilan kunpayakun bo'ladi. Fuzuliy dostonidagi boshqa obrazlar Nizomiy va Navoiylar dostonlaridagi obrazlarga o'xshab ketsalarda ayrim farqlarga ega. Masalan, Navfal obrazi Fuzuliy dostonida ancha faol va isyonkor. U Layli otasining qabilasi bilan jangni boshlab yuboradi va g'olib keladi:

*Fath o'ldi sipohi turka mansub,
O'ldi arabing sipohi mag'lub.
Fig' oldi alina pahlavonlar,
Boshlar kesilib to'kildi qonlar.
Laylining otosi ochdi boshin,*

Do 'ldurdi ko 'zina qonli yoshin. (90-bet)

Laylining otasi bu ixtilofdan qizim birovga unashilgan, agar shunday bo'lmaganda, men jon deb sening iltimosingni bajarar edim, degan javob bilan qutilib qoladi. Navfal bu so'zni eshitib, o'zining asl maqsadi o'jizlar ustidan g'olib bo'lish emas, adolat uchun kurashish ekanini ta'kidlaydi:

Bedod-u sitam dagil shiorim,

Adl ichra tamomdur ayorim. (91-bet)

Dostonda Navfal qizining Majnunga xotinlikka berish lavhasi yo'q. Fuzuliy asarida Layli otasining obrazi ham ancha yumshoq tarzda tasvirlanadi. U Majnunning otasi sovcilikka kelganda nasl-nasabini pesh qilmaydi, faqat o'g'lingning savdoyiligini to'xtatsang, men bu ishga roziyman qabilida javob beradi. Majnun otasi obrazi esa ilgariги dostonlardagi kabi mehr-muhabbatga ega bo'lgan bag'rikeng, insonparvar, bolajon, oilaparvar kishi qiyofasida namoyon bo'ladi.

Laylining onasi bu dostonda ham o'zining mushfiq va mehribonlik qiyofasini saqlab qolgan. Majnunning onasi obrazi haqida ham o'sha fikrni aytish mumkin.

Dostonda Zayd obrazi juda yorqin tarzda berilgan. U hamisha Layli bilan Majnunning o'zaro aloqasini amalga oshirishda jonbozlik ko'rsatadi. Ularning fojiali o'limidan so'ng qabrlari ustida bino tiklab mujovirlik qiladi.

Asarda Ibn Salomni salbiy obraz sifatida qoralash tamoyili ko'rinmaydi. U dostonda "Idroki baland-u husni dilkash" tarzida tasvirlanadi. U ov bahonasida yurib, tasodifan Laylini ko'rib oshiq bo'lib qoladi. Shoir buni qoralab ko'rsatmaydi. Chunki go'zal va oqila qizga hamma ham oshiq bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari surmoqchi bo'ladi. Ibn Salom o'ila qurish uchun sovcini yuboradi va ijobiy javob oladi. Navfal bu masalada urush boshlaganda Layli Ibn Salomga unashilgan edi. Shu sababdan Navfal ham bu udumga daxl qilmaydi. Eng xarakterli holat shuki, Majnun Ibn Salomning o'lganligi haqida Zayd xabar olib kelganda, sevinish o'rniga yig'laydi. Bundan Zayd ajablanadi:

Kim, favti raqib eshitsa oshiq,

Kulmak kerak, og'lamoq na loyiq!

Shunda Majnun unga deydi:

Ul do'stim edi, dagildi dushman,

Ham ul anga oshiq edi ham man.

Ul jonini verdi, vosil o'ldi,

*O'z martabasinda komil o'ldi.
Nuqsim manim irmadi kamola,
Ayb aylama og'lasam bu hola. (143-bet)*

Har bir obraz qiyofasini ochishda Fuzuliy mustaqil ish tutadi. Birovlarni qoralash, birovlarini oshirib maqtashdan tiyiladi. Barcha qahramonlarga inson sifatida qaraydi. Majnun obrazini yanada bag'rikeng, insoniy xislatlarga boy, ma'naviyatli shaxs sifatida ko'rsatishga intiladi.

Binobarin, Fuzuliy o'z ustozlari asarlaridan ilhomlangan holda, bu qadimiy sujetni o'z dunyo qarashi nuqtayi nazaridan yangicha talqin qilishga erishdi.

Asar o'rta turk tilida yozilganligi sababli uni barcha turkiy xalqlar sevib mutolaa qilishgan. Asar tili Xorazm o'g'uz lahjasiga juda yaqinligi bilan alohida ko'zga tashlanadi. Bu esa dostonni Xorazm vohasida yashovchi turli turkiy xalqlar orasida hozirgacha mashhur bo'lib yashab kelishiga yo'l ochgan.

"Layli va Majnun" dostoni sujetiga Fuzuliydan keyin ham ko'pgina adiblar qo'l urishdi. Shulardan biri xorazmlik Nurmuhammad Andalibdir.

"Nurmuhammad G'arib Andalib 1710–1711-yilda tug'ilib, 1770 – 1771-yilda vafot etgan turkman va o'zbek shoiridir".¹ Shoir Ko'hna Urganchning Qoramozi qishlog'ida dunyoga kelgan.

Andalib "Yusuf va Zulayho" dostoni muqaddimasida o'zining ismi, taxallusi, tug'ilgan joyi to'g'risida ma'lumot berib o'tgan:

*Ismim edi Nurmuhammad g'arib,
So'zda taxallusim edi Andalib.
Shahrimiz Urganch viloyat edi,
Xonimiz Shoh G'ozimoyat edi.
Asli makonimki Qoramozi dur,
Odami shiratda qish-u yozidur.²*

Turkman manbalarida Andalibning hayoti haqida bir-biriga zid fikrlar uchraydi.

A.Meredov va S.Axallilarning ko'rsatishlaricha, "Andalib XVIII turkman shoiri (1711–1770) oti Nurmuhammad, Toshhovuz atroflarida yashagan. U "O'g'uznoma", "Risolayi Nasimiy", "Layli va Majnun", "Yusuf-Zulayho" dostonlari muallifidir. Forsiyda ham ijod qilgan. Jo-

¹ Ўзбек энциклопедияси. I том, Т., "Фан", 1971, 357-бет.

² Ўзбек адабиёт тарихи. III том, Т., "Фан", 1978, 336-бет.

miy she'rlarini tarjima qilgan".¹

A.Mulkamanov, G.Nazarov va M.Charqevlar esa shoir dostonlari majmuasiga yozgan so'z boshilarida Andalib hayotini quyidagicha sharhlaydilar: "Andalib taxminan 1660-yillarda Ko'hna Urganchning Qoramozi qishlog'ida tug'ilgan. Otasi duradgorlik bilan shug'ullangan. U taxminan 1740-yilda vafot etgan. Shoirning "O'g'uznoma", "Nasimiy", "Sahd Vaqqos", "Qissayi firg'on", "Yusuf-Zulayho", "Zayn ul-arab", "Layli-Majnun" dostonlari bor."²

Shoir tarjimai holidagi bu tafovutlar bizning fikrimizcha, Sherg'oz va Shohg'ozixonlar davri bilan aloqadordir. Shoirning 1991-yilda nashr etilgan "Yusuf-Zulayho" dostonida Sherg'ozixon tilga olingan. Agarda shu nuqtayi nazardan qaralsa, Andalibning 1660-1740-yillarda hayot kechirganligi to'g'ri bo'lib chiqadi. Agarda dostonda Shohg'oz nomi keltirilgan bo'lsa, ilgari keltirilgan manbalardagi ma'lumotlar haqiqatga yaqin keladi.

Andalib ijodida uning "Layli va Majnun" dostoni muhim o'rin tutadi. Asarning 1991-yildagi turkmancha yig'ma nashri ancha mukammal bo'lib, nashrga tayyorlovchilarning ta'kidlashlaricha, ilgari nashrlarda doston tarkibiga kirmagan 9 she'r bu nashrdagi matn ichiga qamrab olingan.³ Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha: "Arabistonda Sa'id Bani Amiriy degan qabila boshlig'i yashagan bo'lib, u befarzand edi. Xudodan ijobat bo'lib bir kuni uning xonadonida o'g'il farzand tug'ildi. Unga Qays ismini qo'yishadi. Ulg'ayadi, uni maktabga berishadi. O'sha yerda Layli ismli qizni ko'rib, unga oshiq bo'ladi. Layli Bani xay qabilasidan edi. Qays va Layli orasidagi ishq haqida Laylining otasi xabar topib, qizini o'qishdan qoldiradi. Shundan keyin sovchilik, rad javobi, Majnunning toqqa qochishi, sahroda hayvonlar orasida hayot kechirishi kabi voqealar bayon etiladi. Shu tariqa, voqealar Ibn Salom bilan bog'lanib ketadi. Laylini unga fотиha qilishadi. Qiz rozi bo'lmagach, o'zini o'ldirmasin degan maqsadda uning qo'liga kishan solib qo'yishadi. Andalib asarida ham Navfal voqeasi, Zaydning xizmatlari tilga olinadi.

Shu orada Laylini Ibn Salomga nikohlab berishadi. Eri Laylini Bag'dodga olib ketadi. Shu jarayonda Layli Bakir ismli kishi orqali

¹ Мередов А., Ахаллы С. Туркмен классыкы эдебиятынын сазлуги. Ашгабат, "Туркменистан", 1988, 27-нжи сакыта.

² Андалип. 5-бет.

³ Уша манба, 11-бет.

Majnunga maktub jo'natib, bu yo'lda sabr qilishni iltijo etadi. Majnun esa taqdiriga tan berib sabr qiladi.

Majnunning otasi Laylining Bag'dodga ketganidan keyin o'g'lidan bu yo'ldan qaytishni o'tinib so'raydi. Majnundan rad javobini olgach, vidolashib qaytib ketadi va tez orada vafot etadi.

Majnun otasi o'lganini eshitib, uning marosimlarini o'tkazib yana sahroga chiqib ketadi.

Ibn Salom Laylini Bag'dodga olib kelgach, nikoh kechasi xudodan najot kelib Laylining o'rniga Ibn Salom bilan uchrashish uchun Layliga o'xshash boshqa bir parizod keladi.

Layli Majnunni unutmaydi, oxiri onasini huzuriga taklif etib, ko'nglidagi vasiyatlarini aytadi va jon taslim qiladi.

Zayd bu xabarni Majnunga yetkazadi. Majnun mozor boshiga kelganda, Laylining onasi oh chekib o'tirgan bo'ladi. Birgalikda oh-u zor qilishadi. Majnun shu yerda bir ikki kunni o'tkazadi. Shu orada Ibn Salom kelib unga uchrashadi va Laylining bokiralikda qolganligini aytadi hamda uzr so'raydi. Majnun yori qabri ustida turib xudodan o'ziga o'lim tilaydi. Tilagi ijobat bo'ladi va Layli ikkovining ruhi qush bo'lib behisht sari qanot qoqib uchib ketishadi.

Doston mazmuni, asosan, shu bilan tugaydi. Sujet ilgari adiblarning asarlaridagi mazmun bilan, asosan, mos keladi. Lekin Andalib dostonida Navoiy va Fuzuliy asarlaridagi voqealardan farq qiluvchi detallar anchani tashkil etadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, Andalib o'z asarini nazm va nasr aralash holda xalq dostonlari uslubida ijod qildi. Dostonning til xususiyatlari, bayon uslubi, shoirning she'riy janrlardan foydalanish mahorati Xorazmda tarqalgan xalq dostonlaridan deyarlik farq qilmaydi. Doston tarkibidan 22 muxammas, 1 musaddas, 5 mustahzod, 12 g'azal o'rin olgan. Qolgan barcha she'riy parchalar murabbahlardan iborat bo'lib. Ular 84 misrani tashkil qiladi. Doston tilining leksik xususiyatlari, she'riy janrlarning mukammalligi va rang-barangligiga qaraganda Andalib madrasa ta'limini olgan, fors va arab tillarini yaxshi egallagan, yuksak ma'rifatli ziyoli bo'lib chiqadi. Buni dostonda keltirilgan quyidagi parcha yaqqol isbot qila oladi:

"Alg'araz Qays ko'rdikim, maktabxonada bir mohi anvar va xurshidi xovar, bir ofati jon, yagonayi davron, yulduzlar ichra oyga o'xshash bir necha qizlar birlan Layli bir tarafda o'tlurub turur. Yana bir tarafda jannat ichidagi g'ilmonga o'xshab, parivash o'g'lonlar o'tlurub tu-

rurlar, maktabxona go'yoki jannat ul mahvo erdi va bular hur ila g'ilmon erdilar (29-bet).

Andalib Xorazmda tarqalgan dostonlarni juda yaxshi bilgan. "Layli va Majnun"dagi ayrim she'riy parchalar shakl va uslub jihatidan "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidagi she'riy parchalarga juda hamohang keladi:

*Bordim odob saroyig'a,
Shanba kuni sabo birlan.
Tushdi ko'zlarim oyig'a,
Bir necha dilrabo birlan. (30-bet)*

"Oshiq G'arib va Shohsanam"da:

*Yetti yilga ketgan yorim,
Xush keldingiz sabo bilan.
Ko'zim yo'lda kunim kechdi,
Ishim jabr-u jafo bilan.¹*

Andalib dostonlar tarkibiga mustazod janrini ilk bora kiritgan shoirdir. "Layli va Majnun"da bu janrning go'zal namunalari uchraydi:

*Shamshod qading turfa gulistong'a tushubdur,
Ey, Layliyi rahno.
Go'yoki ko'zim jannati rizvong'a tushubdur,
Ey, qomati zebo.
Majnunning balokash olamida sitaming bor,
Bag'rig'a urub tosh.*

*Nozik badani huri mo'g'ilong'a tushubdur,
Ovorayi sahro. (66-bet)*

Dostonda obrazlarning ichki his-tuyg'ularini jo'shqin va ta'sirchan satrlarda ifodalash maqsadida shoir g'azallarga faol murojaat qiladi:

*Ibni Salom, arzim sango Majnuni benavo o'zim,
Dardi firog'i dashtida darbadar-u gado o'zim.
Layli deyub cho'li Mug'on, ishqig'amidin kaydi jon,
Maskanim sahroyi jahon, vatansiz bema'vo o'zum. (1132-bet)*

Mustaf'ilun ruknining aynan takroriga mos keluvchi ushbu g'azal rajazi musammani solim bahrida yozilgan.

Ushbu bobdagi ko'rib chiqilgan masalalar quyidagi xulosalarga ke-lish imkonini beradi:

"Layli va Majnun" dostoni qadim zamonlardan boshlab og'zaki

¹ Ошиқнома. II китоб, Урганч. "Хоразм", 2006, 135-бет.

hamda yozma adabiyotda faol tarqalgan mashhur asarlardan biridir. Ushbu sujet asosida turli tillarda ellikdan oshiq dostonlarning yuzaga kelishi buning dalilidir.

Doston sujetining dastlabki ildizlari arab dunyosi bilan aloqador bo'lib, VII asrlarga borib taqaladi. Ko'pgina arab tadqiqotchilari bu sujetning sababchisi sifatida Majnun taxallusli shoirni ko'rsatadilar va uning tarixiy shaxs ekanligini ta'kidlaydilar. Ayrim tadqiqotchilar esa buni inkor etadilar. Nima bo'lishidan qat'iy nazar, ushbu sujetga asos bo'lgan afsona va rivoyatlarning shakllanishiga qandaydir hayotiy voqealarning sababchi bo'lganligi shubhasizdir.

VII – VIII asrlarda paydo bo'la boshlagan, Majnun obrazini o'z ichiga qamrab olgan turli afsona va rivoyatlar IX asrga kelib faollik kasb eta boshlagan, muayyan sujet shakllanib, Arabistondan boshqa mamlakatlarda ham tarqalib, yaqin Sharqda mashhurlik qozongan.

Bu sujet turkiy xalqlar orasida ham yoyilib, she'riy hikoyalar, dostonlar yuzaga kela boshlagan. Bu jarayonda qissaxonlik an'anasining roli alohida o'rin tutadi. Dostonning og'zaki repertuarga o'tmasdan ko'plab yozma nusxalar orqali bizgacha yetib kelganligi ham shundan dalolat beradi. Bu yozma nusxalarning qayta ishlangan holda turli kotiblar tomonidan ko'chirilishi asarga yangidan yangi she'riy parchalarning kirib kelishiga zamin yaratgan. Asar qo'lyozmalarida Majnundan tashqari, Noriy, Sabotiy kabi taxalluslarning uchrashi ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Asar sujeti yozma adabiyotga o'tib ommalashmasdan burun bu asarning xalq variantlari yuzaga kela boshlaganligi ehtimoldan uzoq emas. Chunki dostonning xalq variantlari ko'pgina turkiy xalqlar orasida XIX asrning o'rtalaridayoq keng tarqalganligi haqida ma'lumotlar bor. XVIII asrda dostonning Umar Boqiy variantining yuzaga kelishi, 1872-yilda uning ozarbayjon variantining chop etilishi, shu asrlardayoq uning qozoq xalqi orasida ma'lum bo'lishi, XIX asr o'rtalarida Xorazmdagi qissaxonlar repertuarida asarning ikki-uch variantda tarqalishi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Bu dostonlarning XVIII – XIX asrlarda chop etilishi ularning o'sha asrlarda paydo bo'ldi, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Negaki, har qanday asar to'la shakllanib, xalq orasida mashhurlik qozongandan keyingina yozuvga olinib, keng ommaga yoyiladi. Qolaversa, bu dostonning qo'lyozma nusxalari XVIII asrlardan burun ham tarqalgan, biroq bizgacha yetib kelmagan bo'lishi mumkin.

XII asrga kelib dostonning Nizomiy Ganjaviy tomonidan muayyan bir tizimga solinib, yozma adabiyotda paydo bo'lishi asar sujetining

og'zaki va yozma adabiyotda yanada mashhurlik kasb etishiga olib keldi. Garchi asar fors tilida bitilgan bo'lsa-da, u turkiy xalqlar adabiyotiga, o'z navbatida, qissaxonlikka ham samarali ta'sir ko'rsatdi. Chunki o'sha davrda yashagan turkiy xalqlarga mansub ziyolilarning barchasi forsiy tilni ikkinchi til sifatida mukammal egallashgan edilar. Shu sababli Nizomiy Ganjaviydan keyin bu sujet turli xalqlar adabiyotida mustaqil asar sifatida paydo bo'la boshladi.

Yozma adabiyotda Layli va Majnun obraziga qiziqish, o'z navbatida, "xamsa"chilik an'anasining davom etishi va taraqqiyotiga ham muayyan darajada sababchi bo'ldi.

Nizomiy Ganjaviydan keyin "Layli va Majnun" sujeti asosida ko'pgina adiblar doston yozishda o'z iste'dodlarini sinab ko'rdilar. Lekin bu sujetni qayta ishlab, gumanistik g'oyalar bilan yanada boyitib, undagi obrazlarni o'zi yashagan davr bilan bog'lab, ijtimoiy g'oyalarni rivojlantirib, mukammal bir doston yaratgan adib Alisher Navoiydir.

U Nizomiy asarida ancha kam e'tibor qaratilgan Layli obrazining Sharq ayollariga xos iffat, sadoqat, ma'rifat, ma'naviyat mujassamlashgan to'laqonli inson qiyofasini yaratdi. Qays obraziga yangidan jilo berdi. Ibn Salom obrazida feodal turmushga xos bo'lgan illatlarning yanada ko'proq ifodalashga harakat qildi va o'z zamonasidagi ayrim amaldorlar qiyofasini unda mujassamlashtirishga erishdi.

Navoiydan keyin bu an'anaviy sujet asosida Fuzuliy va Andaliblar doston yaratishga muvaffaq bo'ldilar.

Fuzuliy asarini o'rta turk tilida, sodda uslubda yaratib, bu dostonni turkiy xalqlar orasida yanada kengroq ommalashishiga o'z hissasini qo'shdi. Asar tarkibiga g'azal, ruboiy, murabbah kabi janrlarni olib kirdi. Dostonda ishtirok etuvchi obrazlarni bir-biridan jiddiy farq qiluvchi salbiy va ijobiy obrazlarga ajratmay har bir ishtirokchining o'ziga xos insoniy xususiyatlarini yoritishga erishdi.

Andalib ilk marta asarini nasr va nazm aralash bo'lgan xalq dostonlariga xos uslubda yozdi. Asariga g'azal, muxammas, murabbah, mustazod, musaddas kabi janrlarni olib kirdi. "Layli va Majnun"ning xalq dostonlari uslubida qayta yaratilishi uning qissaxonlar repertuaridan keng o'rin olishi, ko'plab nusxalarda qayta ko'chirilishi va omma orasiga yanada chuqurroq kirib borishiga olib keldi.

"Layli va Majnun"ning qissa doston tarzida kitobdan kitobga ko'chirilishi uning rang-barang variantlarini yuzaga kelishiga olib kelgan. Shu sababli Andalibga nisbat berilgan variantlarda voqealar, obrazlarda

sezilarli darajada farqlar ko'zga tashlanadi. Hatto "O'zbek adabiyoti tarixi" III tomida tahlil qilingan Andalib dostoni 1991-yilda Ashxobodda chop etilgan dostonidan kattagina farqlarga ega.

Xullas, Nizomiy bu sujetni yozma adabiyotga olib kirib, yangi an'anani boshladi. Navoiy bu asarni ijtimoiy ruhini yuksaltirdi. Fuzuliy o'rta turk tilida yozib, uni yanada ommaviyligini oshirdi, Masnaviy orqali ta'riflanadigan voqealar orasiga boshqa janrlarni kiritdi. Andalib esa dostonni nasr va nazm asosida yangicha uslubda ijod qildi, uning tarkibiga Fuzuliy kiritgan janrlarni yanada boyitdi.

II BOB. DOSTONNING XALQ VARIANTLARI

2.1. Xorazmdan yangi topilgan qo'lyozma variant

Epik asarlarning xalq orasida ommalashishi shu paytgacha turli usullar orqali amalga oshirib kelingan. Ularning asosiy ijrochilari og'zaki doston kuylovchi baxshilar bo'lsa-da, so'nggi davrlarda epik asarlarni yozuvga ko'chirish va ularni qiroat bilan maxsus auditoriyalarda ijro etish usuli ham faoliyat ko'rsata boshlagan.

Ushbu jarayonda qissaxonlarning muayyan xizmatlari bor. Ularning repertuarlarida "Hikoyati Go'ro'g'li sulton", "Yusufbek va Ahmadbek", "Sanobarxon", "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" kabi ko'p-lab dostonlar mavjud bo'lgan.¹

Yozuvga ko'chirilgan bunday dostonlarni V.M.Jirmunskiy va H.T. Zarifovlar "xalq romani deb atasalar";² T.Mirzayev va B.Sarimsoqovlar "qissa-doston", "kitobiy doston";³ Xolid Rasul esa "xalq kitoblari" tarzida nomlaydilar.⁴

Ba'zi tadqiqotchilar bu toifa asarlarni ayrim joylarda xalq kitoblari tarzida qayd qilsalarda, mumtoz adabiyot bilan xalq epik ijodiyotini o'zaro biriktiruvchi ko'prik vazifasini bajaruvchi oraliq shakl deb belgilaydilar.⁵ Bu fikrni sal oldinroq V.Abdullayev o'z tadqiqotlarida bayon qilgan edi.⁶

Olimlarning yuqoridagi fikrlari nuqtayi nazaridan qaralsa, bu toifa dostonlarning nomlanishi masalasining haligacha barqarorlashmagani ma'lum bo'ladi. Bu masala hali ancha tadqiqotlarga manba bo'la oladi.

Biz tahlil qilmoqchi bo'lganimiz "Layli va Majnun" dostoni ham mazkur toifa dostonlar doirasiga kiradi.

"Layli va Majnun" dostonining qisaxonlar va xalfalar ijrosida o'qib kelingan mukammal variantlaridan biri 2008-yilda chop etilgan.⁷ Bu qo'lyozma nusxa Xonqa tumanida yashagan Shukur xalfadan yozib olingan bo'lib, tarkibida 2 bayt, 3 muxammas, 2 masnaviy, 5 g'azal bor.

¹ Мирзаев Т. Эпос и сказитель. Т., "Фан", 2008, с. 31.

² Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. М., ГИХЛ, 1947, с. 292; 350.

³ Мирзаев Т., Саримсоков Б. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. Узбек фольклорининг эпик жанрлари. Т., "Фан", 1979, 14-бет.

⁴ Расулов Х. Узбек эпик шеърини таҳлил қилиш. Т., "Фан", 1973, 10-бет.

⁵ Бобоев М. Халқ китобларидаги бир бошлама ҳақида. "Узбек тили ва адабиёти", 2003, 1, 44–46-бетлар; Жуманиязов Р. Донг қозонган дoston. Т., "Мерос" 1963, 7-бет.

⁶ Абдуллаев В. Узбек адабиёти тарихи. Т., "Ўқитувчи", 1967, 34-бет.

⁷ Ошиқнома. 3-китоб, Урганч, "Хоразм", 2008, 186–230-бетлар.

Qolgan she'riy parchalar murabba' shaklida berilib, jami 880 misrani tashkil etadi. "Xorazmda tarqalgan qo'lyozma dostonlar odatda turkmanlar orasida tarqalgan qo'lyozma nusxalarga juda mos keladi. Biroq "Layli va Majnun"ning ushbu nusxasi alohida originallikka ega bo'lib, boshqa turkiy nusxalardan, jumladan, Andalib dostoni sujetidan ham jiddiy farq qiladi. Bu nusxa noma'lum xorazmlik ijodkor qalamiga tegishli bo'lsa kerak".¹

Dostonning debocha qismi, tarkibida g'azal, muxammas, bayt kabi janrlardan foydalanilishi, ayrim iboralar va birikmalar uning Fuzuliy varianti bilan ancha o'xshash ekanligini ko'rsatadi.

Ozərbayjon olimlarining ta'kidlashlaricha, Ozərbayjon bilan Xorazm o'rtasidagi madaniy-adabiy aloqalar zardushtiylik davridan beri mavjud bo'lib, ushbu an'ana XI-XII asrlarga kelib o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Uning rivojlanishida Hoqoniy Shirvoniy bilan Rashididdin Vatvot o'rtasidagi o'zaro do'stlik, hamkorlik aloqalari alohida o'rin egallaydi.²

Bu aloqalar keyin ham davom etdi. Nizomiy va Navoiy orasidagi adabiy ta'sir masalalari buning yana bir dalilidir.³ Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostoni qo'lyozma nusxalar orqali Xorazmga kirib kelganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Bu asarning o'rta turk tilida yaratilganligi shu bilan birga Xorazm o'g'uz lahjasiga yaqinligi dostonning bu vo-haga kelib tez ommalashishi uchun muhim omil sifatida xizmat qilgan.

Bu dostonda ham voqea o'rni o'zgarmagan. Unda hikoya qilinishicha, "Bag'dod bilan Basra o'rtasida bitta arab jamoasi bo'lib, uning hokimi farzandsizlikdan alam chekar edi. Kutilmaganda unga tangri tao-lo bitta qiz farzand ato qiladi. Bu qiz nihoyatda go'zal edi.

Shu jamoada yana bir befarzand kishi bo'lib, u hamisha yaratgandan farzand tilar edi. Unga tushida azizlar: sen rozi bo'lsang, xudoy tao-lo senga bir o'g'il beradi, nazari baland pokiza yurakli bo'ladi, deyishadi va ko'zdan g'oyib bo'lishadi. Sal o'tmay uning oilasida farzand tug'ildi.

Dostonning shu joyida farzandning ta'rifi masnaviy orqali ifodalana-di:

¹ Рузмибоев С. Ватанпарварлик, соф севаги, юксак иймон ва эътиқодий улуғловчи асарлар. Ошиқнома. 3-китоб, 5-бет.

² Кендли Г. Хагани Ширвани ва Хоразмшахлар оғамы. Страницы Азербайджанско-узбекских литературных взаимосвязей. Баку, "Эль", 1985, 57-бет.

³ Нарзуллаева С. "Лейли и Меджнун" Низами и "Лейли и Меджнун" Навои (некоторые сопоставительные наблюдения). Уша китоб, 146-154-бетлар).

Xurshid kabi qobil-u komil,

Iso kabi tiflikda shomil.

Shod o'ldi o'g'ul yuzidin ota-ona,

Shukronag'a berdi chu pisari farzona. (186-bet)

Shu narsa e'tiborni tortadiki, ushbu ta'rif Fuzuliy dostonidagi misralarga juda hamohang keladi:

Chun vahda erishdi, tug'di bir oy,

Xurshid ruhila olamoroy.

Shod o'ldilar andan ota-ona,

Shukrona verildi cho'x hazona.

Xurshid kibi kamola qobil,

Iso kibi tiflikda komil. (19-bet)

Tug'ilgan farzandga Qays deb ism qo'yishadi. Bola tug'ilganidan boshlab tinmasdan yig'lashga tushadi. Bir kuni ularning uyiga bolani muborakbod qilish uchun ayollar mehmonga kelishadi. Ularning orasida qizini ko'tarib Laylining onasi ham kelgan edi. Shu paytda Qaysning ko'zi Layliga tushib yig'idan to'xtaydi. Hamma bunga hayron qolishadi. Ma'raka tugagach, barcha ayollar keta boshlashadi. Barcha xonadan chiqqach, Qays yana yig'lab boshlaydi. Buni sababini bilish maqsadida ayollarni bir-birdan xonaga qaytadan kirita boshlaydilar. Nihoyat Laylining onasi qizini olib kirgach, Qays yig'idan to'xtaydi. Bu voqeadan keyin ota-onalar kelishgan holda ularni birgalikda tarbiyalab, 7 yoshga kirgach, maktabga berishadi. Ularning maktabdagi holati dostonida shunday beriladi:

Bir saf qiz o'lturdi, bir safda o'g'lon,

Jam o'ldi behishtda hur ila g'ilmon.

O'g'lonlar, qizlar o'ldilar yor-yor,

Ishqg'a bo'lunur rivoji bozor.

Maktabda aning birila bo'ldi hamdam,

Bir necha malak misol qizlar ham. (188-bet)

Dostondagi bu ta'rif ham Fuzuliy dostonidagi tasvirga monand berilgan:

Maktabda aningla o'ldi hamdam,

Bir necha malak misol qiz ham.

Bir saf qiz o'tirdi, bir saf o'g'lon,

Jam o'ldi behishtda hur-u g'ulmon.

O'g'lonlarga qizlar o'lsalar yor,

Ishqa bo'linur rivoji bozor. (23-bet)

Shu tariqa ular maktabda birga o'qishadi, qalblaridagi ishq kundandan alanga oladi. Ikki yosh bilmaganlari holda bir-birlarining bo'yinlariga qo'l solishib yuradilar. Bu voqealar Laylining ota-onasiga borib yetadi va uni maktabga yuborishmaydi.

Dostonda aytilishicha, ularga dars beruvchi muallim Laylining qarindoshi bo'lib ismi Zayd edi. U ham Zaynab ismli qizga oshiq edi. Zayd bu ahvolni ko'rib, Majnun bilan Layli orasida xabar yetkazib turadi. Zayd ularning holiga achinadi:

*Shom ketarding Layli bila,
Quchoqlashib kula-kula,
Emdi ketarsan kim bila,
Kelmas bo'ldi, Layli deyub.* (192-bet)

Qays bu hijronga chiday olmay subh-u shom yig'lar edi. Shunda do'stlari unga: "Ey, Majnun, nega muncha yig'larsan?"— dedilar. Shu bilan uning laqabi Majnun bo'lib qoladi.

Bahor kelgach, bu ikkala oshiq-ma'shuq tasodifan gul saylida duch kelishib, hushidan ketib qolishadi.

Shundan keyin Majnunning otasi Laylining uyiga sovchilikka boradi. Uni yaxshi kutib olishadi, rozilik ham berishadi. Lekin Qaysning devonalikni bas qilib, yigitlar qatorida yurishini iltimos qilishadi. Biroq Majnun bu shartni bajara olmaydi. Otasi uni turli tabiblarga ko'rsatadi, hajga olib boradi, foydasi bo'lmaydi. Majnun tog'-u sahrolarda parranda va hayvonlar orasida yashab yuradi.

Dostonning ushbu voqealari boshqa dostonlardagi lavhalarga mos keladi. Dostonda Laylining qizlar bilan ikkinchi marta sahro sayliga chiqishi ham ta'sirchan ifoda etilgan. U gullar terib cheksiz zavq-shavqqa to'ladi, yakka o'zi o'tirib g'azal o'qiydi:

*Tog'ga chiqdim gulzor etib,
Doim yig'larman dod etib,
Kecha-kunduz faryod etib,
Gul erdim, oxir xor o'ldim.* (204-bet)

Laylining bu sayri unga yangi bir g'am-anduhlarni yetaklab keldi. Uni Ibn Salom degan bekszoda ko'rib oshiq bo'ladi va unga sovchi yuboradi. Laylining otasi bunga rozi bo'lib, to'yni boshlab yuborishadi. Laylining qarshiligiga qaramay uni nikohlaydilar. Nihoyat, to'y kechasi yetib kelib, kelin-kuyov yolg'iz qoladi. Ibn Salom unga qo'l uzatganda Laylining og'zidan ko'pik chiqib alahlay boshlaydi. Ibn Salom qo'rqib tashqariga chiqib ketadi.

Laylining to'yi haqida Zayd Majnunga xabar beradi. Majnun **maktub** orqali javob beradi. Zayd maktubni Layliga bir amallab yetkazadi. Majnun maktubida Laylini bevafoqlikda ayblaydi:

*Umidim shuldurmu, sevdigim sandan,
Sevarman man sani jon bila tandan,
Judo qilmadungmu tiyra ohimdin,
Bizning bilan qani, ahd-u paymonlar. (208-bet)*

Ibn Salomning otasi Laylini aqldan ozgan degan fikrda azoyimxonlarga o'qitadi. Zayd men azoyimxonman, deb o'zini tanishtiradi va shu bahonada Layli huzuriga kirib, unga Majnun haqida xabar yetkazib turadi. Layli o'z maktubida ichki kechinmalarini, yoriga bo'lgan sevgisadoqatini bayon qiladi:

*Majnun mushtoqiman yoronlar, yondim,
Ishqning sharobidin ichdimda qondim,
Elim, kunim, otam-onamdin tondim,
Maning holim san bilmasang kim bihur? (210-bet)*

Zayd bu ikki yoshni uchrashtirish rejalarini tuzib, shunga maslahatlashadilarki, Majnun ko'r qiyofasida tilanchilik qilib, Laylining uyi oldiga borishni ma'qul topishadi. Majnun tilanchi qiyofasida eshik oldiga borib g'azal o'qiydi:

*– Emdi na so'z deyin, sango Laylijon?
Qilmishima pushmon etdimda keldim.
Qurbon bo'lsam saning qaddi bo'yinga,
Hayron bo'lib g'amga botdimda keldim.
– Kezgan joying sahrumudur, tog'mudir,
Qora bag'rim yor hajrinda dog'mudir,
Sog'mudir ko'zlaring, nechuk bog'idur?
Xush kelding Majnunim, sabo kelibsan. (213-bet)*

Ikki sevishtgan qalblar savol-javob aytishib turgan paytda Laylining otasi yetib keladi. U Majnunga qilich uradi, lekin qilich Majnunga kor etmaydi. Otasi Laylini haqoratlab tashlaydi. Majnunni Zayd bir amallab chiqarib yuboradi.

Shu orada Majnun otasining ahvoli og'irlashib, o'lim to'shagiga yotadi. Bu haqda u o'g'liga maktub yo'llaydi. Maktubni olgach, Majnun kelib ota-onasidan uzr so'raydi. Shu orada otasi vafot etadi. U otasini dafn qilib, marosimlarni o'tkazgach, yana biyobonga chiqib ketadi.

Laylining otasi oxirida bu malomatlardan butunlay qutilish uchun o'z elidan ko'chib ketadi. Yo'lda ketayotib, bir biyobonga yetganda, tu-

yalarga dam berishadi. Bitta tuya o'tlab ancha uzoqqa ketib qoladi. Uning ustida Layli bor edi. Bir payt uning ko'zi nogohonda qushlar orasida yurgan devonaga tushib kimligini so'raydi. U Majnun bo'lib chiqadi. Bir-birini tanib ikkalasi ham behush yiqiladilar. Buni sezib qolib, Laylini darhol olib ketishadi. Shu uchrashuvdan so'ng Layli qattiq betob bo'lib qoladi.

Onasiga: men endi oxirgi nafasimni olayotirman, oxirgi iltimosim shuki, Majnun bilan vidolashishga ijozat ber, deydi. Zayddan iltimos qilib kechasi Majnunni keltirishadi. Layli uning qo'lidan bir piyola suv ichib vidolashadi.

Zayd bilan Majnun biyobonga chiqib ketgach, saldan keyin Laylining joni uziladi. Zayd bu haqda Majnunga xabar yetkazadi. U kelib, Laylining qabrini izlay boshlaydi. "Layli, Layli", deb chaqirganda nogahonda bir mozordan, Majnun, degan ovoz chiqadi. Majnun o'sha mozor-ni quchoqlab yig'laydi va o'ziga xudodan o'lim tilaydi. Uning tilagi ijobat bo'ladi: "O'lo taoloning amri birla Azroyil Alayhissalom hozir bo'lib, Majnunning jonini qabz qildi". Shu paytda Zayd yetib kelib, bularga qur'on tilovat qiladi, ularning qabri ustida ibodatxona qurib, bir umr mujovir bo'lib qoladi.

Dostonni ijod qilgan noma'lum muallif asardagi ayrim lavhalarga qaraganda "Layli va Majnun"ning Navoiy, Fuzuliy va Andalib variantlaridan boxabar bo'lgan.

Asarning Fuzuliy ijodi bilan bog'liq ayrim jihatlarini yuqorida qayd qilib o'tdik. Doston ijodkorining asar nihoyasida "Xamsa"dan bir bayt" rukni ostida Navoiydan bir bayt olib dostonni yakunlashi uning ulug' shoir ijodidan ham bahramand ekanligini ko'rsatadi:

Bir nahshg'a soldilar ikovni,

Jonsiz kelin-u o'lik kuyovni.

Vallohu ahlam bissavob. (230-bet)

Xorazm variantidagi nasr namunalarining Andalib dostonidagi nasriy uslubga juda yaqinligi noma'lum muallifning mazkur asar bilan ham tanish ekanligidan darak beradi.

Xorazm variantida har bir obrazning kishi yodida qoladigan individul qiyofada o'zini namoyon qiladi. Eng asosiy e'tibor Layli va Majnun obrazlarining ilohiy ishq timsollari sifatida yoritib berilishidir.

Layli butun qalbi bilan Majnunga berilgan ilojsiz ishq fidoyisidir. U maktabdan olib qolinib uyida azob chekar ekan, noiloj fig'on chekadi:

Layli aytur, so'zlarini pandona,

*Sargashtalik soldi falak chandona,
Mango o'lmish bugun uy bir zindona,
Bu falakda yo'qdur zavq-u safolar. (189-bet)*

Layli o'z davrining farzandi. U taqdiri uchun isyon ko'tarishdan o'jiz, shu sababli faqat falakdan shikoyat qiladi. U Ibn Salomga unashilib, to'y taraddudi ko'rilar ekan, taqdiridan norozi bo'lib, Majnunni eslaydi:

*Layli der, uhradim bugun ag'yora,
Sig'indim yaratg'on ulug' jabbora,
Mani haq yozmishdur Majnuni zora,
Soda falak na deb gumon aylading. (208-bet)*

Layli butun qalbi bilan Majnunga berilgan. Undan hech bir narsani ayamaydi, jonini berishga ham tayyor. Bir kuni u sahro sayriga chiqib, masofada borayotib tasodifan Majnun qarorgohiga duch keladi. Majnunni taniydi, lekin Majnun uni tanimaydi. Shunda Layli Majnun meni ataylab tanimaganga olayapti, bu uning nozi bo'lsa kerak, degan fikrda unga qarab she'r o'qiydi. Asar muallifi bu she'rni g'azal shaklida beradi:

*Uyqu ermasdur magar, shirin zabonim nozidur,
Ko'zlari jon olg'uvchi, qoshi kamonim nozidur.
Chun shahid etding mani, nozik mijozim nozidur.*

Laylining ushbu ta'sirchan ash'orini tinglagan Majnun uni tanib, goh yig'lashib, goh kulishib o'tiradilar.

O'sha yerda boshqa dostonlarda uchramaydigan bitta lavha mavjud. Layli Majnunga o'z tanini bag'ishlamoqchi bo'ladi. Ammo Majnun unga: "Man sani o'z murodim uchun bebro'y qilmasman", deydi. Bu lavhada ijodkor Layliga nisbatan salbiy munosabati yo'q. Uning ushbu taklifi nomusini boshqa bir kimsaga nasib qilishidan hazar etish. o'z iflatini yakka-yu yagona Majnunga baxsh qilish orzusida ekanligini ko'rsatishdir. Majnun esa bu yerda yanada olijanoblik ko'rsatadi. Ushbu lavha ulardagi o'zaro ilohiy sevgi, fidoyilikning yuksakligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Layli hamisha iztirob changalida yashaydi. Ko'plab tush ko'radi, tushida Majnun o'lgan bo'ladi, cho'chib turadi va yig'lashga tushadi. Majnun ham Layli bilan bog'liq qo'rqinchli tushlarni ko'ra boshlaydi.

Dostonning kulminatsion nuqtaga yaqinlashish arafasida asosiy obrazlarga aloqador tush motivining berilishi tasodifiy emas. Ayrim tadqiqotlarda tush – inson taqdiri va kelajagi to'g'risida sirli xabar va isho-

ralar ekanligi ta'kidlanadi.¹

Dostonga har ikkala qahramonning ruhiy holatini ochib berish, ular oldidagi fojia taqdirning sharpasi yaqinlashayotganidan o'quvchilarni ogohlantirish uchun tush motivi ataylab olib kiritilgan.

Haqiqatan ham, ushbu tush motividan keyin Laylining ahvoli tobora og'irlashib boradi. Ikkinchi marta tush ko'rib bezovtalangandan keyin onasiga iltijo qilib, Zayd orqali Majnunni huzuriga chaqirib vidolashadi. Majnunga: "Ey, bori mehribonim, o'z qo'ling birla bir kosa suv bergil, man ul suvni ichayin, deb iltimos qiladi. Suvni ichgandan so'ng Majnunga qarab, agar o'lsam, mandin rozi bo'lg'il. Emdi diydor ko'rmak qiyomatda bo'lur" (225-bet), deb yorini uzatib yuboradi. Sal o'tmay Layli olamdan o'tadi.

Dostonning ushbu sahifalari juda qayg'uli tasvirga ega bo'lib, har bir eshituvchini chuqur hayojon girdobiga tortmasdan qolmaydi. Bu esa asar muallifining tajribali va iste'dodli ijodkor ekanidan darak beradi.

Laylining jon taslim qilayotib uch marta ollohni, uch marta Majnunni tilga olishi tasviri ham inson qalbini larzaga solmasdan qo'ymaydi.

Doston nihoyasi ushbu voqealar tasvirida tobora taranglashib, yuqori nuqtaga yaqinlashib boradi. Dostonda Majnunning Layli qabri ustiga kelishi, uning onasi bilan uchrashib muloqotga kirishishi epizodi ham nihoyatda hayojonli tasvirga ega.

Layli va Majnun obrazlari asarda bir-birini to'ldirib boradi. Ularning o'zaro sevgi sarguzashtlari turli lavhalarda fidoyilik timsoli sifatida gavdalanadi. Majnun obrazi dostonda ilohiy muhabbat sohibi, vafodor oshiq, yuksak irodali shaxs sifatida gavdalanadi.

Dostonda ta'kidlanishicha, Tangri taolo ularni xalq etganda (yaratganda) Layli bilan Majnun bir-birini ko'rib, oshiq bo'lgan ekanlar.

Majnunning tug'ilishi tush motivi bilan bog'langan. Uning otasining tushiga Azizlar kirib, Qaysning tug'ilganidan keyingi taqdirini bashorat qiladi: nazari baland, pokiza yurakli bo'lur, deb ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Azizlar bilan aloqador motivlar Xorazmda yaratilgan dostonlarda tez-tez uchrab turadi.

"Edigo" dostonidagi epik qahramonning otasi va homiysi Bobo

¹ Эшонкулов. Эпик тафаккур тадрижи. Т., "Фан", 2006, 83-бет.

Tukli aziz va Sochli azizlar bunga dalil bo'la oladi.¹

G.P.Snesarev bu azizlarni Xorazmda musulmonlikka bo'lgan davrda paydo bo'lgan mifik jonzot, muqaddas homiy, baliqchilar piri sifatida e'zozlanadigan, hamisha suv va suv bo'ylarida hayot kechiradigan Sochli ota obrazi bilan bog'laydi.²

Bu obrazning "Layli va Majnun" dostonida tilga olinishi ana shu qadimiy homiyilar bilan aloqadordir. Bu obrazlar hamisha xudodan tilab olingan farzandlarga homiylik qilishadi va, o'z navbatida, bu toifaga kiruvchi farzandlar karomatli shaxs bo'lib yetishadi. Majnunning hech qanday sharoitda ham o'z e'tiqodidan qaytmasligi, bировga ozor yetkazmasligi, yuksak irodaga egaligi kabi xislatlari buni dalillay oladi.

Doston ijodkori bu lavhani kiritish orqali asarni Xorazm muhiti bilan bog'lagan. Boshqa dostonlarda bu motiv ko'rinmaydi.

Majnunning karomatli shaxs ekanligi uning tug'ilganidan boshlab o'zini namoyon qila boshlaydi. Dostonning debochasida keltirilgan lavhada uning tinmasdan yig'lashi, Layli bilan onasi kirib kelib, ularning nazari bir-biriga tushgach, yig'lashdan to'xtashi bunga misol bo'la oladi.

Dostonning yana bir joyida Laylining otasi Majnunni o'ldirish uchun bo'yniga qilich soladi. Lekin o'zining qo'li shol bo'lib, Majnunga bu tig' kor qilmaydi. Asar nihoyasida Majnun o'lgach, Layli qabrining o'z-o'zidan ochilishi va unga Majnunning kirib yotishi ushbu karomatlarni yakunlaydi.

Majnun obrazida mazkur ilohiy xislatlarning barchasi eposdagi mo'jizaviy tug'ilish motivi bilan aloqadordir. Ijodkor bu asarida barcha obrazlarni xalq ijodiga xos bo'lgan qiyofa asosida qayta ishlagan. Mifologik tasavvurlar bilan aloqador lavhalardan o'rinli foydalangan.

Dostonda Majnunning ichki kechinmalarini, qalbidagi ruhiy tug'yonlarni ijodkor goh g'azal, goh muxammaslar orqali ifodalagan. Bu she'riy parchalarda uning Layliga bo'lgan cheksiz muhabbati namoyon bo'lib turadi.

*Men bugun Layli deyub jism ichra jon istaram,
Vaslida qonlar yutib dardima darmon istaram,
Sayr etarga yor ila bir bog'i bo'ston istaram,
Ishqida bo'ldim bugun bulbuli maston istaram,
Go'hari, la'li, zumrad topg'oli kon istaram.*

¹ Ошиқнома. I китоб, Урганч, "Хоразм", 2006, 162-бет.

² Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. М., "Наука", 1969, с. 327.

*Sarvi sunbul bo'lmasa, gul birla a'marni netay,
Istagim Layli erur, qaddi ra'noni netay,
Oshiqi zorim haqiqat mol-u dunyoni netay,
Andin o'zga sunbul-u rayhon-u zeboni netay,
Gar muyassar bo'lsa, yorim birla davron istaram.*

Mazkur variantda sevdishganlarning orzu istaklari, qalb iztiroblari muxammas janri orqali bayon etilgan. Adibning bundan asosiy maqsadi dil izhorini bayon etayotgan lirik qahramonning mungli so'zlarini ta'sirchan ifodalashdir. Layli Majnun qo'lidan bir piyola suv ichib, vidolashmoqni istar ekan, o'z qalbidagi tug'yonni she'r orqali izhor etadi:

*Shukur alhamdullo tedim kulli risola,
La'ling suvi shifodur bizni shikasta hola,
Yor bog'ida ochilmish yuz rang-u ming-ming lola,
Ul bo'stonni ichinda o'xshar ko'zi zilola,
O'z qo'ling birlan bergil bu dam mango piyola.*

*Zavqing jamoling birla sarsabz o'lur husnlar,
Bulbul asiri shaydo ham zog'ila zog'onlar,
Tushguncha yuz yuzimg'a bag'rim chokdur yoronlar,
Bo'ldim gado ko'yinda shaydoyi siym tanlar,
O'z qo'ling birlan bergil bu dam mango piyola.*

Doston tarkibidagi she'riy parchalar musiqiy ohangda, samimiy va yengil o'qiladigan misralardan tuzilgan. Ulardagi ushbu xususiyatlar ijodkorning iste'dodli, shoirlilik malakasini egallagan kishi ekanligidan dalolat beradi.

Xorazm variantida asosiy e'tibor Layli va Majnunlar obrazining tasviriga qaratilgan. Ularning tug'ilishidan boshlab, fojia o'limigacha bo'lgan barcha sarguzashtlar hayajonli lavhalarda o'z aksini topgan.

Ushbu dostonning o'zidan oldingi yaratilgan asarlardan asosiy farq qiladigan tomoni unda Zayd obrazining to'la qonli yoritilganligidir. Barcha obrazlar nuqtayi nazaridan olib qaraganda, Zayd Layli va Majnunlardan keyingi asosiy figura bo'lib ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, bu obraz yozma adabiyotga aloqador variantlarda, asosan, maktublarni el-tuvchi epizodik xarakterdagi shaxs sifatida tasvirlangan. Ushbu variantda u, eng avvalo, Layli va Majnunlarning muallimi – xalifasi, o'z navbatida, Laylining qarindoshi hisoblanadi. Asarda ta'kidlanishicha, u ham ishq savdosi bilan aloqador. Zaynab ismli qizga oshiqdir. Biroq dostonda uning ishqiy sarguzashtlari tasviriga o'rin berilma-

gan. Chunki asosiy mavzu Layli va Majnunlarning ilohiy ishqini yoritishga bag'ishlanganligi uchun Zayd bilan aloqador boshqa masalalarga unchalik e'tibor qaratilmagan. Shu sababli Zayd Layli bilan Majnun uchun hayotdagi homiy qiyofasida gavdalanadi. U asarning boshidan oxirigacha ushbu ikki oshiq-ma'shuq bilan birgalikda faoliyat ko'rsatadi. Otasi Laylini maktabdan olib qolgach, Majnunning devonaligi boshlanadi, u saboq tinglamay, hech kim bilan so'zlashmay talmovsirab qoladi. Shunda Zayd unga saboq o'rgatgan kishi bo'lib, Layli haqida dastlabki xabarni beradi:

*Raqiblar solmishdur elga bir xabar,
Ellarning ichida ko'bdur sho'rushar,
Qays birla Laylini oshiq dermishlar,
Kelmas bo'ldi Layli, buldur ahvoli.*

*Otasi-onasi eshitmish so'zi,
Maktabga yibarmas bo'ldilar qizi,
Hijolatdan so'lmish Laylini yuzi,
Kelmas bo'ldi Layli, buldur ahvoli. (191-bet)*

Majnun cho'l-u sahro og'ushida hayot kechirib yurganligi sababli o'z elida nima kechayotganidan bexabar edi. Shu sababdan Zayd hamisha unga Laylining, Layliga uning xabarini yetkazib turadi.

Laylini Ibn Salomga uzatilgani xabarini ham Majnunga Zayd yetkazadi. To'ydan keyin Ibn Salom uyida yashayotgan Laylining oldiga kirish mumkin bo'lmay qoladi. Zayd buning ham yo'lini topadi. Layli betob bo'lgach, eldan tabib izlashadi. Shunda Zayd davolovchi tabib qiyofasida borib, Laylidan hol-ahvol so'raydi. Uning maktubini Majnunga eltadi. Javob maktubini esa Layliga keltirib, uni tumor shaklida taqdim qiladi. Bu uning nihoyatda aqlli va ziyrak kishi ekanligini ko'rsatadi.

Zayd obrazi ilgari ta'kidlaganimiz kabi homiy timsoliga o'xshab ketadi. Laylining Majnun bilan pinhona uchrashuvi ustiga kelib qolgan otasi Majnunga qilich solgan paytda kutilmaganda Zayd paydo bo'ladi va Majnunni tezda bu yerdan olib chiqib ketadi.

Layli tush ko'rib, tushida Majnunning o'lganidan beorom bo'lib, ta'bir qildirishga kishi topmay turganda oldidan Zayd chiqib qoladi. U Majnunning oldiga borib, bir necha kun uning bilan birga bo'lib qaytgan edi. Laylini tang ahvolda ko'rib Zayd undan bu nola-faryodga nima sabab bo'lganini so'raydi. Ushbu epizodda Layli bilan Zayd she'r orqali savol-javob qilishadi.

Layli:

*Xalifam, yuragim qaynadi, toshdi,
Yig'log'an jonima toza o't tushdi.
Bilmaman ko'rganim bu nechuk tushdi,
Dunyoni bir oxir zamon ko'rmisham.*

Zayd:

*Bu ko'rgan tushlaring erur shaytoni,
Ko'nglinga kelturma bu badgumoni,
Yolg'onchini derlar yo'qdur poyoni,
Yig'lama, Laylijon, Majnun omondur*

Zayd Laylini ovutishga, uning xayolidagi noxush fikrlarni tarqatishga harakat qiladi. O'zining Majnun huzuridan hozirgina kelayotganini aytib, uni Majnunning hayot ekanligiga ishon tiradi. Shundan so'ng Layli o'ziga kelib, Zaydga minnatdorchilik bildiradi:

Layli:

*Bandaman Majnunni ko'rgan ko'zinga,
Tavof etay saning oyoq izinga,
Layli der, inondim emdi so'zinga,
Bilmaman ahvolin yomon ko'rmisham.*

Zayd:

*Ey Layli, yig'lama, yondi bu jonim,
Sizlarning fikringiz bu aziz boshim,
Zayd aydi, Majnunjon aytur salomin,
Yig'lama, Laylijon, Majnun omondur. (222-bet)*

Bu ikki oshiqning butun dard-u armoni Zayd bilan chambarchas bog'liqdir.

Layli o'limini sezib, onasidan Majnunni ko'rib vidolashishga rozilik oladi. Laylining onasi bu vazifani bajarish uchun Zaydga murojaat qiladi. Zayd bu vazifani eldan pinhona amalga oshirish uchun Majnunni kechasiga borib olib keladi. Ikki sevguvchi qalb vidolashgandan keyin Zayd yana Majnun bilan sahro tomonga yurish qilishadi.

Zaydning beminnat bajaradigan barcha yumushlariga eshituvchilar mehr bilan qarashadi, bu insonning bag'rikengligi, fidoyiligiga tahsin aytishadi.

Layli Zaydga xuddi tug'ishgan akasidek qaraydi. Hatto o'lsam, janozamni Zayd xalfam imom bo'lib o'qusin, deb vasiyat qiladi. Layli-

ning mozori ustiga kelib, Majnun xudodan o'lim tilab, tilagi ijobat bo'lib, Layli mazoriga kirib yotgani zamon Zayd yetib keladi. Majnun, deb faryod qiladi. Biroq sado chiqmaydi. Shundan keyin yig'lab-yig'lab o'sha joyda uxlab tush ko'radi. Tushida Layli bilan Majnun qo'l ushlab shib sayr qilib yurgan bo'ladi. Zayd ulardan ahvol so'raydi. Sevishganlar xudodan rozi ekanliklarini aytishadi. Zayd bu voqeani el-u xalqqa gapirib berdi.

Shunday qilib, "Layli va Majnun" dostonining Xorazm variantida Zayd obrazi to'laqonli qahramonlar qatoridan o'rin egallagan.

Dostonda jabrdiyyda inson sifatida tasvirlanadigan obraz Majnunning otasidir. Bu obraz barcha variantlarda deyarlik bir xil qiyofaga ega. U farzandining baxti sadoqati uchun o'zining jonini ham ayamaydigan qalbi daryo inson. Xudodan tilab olgan yakka-yu yagona farzandini ko'z qorachug'idek asrashga intiladi. Majnunni hayotga qaytarish uchun tabiblariga ko'rsatadi, Ka'baga boradi. Biroq barcha chorasini behuda bo'lib chiqadi. U Majnunni izlab sahroga boradi. Uning o'g'lini izlab ketishi dostonda quyidagicha tasvirlanadi: "...yuragiga o't tushushb, bosh ochuq, oyoq yalang bo'lub, Majnunni axtarib ketdi. Bir necha tog', cho'llarni kezib, hech yerdan topmadi" (197-bet).

Otaning iztiroblari dostonda g'azal mazmuniga singdirilgan:

Yo'linga qurbon bo'lay, kelmisham marjon bolam,

Ham ota, ham ona dardiki darmon bolam.

Sandin ayrilg'on zamoni, necha yuz pora bo'lub,

Ko'zlarimdin oqadur sel so'rsang gar fig'on bolam.

Bo'lg'oli sandin judo ko'zimda yosh, bag'rimda qon,

Doimo miskin onangkim telmurar har yon bolam. (197-bet)

Dostonda aytilishicha, Majnunning otasi katta boylikka ega. U oxiri Majnundan umidini uzadi. Qaysi sog', el-xaloyiqqa jinni-devonadur, — deydi u. Ushbu iborada asar ijodkorining Majnunga nisbatan nuqtayi nazarini namoyon bo'ladi. Bu ibora orqali ijodkor Majnunni jismonan emas, balki ilohiy-ma'naviy tomondan ishqqa berilgan fidoyi demoqchi.

Majnunning otasi umri oxirlaganini sezadi va o'g'lini qosid (xabar beruvchi) orqali huzuriga chaqirish uchun maktub yozadi:

Agar kelmasang gar oromijonim,

Agar o'lsam erur bo'yuningga qonim,

Ijobat bog'in istab zor g'amgin,

Dil-u jon birla aytur zikri omin. (216-bet)

O'z navbatida, Majnun ham she'riy maktub bitadi. Bu maktubda

uning otasiga bo'lgan mehr-muhabbat o'z ifodasini topadi:

Azal kunda, ey, padari mehribon,

Latofat bobida bir mohitobon.

Salom ey, gavhari xo'boni olam. (216-bet)

Ushbu misralarda Majnun otasiga bo'lgan beqiyos hurmati-e'zoi barq urib turadi.

Andalib dostonida Majnun otasining mol-mulk taqsimlagani haqida so'z ketadi. Bu variantda otasining mol-mulki faqat Majnunga o'tadi. Biroq Majnun bu masalaga ahamiyat bermasdan yana cho'l-u biyobonga chiqib ketadi.

Majnun otasi o'limi oldidan ham o'g'lining taqdiri haqida qayg'uradi. Eng oxirgi so'zlaridan birida: "Laylini harchand ko'shish qilduk taqdiri ollohi sango muyassar bo'lmadi. Emdi aning vaslin xudoy taolodin tilagil",— deb nasihat qiladi.

Dostonda Majnun onasi epizodik tarzda ko'rinib ketsa-da, uning o'g'liga bo'lgan onalik mehri yarq etib ko'zga tashlanadi. U o'g'lining qismati masalasida hech iloj qila olmaydi, faqatgina qayg'uradigina, xolos.

Laylining onasi obraziga asarda ko'proq e'tibor qaratilgan. U voqealarning boshidan oxirigacha ishtirok qiladi. Laylining yaqin sirdoshi, yordamchisi, uning barcha vasiyatlarini bajaruvchi figura sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, dostonning oxirida onayizorning mushfiq qiyofasi yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. O'lim changalida yotgan Layli yoniga onasini taklif qiladi. Majnunni huzuriga chaqirtirib berishni iltimos qiladi. Shunda ona bechora bu ishning naqadar xavfli ekaniga qaramay qizining iltimosini bajo keltiradi, erining g'azabiga duch kelmaslik uchun uchrashuvni qulay paytda kechasi pinhona ravishda tashkil etadi.

Layli vafot qilgandan so'ng, u Majnun bilan qizining qabri ustida uchrashadi. U Laylining o'limini eshitib aftoda bo'lgan Majnuni tanimay, undan kimsan, deb so'raydi. U Majnun ekanligini bildirgandan keyin o'zining Laylining onasi ekanligini aytadi va butun dardini to'kib soladi:

Majnunimsan, eshit mening zorimni,

Layli bu jahondin ko'chdi naylayin.

Endi his etarman yo'q-u borimni,

Uyda shamchirog'im o'chdi naylayin.

Emdi ko'rmas bo'ldim Laylim bo'yini,

*Lahad ot qo'ydilar Laylim uyini,
Istab chiqdim oshiq Majnun kuyini,
Esim ketib aqlim choshdi naylayin. (227-bet)*

Ushbu misralarga razm solinsa, onayizorning qalbida kechgan dardli ohanglarni sezish qiyin emas. Unda g'am, alam, o'kinch bilan birga Majnunga o'zini yaqin tutish, uni suyanchiq sifatida ehtirom etish tuyg'ulari bo'rtib turadi. Uning "Majnunimsan" deb murojaat qilishi, ilgari eshitib kelgan "Majnun kuyi"ni sog'inganligini ochiq bayon qilishi uning qalbidagi ichki tug'yonning mavj urib ko'rinishidir. Demak, ilgari ona Majnun yozgan she'rlarning xalq orasida aytilib yurganini eshitgan. O'sha paytlari bu she'r ohanglarini tinglashga qo'rqqan bo'lsa, endilikda ularni qo'rsaganini bildirish ona qalbida bu ilohiy sevgiga nisbatan xayrixohlikning paydo bo'lganligini ifoda etadi. U o'zining ichki dardlarini bayon etar ekan, Laylining Majnunni behad sevishini alohida ta'kidlaydi:

*Laylim bir tush ko'rib seskanib turdi,
Majnunim o'ldi, deb ko'b ohlar urdi,
Majnun yoring'a salom, deb jon berdi,
Jonim ichra o'ltar soldi naylayin. (228-bet.)*

Jabrdiyda ona o'z ichki tuyg'ularini bayon qilgandan keyin Majnun bilan birga Layli qabri ustida zor-zor yig'lashadi.

Ijodkor Laylining onasi qiyofasida davr jabr-zulmlaridan qaddi bukilgan, noiloj va nochor qolgan mushfiq onani ko'rsatadi.

Ibn Salom obrazi dostonida unchalik bo'rtib turmaydi. U dostonida bekozda tarzida tilga olinadi. Ibn Salom ovda yurganida tasodifan Layliga duch kelib sevib qoladi va unga sovchi qo'yib otasidan rozilik javobini oladi. Uning boyligiga alohida urg'u beriladi. Uning vakillari Laylining uyiga "... yetmish tevag'a mo'l yuklab va yetmish otg'a dur, fa'i, javohir yuklab Laylining otasining uyig'a keldilar" (207-bet).

Nikoh kechasida Layli o'zini telbalikka solib og'zidan ko'pik sochib yiqilib qolganidan keyin u qo'rqib qochib ketadi. O'sha epizoddan so'ng Ibn Salom doston voqealariga aralashmay qolib ketadi.

Majnun bilan bog'liq holda asarda Navfal obraziga murojaat qilingan. Lekin bu obraz ham boshqa dostonlardagi kabi keng faoliyat ko'rsatmaydi. Dostonida tasvirlanishiga ko'ra, Navfal Rum shahrining sipoh solari, bahodir kishi, yonida hamisha 40 yigiti bilan yuradi.

Bir kuni u Majnunning ta'rifini eshitib qoladi va unga yordam berishni ko'ngliga tugadi. Uni izlab topadi, nima uchun bu ahvolga tush-

ding, degan savolga Majnun yerga Laylining ismini yozib ko'rsatadi.

Navfal Majnunning o'zini tutishi, qiliqlariga razm solib, bu insonning devonaligiga ishonch hosil qiladi va asta orqasiga qaytadi.

Navfal bu yigitga yordam berish mushkul ish ekanini anglab yetadi. Ilgarigi tahlil qilganimiz dostonlardagi kabi qo'shin to'plab Laylining otasi qabilasiga hujum uyushtirmaydi.

Ijodkor bu asarida Navfalning obrazini juda qisqa bayon qilish bilan cheklanadi.

Biz ilgari ta'kidlaganimiz kabi asosiy e'tiborni Layli bilan Majnun o'rtasidagi ilohiy sevgi sarguzashtlarini tasvirlashga qaratadi.

Dostonda ayrim epizodik obrazlar ko'zga tashlanadi. Bularning bittasi ilgari bayon qilganimiz Zaynab bo'lib, Zaydning sevgilisi tarzida aytib o'tiladi. Biroq keyin tilga olinmaydi. Majnun singlisi ham xuddi Zaynabday bir ko'rinib ketadi.

Ikkinchi bir epizodik obraz qosid sifatida aytib o'tiladi. Bu kimsa Majnun yashab turgan sahroga uning otasi nomidan maktub eltadi. Boshqa voqealarda ishtirok etmaydi. Bu toifa kishilar o'sha davrlarda biror joyga xabar yetkazish vazifasini bajaruvchi maxsus kasb-kor egalari sifatida faoliyat ko'rsatgan bo'lsalar kerak.

Dostonda bir marotaba Xizr obrazi ham ko'rinib ketadi. Laylining sahro sayliga chiqib, nogahonda Majnunga uchrab, behush bo'lib yiqilishi lavhasi berilgan. O'sha paytda birdan Xizr alayhissalom paydo bo'lib, uning yuziga dori darmonlar sepib, Laylini hushiga keltiradi. Dostonda ilgaridan faoliyat ko'rsatib kelayotgan an'anaviy obrazlarning deyarlik barchasi ishtirok etadi. Biroq ularning faoliyat doirasi bir muncha ixchamlashtirilgan. Voqealar silsilasida ham ancha mo'jazlik o'zini ko'rsatib turadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda "Layli va Majnun" dostonining Xorazm varianti ushbu mavzuda ilgari ijod etilgan asarlardagi an'anaviy mavzuni takrorlash bilan birga uni ancha qayta ishlash va yangilash asosida yuzaga kelgan. Bu jarayonda asarni yaratgan ijodkorning o'ziga yarasha hissasi borligini alohida qayd qilish zarur.

Mazkur doston uslub jihatidan Andalib dostoni kabi nasr va nazmda yozilgan. Til xususiyatlari ham o'zaro yaqin bo'lib, qissalar uslubiga mos keladi. Shu bilan birga, Xorazm variantining she'riy qismi to'laligi-cha yangidan ishlangan. Nasriy qism esa ixchamlashtirilgan. Asarga xalq dostonlarining ruhi chuqur singdirilgan. Ayniqsa, asarga azizlar va Xizr obrazlarining kiritilishi dostonda, bir tomondan, mifologik lavha-

larning bo'rtirilishiga olib kelgan, qolaversa, azizlarning tilga olinishi unda mahalliy koloritning mujassamlashishiga olib kelgan.

Dostonda mifologik obrazlarning ishtirok etishi, ularning faoliyat ko'rsatishlari va boshqa turli o'rinlarda fantastikaga aloqador lavhalarining berilishi asarning xalqona ohanglarini yanada bo'rtib ko'rinishiga olib kelgan. Bu holat uning professional shoir darajasida tanilmagan, lekin bilimli, iqtidorli bir shaxs tomonidan yaratilganligini ko'rsatadi.

Dostonning leksikasi eski o'zbek tili bazasida ko'zga tashlansa-da, uning tarkibida xalq shevalariga xos so'z va iboralar anchani tashkil etadi. "Qapu", "O'vbo", "topo", "al", "do'na-do'na", "kuno'rta", "dangdush" kabi so'zlar ko'plab ishlatilgan. Shuningdek, boshqa tillardan o'zlashib shevada saqlanib qolgan, og'zaki nutqda faol ishlatiladigan "badro'y", "harif", "kor" singari so'zlarga ham ko'p murojaat qilingan.

Dostonning gap qurilishida ham shevaga xos xususiyatlar ko'rinib turadi. Masalan: "O'tini toza qilib" (alamini yangilab), "Ota-onamdin tindim" (ota-onamdan ajraldim), "bo'lak-bo'lak" (ayrim-ayrim) kabi.

Dostonning tasvir uslubida xalq eposiga xos xususiyatlar ko'proq ko'zga tashlanadi. Unda "Ammo emdi bir-ikki kalima so'zni Laylidin eshiting", "Emdi bir-ikki kalima so'zni Majnunni otasidin eshiting" singari iboralar bilan birga "40 kecha-kunduz to'y-tomosha qildilar", "To'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soatda homilaning vaqti yetib, bir o'g'il bo'ldi" kabi stereotip formulalar uchrab qoladi.

Biroq shu narsani alohida ta'kidlash zarurki, doston uslubi va til xususiyatlarida qissaxonlik bilan aloqador bayon usuli baribir ustuvorlik qiladi. Uning tarkibida tez-tez qo'llaniladigan "alqissa", "alg'araz" "holo" "ammo roviy aytur", "roviylar andog' rivoyat qilurlarkim" singari an'anaviy iboralar bu fikrimizga dalil bo'la oladi. Shu bilan birga asar leksikasida arabiy, forsiy so'z va izofalar, "dorulfanodin dorulbaqog'a rixlat qilib, ko'z yumdilar", "tajallo ollohi yuzinda barq urar erdi", "alarg'a mujovir bo'lub shaharshomg'a ketdi", "subhu shom, balki almuldavom yig'lar erdi" singari tasvir usuli doston ijodkorining fors va arab tillarini mukammal egallagan yetuk ziyoli ekanligini ko'rsatadi. U asarni yozish jarayonida qadimdan davom etib kelayotgan qissaxonlik an'analari va ushbu kitoblarga xos bayon uslubini chuqur o'zlashtirib olgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, bu variantning tili Andalibning asarida qo'llanilgan arabiy, forsiy leksikadan kam emas.

Dostonni yaratgan adib Xorazm farzandi bo'lganligi sababli, shevaga xos so'zlarni bevosita ishlatish imkoniyatiga ega bo'lgan. O'zi

madrasa ta'limini olgan yetuk ziyoli bo'lganligi uchun arab, fors tillaridan o'zlashgan va o'zlashmagan leksik birliklarga ham murojaat etgan. Ayni paytda asar tilida qissaxonlikka xos bayon uslubini to'la saqlagan. Dostonning til xususiyatlari yozma adabiyotdagi leksikaga yaqin bo'lganligi, o'sha davr adabiy tili qonun-qoidalariga mos kelganligi sababli asar baxshilar repertuariga o'tib, og'zaki nutqqa xos bayonga ega bo'la olmagan. Dostonning baxshilar repertuaridan joy olmaganligining yana bir sababi ilgari ta'kidlaganimiz kabi uning motamnomma xususiyatiga ega ekanligi va undagi miskin ohangni to'y-hashamlarga mos kelmasligidir.

Dostonni yaratgan shaxsning yetuk ziyoli, talantli ijodkorligini e'tirof etish zarur. Shu bilan birga, asardagi she'riy parchalarning ayrimlarida vazniy nomutanosibliklar, saktalik, nasriy matnlarda g'alizlikka moyil ayrim qusurlar mavjudligini ham qayd etish zarur. Bizning fikrimizcha, bu kamchiliklar ijodkorga aloqador bo'lmasligi kerak. Negaki, asar yaratilgandan beri uning ko'p martalab qayta ko'chirilganligi o'z-o'zidan ma'lum. Shunday ekan, ko'chiruvchi kotiblar va xattotlarning ayrimlari yozuv malakasini a'lo darajada o'zlashtirganlari holda, she'riyat va imlo masalasida iste'dodga ega bo'lmasliklari mumkin. Dostonning mazkur nashrida matn tahrirga tortilmagan. Chunki har qanday tahrir asarning originalligiga putur yetkazishi, ilmiylik tamoyiliga zid kelishi ma'lum. Bunday kamchiliklar ilk bobimizda tahlil etilgan Zevar xalfa variantida ham ko'p uchraydi. Lekin biz asos qilib olganimiz variant undan mukammalligi jihatida alohida ajralib turadi. Asar tarkibidagi bunday qusurlar uning umumiy holatiga jiddiy ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki har qanday asarda ham bunday yetishovchiliklar bo'lishi tabiiy holdir.

Asar ijodkorining talant va qobiliyatga ega ekanligi doston tarkibidagi aruzda yozilgan she'riy parchalar orqali yaqqol ko'rinadi. Asardagi muxammas, masnaviy, bayt kabi janrlar aruz qonun-qoidalariga to'la rioya qilingan holda yaratilgan.

Mumtoz janrlarga oid she'rlar, asosan, ramal, ba'zan hazaj bahrlarida bitilgan. Buning asosiy sababi ushbu bahrlarning yengil o'qilishi va musiqaviy ohangga moyilligidir.

Dostonning nasriy qismi ancha murakkab ko'rinishga ega. Unda forsiy, arabiy leksikaga faol munosabatda bo'linganligi sezilib turadi. Shunday bo'lsa-da, matn tarkibida xalq dostonlariga xos saj elementlari, shevaga xos leksik xususiyatlar ham ancha-muncha uchrab turadi.

Biroq dostonning she'riy qismida o'zlashma qatlam nihoyatda kuchli namoyon bo'ladi.

Binobarin, "Layli va Majnun"ning Xorazm varianti nasr va nazm aralash yaratilgan boshqa qo'lyozma nusxalardan bayon uslubi, badiiyati jihatida deyarlik farq qilmaydi. Bu dostonlar orasida uning ham o'ziga xos o'rni bo'lib, dostonlarga qo'yilgan barcha talablarga javob bera oladi.

2.2. Dostonning Fozil Yo'ldosh varianti

O'zbek dostonchiligi an'analarini yangi bosqichga ko'tarib ajoyib epik asarlarni avlodlarga yetkazgan talantli baxshilardan biri Fozil Yo'ldosh o'g'lidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Alpomish" dostonining 2000 yilligiga bag'ishlangan tadbirda: "Bugun biz... Fozil Yo'ldosh va Po'lkan shoir, Berdi baxshi va Rahmatulla Yusuf o'g'li kabi dostonchilarning nomlarini ehtirom bilan tilga olamiz", – degan edi.¹

Darhaqiqat, "Alpomish" kabi monumental asarni hech kim Fozil shoir darajasida kuylay olgan emas.

Baxshining repertuarida qirqdan ortiq doston bo'lgan.²

Fozil shoir qahramonlik dostonlari bilan birga romanik xarakterdagi asarlarni ham maroq bilan kuylab yurgan. Shulardan biri "Layli va Majnun"dir.

Hodi Zarifning ta'kidlashicha, uning repertuaridagi "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi dostonlar klassik adabiyotning, xususan, xalq orasidagi navoiyxonlikning ta'sirida paydo bo'lgan.³

Biz yuqoridagi faslimizda "Layli va Majnun" dostoni motamnoma xarakterida ekanligi va unda miskin she'rlarning ko'pligi asarning baxshilar repertuariga o'tib og'zaki tarzda ommalashmaganligiga asosiy sabab bo'lgan, deb ta'kidlagan edik. Shunday ekan, bu doston Fozil shoirning og'zaki repertuariga qanday o'tgan, degan savol tug'ilishi, tabiiy.

Shuni ta'kidlash lozimki, Fozil shoir "Layli va Majnun" dostoni mazmunini Navoiy "Xamsa"sidan o'zlashtirib olgani holda butunlay qayta ishlagan. Boshqacha aytganda, "Oshiqlarni murod-maqsadiga yet-

¹ Karimov I.A. O'zod, obod vatini, erkin va farovon klet – pirovard maksadimiz. T., "O'zbekiston", 2000, 81-bet.

² Zariyov X. Fozil shoir mashhur dostonchi. Fozil shoir. T., "Fan", 1973, 14-bet.

³ Ushu joyda, 13-bet.

kazgan".¹ Baxshi voqealarni boshqacha tarzda optimistik xotimalash yo'lidan boradi.² Ushbu qayta ishlashlar asarning og'zaki variantini to'y va sayllarda kuylash imkoniyatini ro'yobga chiqargan. Bu yerda gap asar finalining optimistik yakunlanishidagina iborat emas. Chunki optimistik yakunga kelish uchun ijodkor asarning ichki kompozitsion tuzilishi, obrazlarning xatti-harakatlarini ham qayta ishlashiga to'g'ri keladi. Baxshi buning uddasidan chiqqa olgan.

Doston 1968-yilda chop etilgan.³ Uni Mansur Afzalov baxshidan yozib olgan va nashrga tayyorlagan.

Dostonning muqaddima qismi Xorazm variantidagi boshlanmadagi voqealarga o'xshab ketadi. Bu yerdagi tavsifda ham Qaysning tinmasdan yig'lashi, Layli bilan onasining ularning uyiga kelishi va uning yig'idan to'xtashi epizodi mavjud. Keyin ular maktabda birga o'qishadi.

Bir kuni ular maktab yonidagi gulzorda birga yurib gul terganda Qays Layliga o'z qalbini ochadi. Ammo Layli uning iltijosiga ijobiy javob bersa-da, Qaysga bunday gaplarni aytishga hali erta ekanini, gap-so'z, malomatga qolmaslikni uqtiradi. Keyin uning sinfdoshlari ham Qaysga bu ishing yaxshi emas, deb uni olib ketishadi. Biroq uyda ham u hech kim bilan so'zlashmaydi. Ota-onalari uning bu qiligidan ajablani-shadi. Ertasi turib qarasalar Qays o'z o'rnida yo'q. Izlab qarasalar Layli-ni hovlisiga boqib o'tiribdi. Uni uyga olib kelib, jin ta'sir qilgan degan o'y bilan tabiblarga qaratishadi, nafi bo'lmaydi. Oxiri sang'ib yur-masin, deb uyga qamab qo'yishadi. Majnun laqabini oladi. Laylining ah-voli ham ma'yus edi. U ham Qaysni ko'rishni istab azob chekadi. Shu yaqin orada bir hakim bo'lib, u Laylini o'z o'g'liga olib berishni ko'ng-liga-tugib qo'ygani edi. Bir kuni u Laylining otasiga qizi uchun sovchi-likka kelganini aytadi. Laylining otasi bu masalada xotini bilan masla-hatlashadi. Xotini qiz kasal, tuzalgandan keyin ma'lum javob beraylik degach, otasi sovchidan uzr so'rab, muayyan fursat kutib turishni iltimos qiladi.

Majnun esa butunlay so'zlamay qo'yadi. Faqat Layli ismini ayta-di. Uning otasi o'g'limizni o'sha qizga uylantirsak, yaxshi bo'lib ketar, degan umidda Laylining otasi oldiga bir kishini sovchi qilib yuboradi. Laylining otasi sovchidan bu taklifni eshitib, darg'azab bo'ladi va ten-tak, deb haqoratlab haydab soladi:

¹ Уша жойда, 14-бет.

² Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ оқоидиёти. 291-бет.

³ Лайли ва Мажнун. Т., "Фан", 1968.

*Sovchi bo'lib eshit, mening so'zimni,
Majnunga bermayman Layli qizimni,
Nodon ko'ngling har xayolga bo'lmagin,
Sovchi bo'lsang, ketgin, yo'ldan qolmagin.
Sen o'zingni odam choqlab yurmagin,
Odam bo'lsang ahmoqlikni qilmagin.
Laylini Majnunga teng qib yurmagin,
Bu so'zimni ko'nglingga og'ir olmagin.
O'zingdayin meni nodon bilmagin,
Bermayman Majnunga Layli qizimni. (17-bet)*

Sovchilikka borgan kimsa juda izza bo'lib, kelganiga pushaymon etib, Majnunning otasi oldiga qaytib borib, unga ham achchiq gaplarni aytib ketib qoladi. Biroq Majnunning otasi vazminlik bilan uni yupatadi: "Qizi borning nozi bor, – degan. Sovchilikning sha'ni shunday bo'ladi. Gap eshitadi, gap eshitmagan sovchi bo'lmaydi", – deydi (18-bet).

Fozil shoirning yaratgan dostoni shu o'ringa kelganda birdan tarixiylik tomonga burilib ketadi. U asarga Xoruni Rashid obrazini olib kiradi.

Fozil shoir tilga olgan bu obraz Xorun ar-Rashid bo'lib, 763–809-yillarda yashab o'tgan. 786–809-yillar orasida hukmronlik qilgan. Abbosiylar xalifasidan.¹

Bu nom ertak, rivoyat, afsona va dostonlarda ko'p uchraydi. Uning obrazi "Ming bir kecha" ertaklarida ideallashtirilgan holda berilgan. O'zbek xalq ertaklarida, rivoyatlarida ham ba'zan uning nomi tilga olinadi. "Xorun ar-Rashid zamonida", "Xorunning moliday behisob" degan iboralar xalq orasida uchrab qoladi.

Beruniy to'plagan rivoyatlarning ikki-uchtasida uning obrazi yoritilgan.²

Bu nomning xalq ijodiyotidagi obrazi Fozil shoirning dostonida yana bir bor o'zini namoyon qiladi. Baxshi bu shaxsning badiiy obrazi-nigina nazarda tutgan va uning tarixiy faoliyatiga ahamiyat qaratmagan.

Fozil shoirning ushbu obrazga murojaat qilishdan maqsadi Majnun obraziga homiy topishdan iboratdir. Xoruni Rashid Majnunni uchratib uning holiga achinadi. O'zining kanizaklaridan xohlaganini unga berishga tayyor ekanligini aytadi:

¹ Миллаев Н. Алтишар Навоий ва халқ ижодиёти. 293-бет.

² Беруний Абу Райхон. Ҳидоятлар. Т., "Ёш гвардия", 1973, 84, 88, 91-бет.

*Mening besh yuz kaniz-xizmatkorim bor,
Men berayin, yaxshi ko'rganing ushla,
Layli deysan, nima foyda ko'rasan,
Layli degan endi so'zingni tashla. (20-bet)*

Majnun Xoruni Rashidning bu taklifini rad qiladi va o'zining darbadarligini davom ettiradi. Uning onasi o'g'liga ko'p nasihat qiladi, bari bir, foydasi bo'lmaydi.

Bu gap-so'zlardan bezib Laylining otasi o'z elidan ko'chadi. Majnun dalada yurganida ularni ko'rib izidan ketadi. Layli o'sha paytda kuchugiga tur, deb buyuradi. Majnun menga aytgan bo'lsa kerak, degan xayolda o'sha yerda yillab turib qoladi. Boshida qushlar uya quradi. Laylining otasi qayta ko'chib keladi. Yana Majnun turgan joydan kelib, Laylining ko'zi Majnunga tushadi. O'shanda Laylining kuchugiga tur, degan so'zi yodiga tushadi. Juda achinadi, Majnunga o'zini bildiradi:

*Oshiqi dildorim, sanga na bo'ldi?
Oltin piyolada sharob ichilmish,
Bu abgorlik ul ko'nglingga kechilmish,
Bilmayin so'z aytdim, ko'nglingda qolmish,
Oshiqi abgorim sanga na bo'lmish? (26-bet)*

Bu so'zlarni aytib Layli ilojsiz o'tib ketadi. Majnun endi tog'larda makon tutadi. O'sha paytda Xoruni Rashidning amaldori bo'lgan Novpal degan kishi ov bahonasida toqqa chiqadi. Nogohonda Majnunga duch keladi.

Majnun ulardan hayvonlarga tegmaslikni iltimos qiladi. Novpal Majnun haqida ilgari eshitgan edi. Uning aftodaligiga achinadi, Majnuni o'zi bilan birga o'z makoniga olib ketadi. Uni yuvib, tarab, kiyintirib qo'yadi. O'z qizini berishni ko'ngliga tugadi. Bir kuni bu fikrini Majnunga ochiq aytadi.

*Qdbul qilsang, qizim to'yido'berayin,
Gapirgin ko'nglingni, bolam, bilayin.
Ma'qul desang, boshdan ketar kulfating,
Bu so'zima javob bergin, farzandim. (35-bet)*

Bu so'zni eshitgan Majnun Novpalning yuzidan o'ta olmay "xayr" deydi. Darhol to'yni boshlab yuborishadi. Nikoh kechasi Novpalning qizi Majnunga shunday deydi:

*Qayg'u-g'amda sen bo'lding, menga duchor,
Mening ham senday bir oshig'im bor.
Qiyomatli seni akam deyayin,*

Otam olib bersin Layli yoringni. (36-bet)

Bu so'zlarni Novpal o'z qulog'i bilan eshitadi. Qizimni sevganiga beraman, Majnun esa o'g'lim bo'lib qoladi, degan qat'iy fikrga keladi. O'z navbatida, unga Laylini olib berish uchun harakatni boshlaydi.

Laylining otasiga xat bitib sovchi jo'natadi. Xatda Novpal qizni bermasa, zo'rlik ishlatishini sha'ma qilgan edi. Bundan darg'azab bo'lgan Laylining otasi sovchilarga rad javobini beradi. Novpal buni eshitib, urush boshlab yuboradi. Jang qizib ketadi, ko'p odam o'ladi. Laylining otasi bu behuda urushni to'xtatmasa, Laylini o'ldirajagini aytadi. Shu kechasi Majnun tush ko'radi. Tushida Layli urush tufayli otam meni dorga osmoqchi, deb Majnundan gina qiladi. Erta bilan Majnun Novpalga murojaat etib, urushni to'xtatishni so'raydi. Novpal qo'shinni orqaga qaytarib, Majnunning iltimosini bajaradi.

Bu g'avg'olardan bezgan Laylining otasi o'z elidan ko'chib ketib, o'zga joyda makon tutadi.

Shu orada bir vaqtlari Layliga sovchi qo'ygan Hakim Laylining otasi oldiga kelib, katta qalin evaziga to'yni boshlab yuboradi.

Biroq, to'y kechasi uning o'g'li dardga chalinib qoladi. Bundan qo'rqqan uning ota-onalari, bu qizda bir gap bor, degan o'yda kelindan voz kechishadi:

Qurisin Laylisi bizga ne darkor,

Endi bizlar bu Laylini olmaymiz.

Laylidan o'zgani olib berayik,

Falokatdan bizlar xalos bo'laylik. (51-bet)

Novpal huzurida yurgan Majnun bir kuni bu yurishdan zerikib, yo'lga chiqadi va bir karvonga yo'liqadi. Karvonboshidan Laylini so'raydi. Bu karvonboshi Laylining qarindoshi edi. U Majnunning so'zlari-ni xatga bitib Layliga yetkazadi. Laylining xatini qaytishda Majnunga topshiradi. Boshqacha qilib aytganda, Zayd vazifasini bajaradi. Bir kuni Majnun Laylilar mahallasining qo'ylarini boqib yurgan cho'ponga yo'liqadi. Undan Laylilar mahallasiga olib borishni iltimos qiladi. Cho'pon uni qo'y suvratida mahallaga olib boradi. Shu bahonada u Layli bilan uchrashib hol-ahvol so'rashadi. Keyin tog'ga chiqib, yana hayvonlar orasida yashaydi. Bir kuni uning qulog'iga onasining nolasi eshutiladi, Majnunni vidolashuvga chaqirganday tuyuladi. So'ng tush ko'radi, tushida onasi, otasi o'lgan emish. Shu zahoti uyiga qarab yo'l oladi. Lekin barcha hayvonlar ham u bilan birga qaytadi. Eldagi odamlar qo'rqib qochishadi. Biroq bu hayvonlar hech kimga tegmaydi. Shunda qarindosh-

lar unga ota-onasining o'lganini aytishadi, unga tanbeh berishadi.

Majnun qabristonga borib ota-onalarining mozorini topadi. Uch kun shu yerda tunab motam tutadi va yana toqqa chiqib ketadi.

Laylining esa dardi tobora og'irlashadi. Oxir-oqibat Laylining ahvolini onasi tushunib yetadi. Uni Majnun bilan uchrashtirishga va'da beradi.

Laylining onasi Majnunni yetkazishni xudodan tilab o'tirganda birdan Majnunning o'zi hayvonlar bilan birga kelib qoladi. Majnunni odamlar uyga kiritib, yuvib tarab, yaxshi kiyintirib, Layliga ko'rsatishadi. Layli uni ochilib-sochilib kutib oladi. Oxir-oqibat Laylini Majnunga berishga qaror qilib to'y boshlab yuborishadi. Dostonni shoir shunday yakunlaydi:

Oxiri Laylini Majnun olibdi,

Bu dunyoda davron surib qolibdi.

Bir-biriman Layli-Majnun topishib,

Ikovi dunyoda maqsadga yetdi. (84-bet)

Doston mazmunini kengroq berishimizdan maqsad sujetning og'zaki badehago'ylikdagi qayta ishlanishi, undagi o'zgarishlarni yorqinroq ochishdan iboratdir. Darhaqiqat, yozma adabiyotda asrlar bo'yi yashab kelgan an'anaviy sujet Fozil shoir badehasi orqali jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirgan.

Sujetdagi o'zgarishlar obrazlar faoliyatini qayta ishlashga olib kelgan. Ilgari ta'kidlaganimiz kabi asar xalqona otimizmni o'z jismiga singdirgan. Bu holat voqealar oqimidagi ayrim masalalarni yangilashni taqozo etgan. Natijada obrazlarning xatti-harakatlarida ayrim yangilanishlar ko'zga tashlanadi.

Avvalo Layli va Majnun obrazlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning faoliyatida ham o'zgarishlarga duch kelinadi.

Eng avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, dostonda she'riy qismning salmog'i katta. Baxshi nasrda ayrim tafsilotlarni hikoya qilsa-da, epik bayonni she'riy misralarda ham davom ettiradi. Voqealar tasvirini she'riy misralar orqali yanada ta'sirchanroq ifodalashga harakat qiladi. Shu sababli obrazlar faoliyatiga tavsif berganda ana shu holatga ham jiddiy e'tibor berishga to'g'ri keladi, chunki obrazlarning ichki iztirobi she'riyatda yanada kuchliroq namoyon bo'ladi. Qolaversa, voqealarning she'rda bayon qilinishida ham o'sha xususiyat o'z kuchini yo'qotmaydi.

Majnun og'zaki variantda ham fidoyi ishq sohibi. U maktab yoshidayoq Laylini sevib qoladi. Uning obrazini baxshi maktabdoshlari-

ning munosabatlari orqali yoritishga intiladi. Do'stlari unga bu ishing uyat bo'ladi, to'g'ri yur, darsingni qil kabi nasihatlarini berishadi. Bu tasvir o'zbekona urf odatlar, milliy xususiyatlar, andesha va sof vijdonlilikni o'z bag'riga qamrab oladi.

Fozil Yo'ldosh o'z davrining odami. U voqealarga o'z dunyoqarashi nuqtayi nazaridan yondoshadi.

Baxshi Majnunni ixtiyorsiz sevgi sohibi sifatida gavdalantiradi. Majnun Layliga bo'lgan ishqini jilovlay olish imkoniyatiga ega emas:

Larza tushib titrar tanam,

Layli qalam qoshli sanam.

Agar Laylini ko'rmasam,

O'tda yonar guldaz tanam. (7-8-betlar)

Ushbu satrlarda uning qiyofasi yaqqol namoyon bo'ladi. U ishq masalasida hech kimning maslahatini olmaydi, oxir-oqibat Majnun laqabiga ega bo'ladi. Xoruni Rashid degan podsho Majnunga bu yurishingni qo'y, mana mening besh yuz kanizim bor, istaganingni tanla, senga ot, mol-davlat hadya qilayin, saroyda yasha, deb taklif qiladi. Shunda Majnun: "Men besh yuz kanizingni Laylining iziga ham olmayman. Laylimdan qolmayman, Laylidan o'zgani demayman", – deb javob beradi. (20-bet)

Majnun hamisha Laylini izlaydi. Uni qo'msaydi:

Oydan g'olibdi jamoli,

O'n to'rt yoshida kamoli,

Boshida panza ro'moli,

Mening Layli jonim qani?

Baxshi dostonida xalq ijodiga xos bo'lgan barcha usullardan foydalangan. Asarda badiiy fantastika, mubolag'aviy ifodalar anchani tashkil etadi. Bu usullar Majnun obrazi tasvirida ham ko'rinadi. Laylilar oilasi ko'chib borayotganda Laylining o'z kuchugiga "Tur!"– degani lavhasida Majnun qalbidagi sevgi-muhabbatning naqadar yuksakligini va uning bu ishq domiga mustahkam bog'langanligini ifodalashni maqsad qilib qo'ygan. Laylilar oilasining qaytib kelishida Majnun bilan Layli bir-birini ko'rib qolishadi. Shundagina Majnun boshidagi Laylak uyalarini buzib tashlab, endi tog'larda yursam meni balanddan Layli ko'rib turadi, degan ilinjda tog'liklarga chiqib ketadi, hayvonlar qurshovida yashay boshlaydi.

Majnunning Novpal bilan bog'liq sarguzashtlari ham uning sevgidagi sadoqatini yana bir bor namoyish qiladi. U Novpalning gapini ikki

qilmay uning qiziga uylansa-da, bu muammoni qiz bilan osonlikcha yecha oladi. Qizning o'z sevganiga tegib ketishiga yo'l ochadi.

Baxshi badehasining ahamiyatli tomoni shu narsada ko'rinadiki, u obrazning ruhiy holatini tush orqali ifoda etadi. Novpal Laylining otasi bilan urush boshlaganda Majnunning tushiga Layli kiradi. Unga: "Qon to'kishgandan keyin qanday oshiqlik-do'stlik bizning oramizda qoladi?" – deydi Layli. Majnun esa erta bilan turib Novpaldan urushni to'xtatishni so'raydi:

Bugun kecha xabar yetdi yorimdan,

Layli otli mening shirin jonimdan.

Bu ishingni sira havas qilmayman,

Layli oshig'imni urushib olmayman. (49-bet)

Baxshi dostonidagi Majnun bilan Layli uchrashuvini ham xalqona hal qilgan. Boshqa dostonlarda Majnun ko'zi ojiz tilanchi qiyofasida Layli huzuriga kelsa, xalq ijodkori o'z qahramonini bu qiyofaga kiritmaydi. Masalani xalqona yo'sinda ochishga o'tadi. Majnun cho'pon bilan maslahatlashib, qo'y terisiga kirib, yori bilan uchrashadi. Bu lavha xalq ijodiyotidagi qiyofasini o'zgartish, qadimgi evrilish motivining reallika yaqin qilib qayta ishlangan ko'rinishidir. U Layli yoriga:

Bir ko'rsam deb kuyib-yondim,

Qo'y teriga pinhon bo'ldim.

Bemahalda men so'roqlab,

Qo'yday bo'lib yetib keldim.

deydi. (61-bet)

Majnun bu so'zlarida samimiylilik va soddalik jilolanib turadi. Uning "qo'yday bo'lib yetib keldim" degan so'zlarida katta ma'no yashiringan. Bu iborada "yuvoshlik, munislik" qiyofasida keldim, degan ma'no yotadi. Buning sababi shuki, sal ilgari Layli o'z maktubida unga Novpalning qizi voqeasini uning yuziga solib ta'na qilgan edi. Majnun bu uchrashuvi ikki qalb o'rtasida kechgan ana shu "ko'ngilsiz" voqeani oradan olib tashlash edi. Shu sababli Majnun nutqida yuvoshlik, munislik, uzrxohlik ohanglari ustuvorlik qiladi.

Majnun obrazida jabrdiydalik, behudaga azob tortishlik xususiyati ko'proq namoyon bo'ladi. Ayniqsa, uning ota-onasi vafot qilib, Majnun bundan bexabar qolishi lavhasi asarda yaxshi ishlangan. U bu muhim xabardan ham onasining ruhi orqali xabar topadi. Uning qulog'iga onasining ginali, alamli nidolari eshitiladi. Shu zahoti u uyiga oshiqadi. U bilan birga barcha jonivorlar ham ergashib uning eliga kelishadi. U

ota-onasining qabri ustida uch kun bo'ladi. So'ng yana tog'ga chiqib, es-
kicha hayotini davom ettiradi.

Baxshi ushbu sarguzashtlarni tasvirlar ekan, asar finaliga yetay,
deganda bu ikki yoshning taqdirini ezgulik tomonga burish uchun inson
qalbidagi diyonat, vijdon, adolat kabi tuyg'ularning kuch-qudratini na-
moyish etish usulini qo'llaydi. Bu tuyg'ular, dastlab, Laylining onasi
qalbidan otilib chiqadi. Qolaversa, bu ikki yoshni qo'shish uchun barcha
odamlar harakatga tushadi. Majnunni keltirib, yuvintirib, kiyintirib to'y-
ni boshlab yuborishadi.

Ijodkor asar voqealarining taranglashgan joyida xalq ijodidagi
mo'jizaviy motivga murojaat qiladi. Albatta, asarda Xizr, Ali yoki eran-
larga o'xshagan homiylar yo'q. Lekin ularning bajaradigan ishlarini bax-
shi xayolan amalga oshiradi. Laylining onasi qizini sevganiga berishga
ahd qilib, Majnunning kelishini tilab o'tirganda, Majnunning xayoliga
Layli tushib, uni izlab jonivorlar bilan birga yetib keladi.

Majnun bilan Layli obrazini mazkur variantda ham bir-biridan aj-
ratgan holda qarab bo'lmaydi. Ularning taqdiri o'zaro birikib ketgan.
Ushbu variantda ham ular ilohiy ishq bilan bog'langanlar. Buni asar de-
bochasidagi tasvir tasdiqlaydi. Layli ham Majnunni sevadi. Lekin baxshi
buni ko'p ham ta'kidlayvermaydi. Qizning o'zbekona iffatini barqaror
tutadi. Faqat o'n to'rt-o'n beshga kirib, er yetib qoldilar, degan fikrni
aytgach, Laylining ahvolini bayon qiladi: "Layli hech kimga dardini
yormas edi. Majnunning ishqida kuyib yonardi. Silinib, goh kechalari
uyqusi kelmas edi" (12-bet).

Baxshi Layli sevgisini asta-sekin ocha boradi. Majnun obrazidagi
barcha qirralarni ro'yobga chiqargandan keyingina Laylining qalb izti-
roblarini she'riy bayon orqali ifodalashga o'tadi. U eliga qaytadan ko'-
chib kelayotib, Majnunning bir joyda u kelguncha turib, abgor bo'lgani-
ga achinadi.

Bizlar oshiq, endi bundan ketarmiz,

Ikovimiz bir maqsadga yetarmiz,

O'lmasak dunyoda suhbat etarmiz,

Majnu sifat, begim, sanga na bo'ldi? (26-bet)

Fozil shoir obrazlar ichki kechinmalari, ruhiy holatlarini aksariyat
hollarda tush ko'rish usuli orqali ochib beradi. Obrazlar eng qaltis payt-
larda bir-biriga aytishi lozim bo'lgan xabarni tush orqali bayon qiladi.
Laylini talab qilib Novpal urush boshlagandan keyin ko'p qon to'kiladi.
Hatto bu mojaroning sababchisi bo'lgan Majnunning sevgilisini dorga

osmoqchi bo'lishadi. Layli ushbu voqeani sevgili yigitiga tush orqali yetkazadi. Natijada, Majnun bu qon to'kishni to'xtatishni Novpaldan iltimos qiladi.

Fozil shoir variantida ham mifologik lavhalardan lozim o'rinlarda foydalanilgan. Laylini hakimning o'g'liga nikohlab bergandan keyin bo'lajak kuyovga g'oyibdan bir dard beriladi. Mana shu sabab voqealarning birdan o'zgarishiga olib keladi. Uning dard orttirishi Layli bilan bog'lanadi va undan voz kechishadi. Bu voqeadan keyin Layli Majnunga nisbatan yanada kuchliroq intila boshlaydi. Endi u o'z qalbidagini bayon eta boshlaydi:

*Unga qo'ygan mehri-jonim,
Qachon bo'lar ul mehmonim,
Majnunning ishqida kuyib,
Ketdi mening nomus-orim. (55-bet)*

Layli shu paytdan boshlab Majnunga xat jo'nata boshlaydi. Mazkur variantda maktubning she'riy matni berilmay, faqatgina aralash aytilgan nasriy shakli qayd qilinadi. Baxshi doston finaliga yaqinlashgan sayin Layli qalbidagi sevgi iztiroblarini yorqin misralarda bayon eta boradi:

*Ko'rib tanamda darmonim,
O'tga yonib ustixonim,
Majnun ishqida dod etib,
Chiqayozdi shirin jonim. (177-bet)*

Laylining qalbini ilk bora o'z onasi tushunib yetadi. Uni Majnun bilan uchrashtirishga va'da beradi va uning Layli huzuriga kelishini tilab o'tirganida tasodifan Majnunning o'zi tevaragidagi hayvonlar bilan birga yetib keladi. Majnun bilan Layli uchrashadi. "Shunda Layli Majnunning ko'nglini xushlab, xalqiga xabar yuborib, to'y-tomosha boshlab" yuboradi (83-bet).

Baxshi bu ikkala obrazni zo'r ko'tarinkilik bilan tasvirlaydi. Xalqning ruhiyatini hisobga olgan holda, Majnunni faol ravishda Laylini esa andishali qiyofada harakatga keltiradi.

Fozil shoir variantida bu ikkala obrazdan keyin voqealarni ezgulik tomonga burishda asosiy rol o'ynagan obraz Laylining onasidir. Baxshi bu obrazni har tomonlama mukammal chiqarishga harakat qilgan va buning uddasidan chiqa olgan. Ona obrazini to'laonli tasvirlashga ijodkor uning voqealarga dastlabki aralashishidan boshlab ahamiyat beradi. Doston sujeti arablar hayotidan bo'lishiga qaramay, baxshi masalalar

mohiyatiga o'zbekona yondoshadi. Laylining otasi qanchalik badbin bo'lmasin, qiziga sovchi kelganda xotini bilan maslahatlashadi:

*Bu so'zlarni, endi, seni bilar deb,
Qizga ena otadin yaqin bo'lar deb,
Nima savol aytib javob beramiz?
Yaxshi o'ylab, javob bergin boybichcha,
Kelgan sovchin qanday yo'lga solamiz? (13-bet)*

Mana shu lavhadanoq, Laylining onasi eshituvchi ongiga muhrlanadi, uning oilada o'ziga xos o'rni borligi anglashiladi. Hakimning o'g'lidan sovchi kelgandagi ushbu vaziyatni ona silliq hal qiladi. Qizining kasalligini eriga batafsil tushuntiradi va bu masalani kechiktiradi. Agar qizimizga biror narsa bo'lib qolsa, qaytarishga to'g'ri kelar, deb mollarni, sarpolarni ham olmasdan qaytaradi. U Laylini juda sevadi, ardoqlaydi. Majnun qo'y qiyofasiga kirib kelib Layli bilan uchrashganda qizlar ketib qolib, Layli Majnun yonida turib qoladi. O'sha paytda uning onasi darhol qizini izlab chiqadi, uni topib, qiz bola bemahal yurmaydi, o'ziga gap ergashtirmaydi, qabilida nasihat berib, darhol uyiga olib ketadi. Bir kuni Layli Majnunni sog'inib, tunda o'z-o'ziga bir nimalarni aytib yotar edi:

*Kimga yig'lay dardim yorib,
Ishq savdosi menda g'olib.
Yurakka Majnun dog' solib,
Betayin ketdi yo'qolib.
Xohi oshno, xoh begona,
Meni bilmas ota-ona... (78-bet)*

Bu so'zlarni uning onasi tasodifan eshitib qoladi. O'sha voqeadan keyin onaning qiziga va Majnunga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi. Hech ikkilanmasdan, dadillik bilan qiziga shunday deydi:

*Bunga, qo'zim, xafa bo'lma,
Majnunni senga keltiray.
Boshingdan tumaning ketar,
Oshiqqlar maqsadga yetar...
Ikkovingni men bir qo'shib,
Bolam, seni xursand qilay. (79-80-betlar)*

Ushbu voqeadan keyin doston yakuniy etapga o'tadi, to'y-tamisha boshlanadi. Bu ezgu ishning amalga oshishida Laylining onasi asosiy tayanch obraz sifatida gavdalanadi.

Ijobiy obrazlar silsilasida Majnunning otasi qiyofasida ham o'zbe-

kona xarakter o'zini namoyon qilib turadi. U Qaysning dastlabki harakatlarida savdoyilik belgilarini ko'rib juda xafa bo'ladi. U o'g'lining ahvoliga boqib: "Jarlig'a bola berar, yarim jonin ola berar", degan maqolni ishlatadi. Uni "qo'shnochga qoqdirib, baxshiga boqtirib" turli davolash tadbirlarini qo'llaydi. Biroq nafi bo'lmaydi. "Qays oti yo'q bo'lib, Majnun otini ko'targandan so'ng Laylidan bo'lakni gapirmas edi. Shunda Majnunning otasi: "Muni uylantirib qo'ysak tuzuk bo'lasmikan? – deb Laylining otasiga sovchi yuboradi" (16-bet).

Laylining otasi esa rad javobini beradi va sovchini haqoratlash darajasigacha boradi. Bundan xafa bo'lgan sovchining Majnunning otasiga: – Ey o'g'lingni uylantirmay o'l, meni qanchalik izza qildirding, degan so'zlarini ham bosiqlik bilan hazm qiladi. Unga: "Qizi borning nozi bor, degan, sovchilikning sha'ni shunday bo'ladi. Gap eshitadi, gap eshitmagan sovchi bo'lmaydi. Qizni kim aytmaydi, qimizni kim ichmaydi, – degan gaplar bor. Sovchi xalqi bir-ikki halak bo'lib boradi. Uni sen qattiq gapirdi, deb ko'nglingga olma. Yana borganingda yuvashib qoladi. Uch marta borsang tayin, ko'nadi", – deydi (18-bet).

Otaning ushbu so'zlari uning naqadar bag'rikeng, dono fikrlovchi, hayotning achchiq-chuchuklarini teranglovchi inson ekanligini yaqqol namoyon qiladi. Uning ushbu gaplarida o'zbekona fikrlash, o'zbekona urf-odatlar tom ma'noda o'z ifodasini topgan. Ushbu lavhadan keyin ota doston voqealarida boshqa ko'rinmaydi. U bolasining bog'ida kuyib, yorug' dunyoni tark etadi.

Majnunning onasi doston voqealarida unchalik ko'p ko'zga tashlanmasa-da, ayrim epizodlarda "yalt" etib bir ko'rinib ketadi va kishida o'ziga nisbatan mehr uyg'otadi.

Baxshi ona qalbining mungli iztiroblarini bitta lavhada juda ta'sirchan ifodalab bera olgan. Bir kuni Majnunning qulog'iga g'oyibdan nido keladi. Bu onaning qalb so'zlari edi:

*El ichida g'arib bo'ldim,
Bolam, sendan ayrilgani.
Qiyomatli kunlar ko'rdim,
Qo'zim, sendan ayrilgani.
Menga yaqin keldi o'lim,
Majnun otli jon-u dilim.
Otang yurar bag'rin tuzlab,
Kelmading bizlarni izlab.
Bundan ketar aziz boshim,*

Eltib ko'mar qarindoshim.

El ichida holim zabun,

Ne bo'ldi kelmading, qo'zim. (66-bet)

Baxshi ona qalbidagi dard-alamlarni 70 misralik she'riy parchada juda ta'sirchan tarzda ifodalay olgan. Ushbu parchada mushfiq onaning mungli qiyofasi eshituvchi ko'z oldida to'laligicha o'zini namoyon qiladi. Kishida achinarli kayfiyatni yuzaga keltiradi. Onaning qalbidagi armonlar yuzaga qalqib chiqadi. Ushbu nido Majnunning uyqusida aks sado beradi. U uyg'ongach, sakrab o'rmdan turganda tevaragidagi barcha hayvonlar bezovtalanib turgan bo'ladi. Shu zahoti uyiga yo'l oladi. Biroq u kechikkan edi. Bu paytda ota-onasi allaqachon hayotdan ko'z yumgan edilar.

Baxshi ushbu lavhaning tasvirida chuqur ruhiy olam manzarasini chizib beradi. Majnunning ruhiy holati uning tevaragida yotgan hayvonlarni ham larzaga soladi. Ushbu tasvirning barcha qirralari ona qalbining dard-alamlarini yoritib berishga qaratilgan.

O'zbekona, odatda, ota-onani qabrga eltish o'g'il zimmasida bo'ladi. Onaning "eltib ko'mar, qarindoshim", degan so'zlarida bu udum o'zining ta'sirchan ifodasini topgan. Onaning g'oyibdan kelayotgan bu xitobi o'g'lining qalbini junbushga keltiradi. Baxshi bunday ruhiy holatlarni dostonning ko'pgina o'rinlarida muvaffaqiyatli ravishda ifodaga torta olgan. Ona nidosida uning farzandiga nisbatan "qo'zim", "bo'tam" kabi tasviriy nutqqa oid so'zlarni qo'llashi she'riy misralarning yanada ifodali va ta'sirchan chiqishiga zamin hozirlagan. Laylining otasi obrazi asarda murakkab shaxs sifatida gavdalanadi. U, bir tomondan qaraganda, Laylining baxtli bo'lishini istaydi. Sovchi kelganda xotini bilan maslahatlashib ish tutadi. Hatto o'z g'ururini yerga urmaslik uchun Novpal bilar jang qilishlari ham qaytmaydi. Biroq Layli bilar Majnun o'rtasidagi sevgi masalasiga qat'iy qarshi turadi. Majnun tomonidan borgan sovchini haqoratlab, haydab yuboradi. Sovchiga qarab: "Majnunni tentak desa, sen undan ham o'tgan tentak ekansan. Dunyoda odam qurib, mening qizimga sen bir aqli yo'q, ahmoqni topib keldingmi? – deydi (17-bet).

U o'z qizini asli zoti yuksak, mol-dunyosi mo'l-ko'l bo'lgan kishiga chiqarishni istaydi, Majnunni esa odam sonida ko'rmaydi:

Birov tezlab yo'lga solsa kelmagin,

Majnunni odam deb xarid qilmagin.

U ham Majnun, o'zi yurgan devona,

Jin urganga necha ishlar bahona. (18-bet)

Baxshi bu obrazni hech narsadan tap tortmaydigan, johil va jangari qiyofasiga yaqin tarzda beradi. U Novpal bilan jang bo'layotgan paytda Laylini Novpal qo'liga bergandan ko'ra, o'ldirganlikni ma'qul ko'radi. U bu masalada barcha xaloyiq oldiga chiqib o'z fikrini ochiq bayon qiladi:

*Bundayin bo'lib yurgandan,
Laylini yetaklab borsak,
Ko'ziga ko'rsatib turib,
Laylining boshini olsak,
Tanasini dorga ilsak,
Bu urushni oxir qilsak... (48-bet)*

– deydi.

Otaning ushbu rejasini amalga oshirnasligi uchun urush to'xtatiladi. Keyingi voqealarda tasvirlanishicha, u boshqa ellarga ko'chib ketadi. Lekin vaqtlar o'tishi bilan qaytib kelib, qizini hakimning o'g'liga uzatadi.

Ijodkor dostonning so'nggi voqealarida bu shaxs haqida gapirmaydi. Faqat Laylining onasi va uning ikki yosh taqdirining ezgulik tomonga yo'naltirishdagi xizmatiga urg'u beriladi.

Dostonda Novpal obraziga alohida o'rin ajratilgan. U asarda hokim sifatida tilga olinadi. Bir kuni u ov bahonasi bilan tog' yonbag'riga chiqib, Majnun va uning atrofini o'rab olgan hayvonlarga ko'zi tushib hayron bo'ladi. Bu jonzorlar orasidagi abgor bo'lib yurgan insonning kim ekanligini va bu sirning sababini bilib oladi. O'z navbatida, u Majnunga yordam qo'lini cho'zadi. U voqeani tushunib yetadi. Chunki Majnun haqida turli gap-so'zlardan u oldin ham xabardor edi. U Majnunni hayvonlar qurshovidan olib ot beradi, kiyintiradi va yigitlari qatorida olib yuradi. Unga qizini to'y qilib beradi. Lekin bu ish muvaffaqiyatsiz chiqadi. Shundan keyin Novpal Majnunga Laylini olib berish uchun harakat boshlaydi. Dastlab sovchi yuboradi. Ammo Laylining otasi: – Bizga o'lim bor, xo'rlik yo'q. Undan (Novpaldan) qo'rqib biz qizimiz tugul itimizni ham bermaymiz, – deydi (39-bet).

Ushbu javobdan keyin Novpal g'azabga minadi. Urush boshlab yuboradi. Ammo Majnunning iltimosi bilan o'z ahdidan qaytadi. Dostonda Novpal faoliyati o'sha lavhalar bilan nihoyasiga yetadi.

Fozil shoir asarida boshqa dostonlarda bo'lmagan Xoruni Rashid obrazi uchraydi. Bu obraz faoliyati Novpal bilan parallel ravishda ko'z-

ga tashlanadi. Bu ikkala obraz Majnunga yordam qo'lini cho'zish, uni devonalikdan qutqarish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishadi. Xoruni Rashid istagan bir kamizakka uylantirib qo'yishni taklif qilsa, Novpal o'z qizini Majnunga xotinlikka beradi. Ammo bu ko'rsatilgan himmatlarning birortasi ham Majnunni o'z fikridan, tanlagan yo'lidan qaytara olmaydi. U oxirida Novpal bergan ot, kiyim-boshlarni ham tashlab toqqa chiqib ketadi. Fozil shoir bu obrazlarni Majnunning sadoqatli oshiq, ishq yo'lida fidoiylikka bel bog'lagan irodasi mustahkam, yetuk shaxs ekanligini ko'rsatish uchun asar voqealari ichiga olib kirgan.

Bu dostonida ilgari ijodkorlar tomonidan an'anaviy ravishda tasvirlab kelingan Zayd obrazi berilmagan. Uning ayrim xizmatlarini baxshi karvon va cho'pon obrazlari zimmasiga yuklaydi.

Layli bilan Majnun orasidagi maktub yozish an'anasi ushbu asarda barham topmagan bo'lsa-da, badiiy tasvirda asosiy vosita sifatida ko'rinmaydi. Ularning matnlari ham batafsil tilga olinmaydi. Zayd obrazi bajaradigan boshqa xabarlarini baxshi oshiq va ma'shuqalarga tush orqali yetkazish tamoyili asosida amalga oshiradi.

Doston finali "murod-maqсадga yetish" bilan tugar ekan, baxshi bu lavhada el-elat, xaloyiqning sezilarli ishtiroki bor ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi. Doston og'zaki tarzda yaratilganligi tufayli xalq ommasining rolini ko'rsatishga asosiy urg'u berilgan. Bu bejiz emas. Fozil shoir bu dostonni yaratib, kuylab yurgan davr ham shuni taqozo qilardi.

Baxshi "Layli va Majnun" dostonini sho'ro davriga moslab kuylagan. Hodi Zarif "...xalqning tanqidi bilan Fozil shoir ba'zi dostonlarining ayrim motivlarida eski an'analarni o'zgartirib, qaytadan ishlaydi. ("Alpomish")da) Qorajonning poyga boshida pirlar yordamisiz arqonni parchalab uzishi, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" qahramonlarining murod-maqсадlariga erishuvlari kabi, deb yozadi.¹

Aslida bu tanqid xalqniki emas, balki davr mafkurasining tazyiqidir. Agarda doston matniga razm solinsa, uning biror joyida xudo, pir, avliyo yoki payg'ambar degan so'zlar uchramaydi. Holbuki, yuqorida tahlil qilganimiz qo'lyozma variantda diniy atamalar, xudo va payg'ambarlarga munojotlar dostonning ko'pgina joylarida tez-tez uchrab turadi.

Rus eposini tahlil qilgan tadqiqotchilar bilinalarda uchraydigan xristian diniga mansub motivlar umidsizlik ko'rinishlari emas, balki

¹Зарифов Х. Фозил шоир-майдур дoston. 14-бет.

o'sha davrda yashagan xalqni vatanparvarlik, birlikka chorlovchi o'ziga xos ideologiyasi edi, deb ta'kidlashadi.¹

Dostonlarda uchraydigan islom diniga oid g'oyalarni ham o'sha nuqtayi nazardan qarash har tomonlama ma'quldir.

Fozil Yo'ldosh o'g'li yashagan davrda masalaga bu taxlitda qarash halokatga olib kelar edi. "Alpomish" dostonini kuylash va nashr qilishning ta'qiqlanganligi o'sha davr siyosatining bir ko'rinishidir.

Fozil shoir dostonning aksariyat joylarida an'anaviy homiylar – Xizr, eranlar, chiltanlar bajaradigan ishlarni boshqacha tarzda ifodalashga harakat qiladi. Ko'p hollarda tush motiviga murojaat qiladi. Majnunga Laylining urushni to'xtatish haqidagi taklifi, ota-onasining o'limining tushda ayon bo'lishi, hakimning o'g'liga g'oyibdan dard berilishi, Layli onasining Majnunni keltirish haqidagi iltijosining ham g'oyibdan yetib borishi, Majnun onasi fikrlarining o'g'li qulog'iga eshtilishi kabi tafsiilotlar shular jumlasidandir.

Fozil shoirning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlari haqida gap ketganda tadqiqotchilar bu asarlarda A.Navoiy dostonlarining kuchli ta'siri mavjud, degan xulosaga kelishadi.² Bu fikrni inkor qilib bo'lmaydi, albatta. Lekin Fozil shoir yaratgan ushbu dostonni tahlil qilish tadqiqotchilarning yuqoridagi fikriga ayrim qo'shimchalar kiritishni taqozo qiladi.

Dostonning muqaddima qismiga diqqat qilinsa, quyidagicha tasvir ko'zga tashlanadi: "Arab qabilasida ikki urug' bor. Olis emas, bir-biriga yaqin. Qo'shni qabiladagi ikki kishining xotini homilador edi. Biri qiz, biri o'g'il tug'di. O'g'lining otini Qays, qizning otini Layli qo'ydi. Enalari parvarish qilib yurdi. Bular chaqaloq vaqtdan jilavuuq (yig'loqi bo'ldi.). Harchan qilsa juvonmaydi (yupatib bo'lmaydi). Bir ma'raka bo'lsa, xalq yig'ilsa, Laylining ham onasi ko'tarib kelsa, Qaysning ham onasi ko'tarib kelsa, bu ma'rakada bir-biriga yaqin o'tirsa, chaqaloqlarning bir-biriga ko'zi tushsa, agar kechkachayin o'tirsa ham yig'lamaydi. Iko'vi bir-biridan ajralsa, yig'laydigan hunari boshlanadi" (3-bet).

Ushbu boshlanma dostonning Xorazm va Fuzuliy variantlarining muqaddimasiga, asosan, mos keladi. Qolaversa, bu ko'rinishdagi boshlanma Andalib dostonining ayrim qo'lyozmalarida ham uchraydi.³ De-

¹ Юдин Ю.И. Героические былины. М., "Наука", 1975, с. 69.

² Қарани: Маллаев Н. Аллшпер Навоий ва халқ ижодиёти. 289-бет; Афзалов М. "Фарход ва Ширин" дostonининг халқ варианты ҳақида. Фозил шоир, 83-бет.

³ Ўзбек адабиёти тўрқини. III том, 358-бет.

mak, Fozil shoir A.Navoiy asarining mazmuni bilan tanish bo'lishdan tashqari, Fuzuliy, Andalib va "Layli va Majnun"ning xalq orasida tarqalgan boshqa qo'lyozmalari bilan ham tanish bo'lgan. Agarda shunday bo'lmasa, asar muqaddimasi A.Navoiy dostonidagidan farq qilib, yuqorida tilga olingan asarlar muqaddimalari bilan uyqash kelmagan bo'lar edi.

Fozil shoir repertuaridagi ayrim dostonlarning qo'lyozma nusxalar bilan aloqadorligini inkor qilish qiyin. M.Saidovning ta'kidlashicha, baxshi repertuarida "Rustam Zol o'g'li", "Oshiq Oydin", "Oshiq Mahmud", "Varqa va Gulshoh", "Vomiq va Uzro" kabi dostonlar bo'lgan.¹ Bu dostonlarning barchasi qo'lyozma nusxalar orqali tarqalgan. Uning repertuaridagi "Yusuf va Ahmad", "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonlari haqida ham o'sha fikrni aytish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, Fozil shoirning qissaxonlar bilan ham aloqasi bo'lgan. O'sha dostonlarni ular orqali o'rgangan bo'lishi haqiqatga yaqin. Shoirning H.Olimjonning bobosi mulla Azim bilan oshnoligi, uning uyida haftalab qo'nib ketishi, yosh Hamidning undan ertak, dostonlar tinglashi bilan aloqador xotiralar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.² "Layli va Majnun" dostonining qo'lyozma nusxalari bilan oshno bo'lish ham baxshining ana shu faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Binobarin, "Layli va Majnun" dostonining Fozil shoir tomonidan yaratilishida ushbu ko'hna sujetga murojaat qilgan ko'plab ijodkorlar asarlarining samarali ta'siri o'zini namoyon qilib turadi.

Fozil shoirning bu asari yuksak badehago'ylikning mahsulidir. U "Layli va Majnun" haqidagi mumtoz asarlarning aksariyati bilan tanihib ularning sintezi sifatida qadimiy sujetning xalq variantini yarata olgan. Bu qadimiy sujetni butunlay qayta ishlagan. Sujetdagi an'anaviylikni, asosan, saqlagan holda uni o'zbekona ohangga solgan, xalqning urf-odatlarini, kishilarning gapirish manerasini, omma orasida faol ishlatilib yurgan maqol va turli iboralarni asarning jismiga singdirib yubora olgan. Asar voqealaridagi ayrim obrazlarni chetlab o'tgan va o'zi ayrim epizodik personajlarni voqealar taqozosi bilan asar tarkibiga kiritgan.

Shunday qilib, talantli baxshi an'anaviy sujetga o'zbekona tarzda qayta hayot bag'ishlagan. Ammo bu doston o'z zamonasining mafkurasi doirasidan chiqa olmagan. Shunday bo'lsa-da bu asar o'zbek folklori xa-

¹ Saidov H. Xalq sevgan doston. T., "Ўзбекистон", 1972, 7-бет.

² Маъмуров М. Ҳамид Олимжоннинг Фозил шоир билан ҳамкорлиги. Фозил шоир. 162-бет.

zinasidan munosib o'rin egallay olgan umrboqiy ijod mahsuli bo'lib qoladi.

2.3. Dostonning Umar Boqiy varianti

Umar Boqiy XVIII asrning II yarmi va XIX asrning boshlarida Kiromiy, Roqim, Nishotiy, Andalib, Munis kabi shoirlarga zamondosh sifatida Xorazmda yashab ijod etgan adiblardan biridir.¹

Umar Boqiy ham shoir, ham yozuvchi sifatida baholashga hammasi asoslar bor.² "Layli va Majnun"dagi keltirilgan she'riy parchalar Umar Boqiyning original, sohib qalam shoirligidan darak beradi.³

Adib madrasa ta'limini olgan, arab va fors tillarini egallagan, Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy kabi buyuk shoirlar ijodidan boxabar bo'lgan o'z davrining yetuk ziyolisi sifatida gavdalanadi. Uning "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" dostonlari buning yaqqol ifodasidir.

Umar Boqiyning asosiy xizmatlaridan biri yozma adabiyotdagi nodir namunalarni xalqona talqin qilish orqali ommaviylashtirishdir. Uning nasrda bayon qilingan "Layli va Majnun" dostoni garchi o'sha davr ziyolilari, qissaxonlariga mo'ljallab yaratilgan bo'lsa-da, bu asar o'sha qissaxonlar orqali oddiy kishilargacha yetib bordi. Chunki qissaxonlarni faqat ziyolilar emas, balki baxshilar, Xorazmdagi xalfalar ham tinglab, o'rganib, o'sha asarlarni xalq orasida yanada keng targ'ib qilishgan.

Bizning qo'limizda bu asarning 46 sahifadan iborat toshbosma nusxasi mavjud.⁴ Kitobning tuzilishi 4 qismni tashkil etadi. Muqaddima qismidan keyin "Majnunni Navfalg'a uchrashgani hikoyasi", "Majnunga' Navfalni qizini so'z soldirib to'y qilg'oni", "Majnun bila Laylining firoq mehnatida bir-birlarig'a jon nisor qilg'onlari" kabi mavzular ostida tafsilotlar berilgan.

Doston, asosan, nasriy bayondan iborat bo'lishiga qaramay uning tarkibiga 68 misra she'r kiritilgan. Bu she'rlarning bir qismi shoirga tegishli, kattaroq qismi dostondagi lirik sahnalarni to'ldiradi. Ularning barchasi masnaviyda bitilgan.

Umar Boqiy qalamiga mansub bu asarning dastlabki sahifalarida-

¹ Ўзбек адабиёти тарихи. III том, Т., "Фан", 1978, 161-бет.

² Ўзбек насри тарихидан. Т., "Фан", 1982, 90-бет.

³ Маллаев Н. Алтиер Навоий ва халқ ижодиёти. 256-бет.

⁴ Китоби "Лайли ва Мажнун". Тошкент, 1910 (Ғулом Ҳасан Орифзонов босмаюнаси).

noq, uning muallifining yuksak bilimdon ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Asar tarkibida qur'on oyatlari, saj usullari, she'riy qistirmalar, badiiy nutqdagi serjilo ohanglar kishi e'tiborini darhol o'ziga jalb qiladi. O'z navbatida, asarda forsiy, arabiy leksikaga ham keng o'rin berilgan.

Dostonda an'anaviy sujet berilgan bo'lib, adib unga ayrim o'zgarishlarni olib kirgan. Uning ta'kidlashicha, "Layli bila Majnun" din necha hikoyalarni tartib birla zohir" qilgan.

Asar muqaddimasida arab qabilasidagi befarzand xoja haqida so'z yuritilib, uning xudodan tilab farzandga ega bo'lishi, unga Qays ismi berilishi hikoya qilinadi. Laylining otasi haqida adib boshqa variantlarga o'xshamagan voqealarni bayon qiladi. Laylining otasi boy, badavlat olim kishi bo'lib, maktabdorlik qiladi. O'sha olimning qo'liga Qaysni o'qishga berishadi. O'sha kishining maktabida u Layli bilan birga o'qib, ishq savdosiga giriftor bo'ladi. U maktab chorbog'ida behush bo'lib yiqilib qoladi. Uni uyiga olib ketishadi. Qays kechasi yana Layli qabilasiga yetib keladi. O'sha joyda ikkovi uchrashadilar. Ular behush bo'lib yiqilib qolgach, Laylini uning enagasi olib ketadi. Majnunni uzoqroq joyga eltishadi. Ertasiga Majnunni ota-onalari o'sha joydan topishadi.

Shu tariqa, Qays Majnun laqabini ko'tarib, biyobonga chiqib ketadi.

Layli bilan Majnun orasidagi ishq mojarosi Laylining otasigicha yetib boradi. U bu malomatdan afsus chekib, Majnunni bandda saqlashni otasidan so'raydi. Aks holda, o'g'lidan umidini uzsin, degan talabni qo'yadi.

Majnunning otasi bu talabni bajaradi. Lekin, bari bir, Majnun yana biyobonga chiqib ketadi.

Dostonning ushbu joyidagi voqealar an'anaviy sujetni takrorlaydi. Ibn Salomning Laylini ko'rib sevib qolishi, sovchi yuborishi, sovchilarga ijobiy javob berilishi, shu orada Majnunning haj uchun Makka-ga olib borilishi, undan Majnunning naf topmaganligi hikoya etiladi. Shu tariqa voqealar Navfalga kelib taqaladi.

Navfalning Majnunga yordam qo'lini cho'zishi, Laylining otasi bilan urush voqealari, Majnunning tushiga Laylini kirib, urushni ta'na qilishi, Majnun Navfalga iltimos etib, urushni to'xtatishi va Navfalning qizi bilan bog'liq tafsilotlar bu dostonda ham deyarlik o'zgarishsiz hikoya qilinadi. Urush tafsilotlari jarayonida Umar Boqiy Munis va Ogahiy-larning xonlar tomonidan olib borilgan urushlarga bergan ta'riflariga xos uslubni qo'llaydi:

*Guruho-guruh jilva aylab sipoh,
Iki lashkar ermas, iki hashargoh,
Taraqa turuqi amudigaron,
Jahon bo'ldi bozori ohangaron.
O'lukdan ko'tarildi ko'p pushtalar,
Yotardi necha qong'a og'ushtalar. (19-bet)*

N.Mallayev o'z tadqiqotida ushbu misralarga o'xshash tasvirlar Xomushiyning "Shohnoma"sida ham uchrashini qayd qiladi.⁵ Albatta, Umar Boqiy Xomushiyning asarlaridan ham boxabar bo'lganligi, badiiy tasvirda undan ijodiy foydalanganligini inkor qilib bo'lmaydi. Bu holat adabiy ta'sir, ijodiy hamohanglikning bir ko'rinishidir.

Doston davomida Majnun bilan Laylining Zayd vositasida maktub olishi voqealari qisqacha beriladi. Maktubdagi dil izhorlari nasriy bayonda tasvirlangan.

Majnunning otasi tomonidan kelib biyobondan olib ketilishi, uning yana qochib ketishi, shu orada cho'ponga yo'liqishi, qo'y terisiga burkanib, Layli huzuriga kelishi, ularning o'zaro uchrashib, behush yiqilib qolishlari voqealari ham dostonda ta'sirchan qilib tasvirlangan.

Bu dostonda Ibn Salomga nikohlangan Laylining to'y oqshomida kuyov xafaqon bo'lib yiqilib qolganidan keyin uydan chiqib, tevaga minib Majnunni axtarib topishi lavhasi alohida qiziqish tug'diradi. Bu paytda Majnun ham Navfalning qizini uyda qoldirib biyobonga qochib chiqqan edi.

Biyobonda ikki sevishtan qalb uzoq dardlashib, ajralishadi. Majnun biyobonda qoladi, Layli uyiga qaytadi.

Bu lavha boshqa variantlarda uchramaydi. Shu jarayonda Majnunning ota-onasi farzandlarining dardidan iztirob chekib olamdan o'tadilar. Bu xabar Majnunga tushida aytilgan bo'ladir. Dardli o'z tinga kelib, ota-onasi qabrini topib, faryod qiladi.

Majnunning qalb tug'yonini adib she'r orqali juda ta'sirchan ifodalagan.

*Bildimki ishim gunohkoram,
Keldim senga xor-u sharmisoram,
Dunyoda seni men ayladim xor,
Uqboda meni sen aylama xor. (41-bet)*

Bu xabar Layliga ham yetib borib, u ham qayg'u girdobida qoladi.

⁵ Mallayev N. Алимшор Навоий ва халқ шоҳидиёти. 256-бет.

Shu paytga kelib u ham g'am-alamdan ranj chekib yotib qoladi. Majnunni keltirishni iltimos qiladi, biroq bunga fursat bo'lmaydi. Agar men o'l-sam, Majnunni meni qabrimga qo'yinglar, deb vasiyat qilib, olamdan o'tadi. Adib dostonning ushbu joyida Layli qalbidagi iztiroblarni she'r orqali bayon qiladi:

*Ey, munisi ro'zig'orim, ona,
G'amxo'rim-u g'amgusorim, ona,
Man dorul baqog'a azm eturda,
Dunyoni vido etib kelturda,
Tushsa yo'ling ul o'lan diyora,
Arz-u g'amim ayta ul figora.
Zinhor ango o'lg'oningda vosil,
Xush kimsadur ondin o'lma g'ofil.
Tush oyog'ina rizosin ista,
Man mujrim uchun duosin ista.
Arz aylaki, ey vafoli dildor,
Jon berdi yo'lingda Layli zor. (44-bet)*

Majnun Laylining o'limini eshatib, uning qabri boshiga keladi va bir oh tortib jon taslim qiladi. Bu ikki oshiqqa bir kafan qilib, bir qabrda qo'yishadi.

Umar Boqiy ham biz ilgari tahlil qilganimiz Xorazmdan topilgan qo'lyozma nusxadagi kabi o'z asarini Navoiy "Xamsa"sidan olingan bir bayt bilan yakunlaydi:

*Bir nahshqa soldilar ikovni,
Jonsiz kelin va o'luk kuyovni*

Doston nihoyasida adib bu ikki sevishgan qalb ishq majozida o'rtansa ham ishq haqiqiyg'a musharraf bo'lishiga umid bildiradi.

Kitob oxirida uni 1328-hijriyda (melodiy 1910) Abdulhamid qori Jalolobodiy ko'chirganligi qayd qilinadi.

Umar Boqiy variantida ilgarigi variantlarda ishtirok etgan obrazlarning deyarlik barchasi faoliyat ko'rsatadi. Ammo ularning obrazlarida muayyan o'zgarishlar, qayta ishlashlar ko'zga tashlanadi.

Adib asarda, asosan, Majnun va Layli obrazlari faoliyatiga muhim e'tibor qaratadi. Uning tasvirlashicha, Majnun go'zal, aqlli va zehnli shaxs. U Laylining otasi qo'lida tahsil oladi va o'z qobiliyati bilan uning hurmatiga sazovor bo'ladi.

Majnun Laylini ilohiy ishq darajasida sevib qoladi va devona qiyofasiga kiradi. Uning obrazidagi barcha xatti-harakatlar an'anaviy syu-

jetdagi tafsilotlarga, asosan, mos keladi. Shu bilan birga mazkur asarda uning "saruposiz" yalang'och yurishiga urg'u beriladi. Bunday tasvir boshqa variantlarda uchramaydi.

Umar Boqiy Majnun va Laylilarning qalbidagi ilohiy ishq savdosini ularning maktublari orqali yoritish asnosida ikki yoshning haqiqiy qiyofasini gavdalandirib beradi.

Majnun maktubida o'zining ichki kechinmalarini shunday beradi: "Ishq o'tida kabob bo'lg'an va qahr mehnatida xarob va furqat alamidin ko'ngli vayron bo'lg'an, judoliq uqibatidin devona bo'lg'an, g'arib xasta bo'lg'an haqir-u dilshikastadin basad salom" (26-bet).

Majnun Layli uchun hamisha jon fido qilishga tayyor bo'lib yuradi va oxir-oqibat ishq yo'lida armon bilan jon taslim qiladi.

Laylida ham Majnun sevgisiga teng keladigan ilohiy muhabbat hamisha mavj urib turadi. Uning qalbidagi tug'yon Majnunga yozgan maktubida yaqqol ko'rinadi: "Bu shikasta hol, parishon ahvol, firoqingda zaif bo'lg'on bechora va benavodin ul ishq dashtida makon tutg'on va mening furqatimda qon yutg'on, visol davlatidin mahrum bo'lg'on, hijron alamidin mamnun bo'lg'on muhtaloga salom" (25-bet).

Laylining Majnunga bo'lgan e'tiqodi uning umri oxirida onasiga aytgan iltijoli vasiyatlarida ham yana bir bor ko'zga tashlanadi. Dostonda ota-onalar obraziga alohida o'rin berilgan. Ularning faoliyati an'anaviy sujet doirasida harakat qilsa-da, bu variantda sal bo'lsa ham, juz'iy o'zgarishlarga ega.

Adib obrazlarning ruhiy holatini, asosan, ularning nutqi orqali ifodalashga harakat qiladi. Majnun otasi tilidan aytilgan so'zlar uning qanday ahvolda ekanini, o'z farzandiga bo'lgan munosabatini yaqqol namoyon qiladi: "Ey, g'am kunjida makon tutg'on va firoq dashtida besarupo yugurg'on va, ey, hijron alamida qon yutg'on jigarporam, beri kelgil" (28-bet).

O'g'lining ahvolidan g'am chekkan ota va ona alam girdobida dunyodan o'tishadi.

Laylining otasi ushbu variantda olim, maktabdor sifatida beriladi. Lekin uning Majnun masalasidagi nuqtayi nazari bu variantda ham o'zgarishsiz namoyon bo'ladi. U mazkur variantda ham Majnunni o'ldirishni, Navfal urushni to'xtatmasa, hatto Laylini ham o'ldirishni maqsad qilib qo'yadi.

Dostonda Majnun onasi obrazi yaqqol gavdalanmaydi. Lekin Laylining onasi voqealar nihoyasida ancha faol harakatga kirib, qizi qil-

gan barcha vasiyatlarini to'la bajaradi.

Dostonda berilgan Navfal, Ibn Salom obrazlari faoliyatida boshqa variantlarga qiyoslaganda unchalik o'zgarishlar ko'zga tashlanmaydi.

An'anaviy obraz bo'lgan Zayd masalasiga kelganda shuni aytish lozimki, bu obrazda faollik cheklangan. Adib uning qiyofasini ham o'sha aftoda tarzda chizadi:

"Majnun biyobonda yurur erdi, nogoh oldig'a bir jo'lida mo'y, pashmina ko'sh, alamzada, dardrasida kishi uchradi. Majnun aydikiim:

– Ey, mandek biyobonda besarupo, sargardon bo'lg'on, ey mandek hodisoti ayyomdin hayron bo'lg'on, nom-u nasibing kimdur?" – "Mani Zayd deydurlar" (22-bet).

Majnunga Zayd Navfal urushi voqeasidan so'ng yo'liqadi. Unga rahmi kelgan Majnun Zaydga Navfal o'ziga hadya qilgan ot va kiyimlarini sovg'a qiladi. Zayd shunda Majnunni tanib, Layli ikkoviga maktub el-tish xizmatini bajaradi. Shundan keyin bu aloqa ham cho'pon zimmasiga o'tib, voqealarda Zayd boshqa ko'rinmaydi. Ko'rinadiki, bu obrazga har bir ijodkor o'zgacha nuqtayi nazardan yondashadi.

Umar Boqiy "Layli va Majnun" sujetini nasriy bayonga o'tkazishda voqealarni muxtasar hikoya qilish yo'lini tutgan. Shu sababli obrazlar faoliyatini qisqa tarzda yoritib o'tgan. Zayd bilan aloqador bo'lgan Zaynab obrazi umuman voqealar oqimidan tushirib qoldirilgan.

Adib ushbu dostonini yaratishda an'anaviy sujetni saqlagan holda uni ta'sirchan ifodalash uchun o'z bisotidagi barcha leksik boyliklar-dan foydalangan holda nasriy merosimizni boyitishga o'zining munosib hissasini qo'sha olgan.

Ushbu bobda ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. "Layli va Majnun" dostoni sujeti yozma adabiyotda muayyan tizimga solinib, ommalashgandan keyin uning tarqalish doirasi kengaygan. Bu asarni faqat ziyolilargina emas, balki qissaxonlar ham maxsus auditoriyalarda o'qib, uni xalqqa yaqinlashtirganlar. Natijada bu sujet turli ijodkorlar tomonidan qayta ishlanib, uning xalq variantlari yuzaga kela boshlagan.

2. Doston sujeti o'ta mungli, fojiaviy bo'lganligi sababli, Xorazmda og'zaki variant sifatida tarqalmagan. Shu sababli uning qo'lyozma va toshbosma nusxalari qissaxonlar tomonidan maxsus auditoriyalarda o'qib kelingan. Shunday qo'lyozma nusxalardan Xorazmda ikkita topildi. Ulardan bittasi Andalib variantiga o'xshash kelsa, ikkinchisi

Fuzuliy dostoniga hamohang lavhalarining berilishi bilan alohidalik kasb etadi.

3. Dostonning nashr qilingan varianti keyingi nusxa bo'lib, uning mazmuni, badiiy xususiyatlari har jihatdan e'tiborga loyiqdir. Unda Majnun va Layli obrazlari ilohiy ishq sohiblari, yuksak irodali insonlar sifatida tasvirlanadi. Asar Xorazmdagi arxaik eposga xos motivlar bilan bog'lanib ketadi va azizlar Majnunning taqdirini uning tug'ilishidan oldin bashorat qilishadi.

Dostonda Xizr obrazi ham ishtirok qiladi. Ayrim o'rinlarda mifologik tasvirlarga ham keng o'rin ajratiladi. Bu omillarning barchasi kitob ijodkorining xalq ijodiyotini mukammal bilganligi natijasidir.

4. Dostonning sujet yo'nalishi, obrazlarning faoliyati, uslubi, tili nuqtayi nazaridan qaraganda, bu dostonning ijodkori Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy, Andalib va Umar Boqiy asarlaridan boxabar bo'lgan. O'sha asarlardan ijodiy ilhomlangan holda "Layli va Majnun" haqida bir doston yaratishga muvaffaq bo'la olgan.

Dostonning she'riy qismi g'azal, muxammas, bayt, murabba' kabi mumtoz janrlarning go'zal namunalaridan iborat bo'lib, obrazlarning ichki kechinmalarini ta'sirchan ifodalashga safarbar qilingan:

1. Dostonning og'zaki varianti Fozil shoir ijodiga tegishli bo'lib, "Layli va Majnun" sujeti unda sezilarli darajada qayta ishlangan.

Asar tarkibiga u yangi obraz (Xoruni Rashid) olib kirgan. Dostonning final qismini butunlay o'zgartirib voqealarni optimizm bilan niho-yalagan. Natijada doston xalq orasida to'y va sayllarda kuylanadigan dostonlar qatoridan joy olgan. O'z navbatida shuni ham aytish zarurki, asar o'zi yaratilgan va kuylangan davrning mafkurasiga to'la moslash-tirilgan. Unda diniy atamalar, xudo, payg'ambar kabi nomlar, umuman, uchramaydi.

2. Fozil shoir varianti haqida gapirganda tadqiqotchilar ijodkor bu asarni Alisher Navoiy dostonining ta'sirida yaratgan, degan fikrga ko'proq urg'u berishadi. Dostonga diqqat bilan razm solinsa, shoirning ko'plab manbalardan oziqlanganligi seziladi.

Dostonning muqaddimasida Majnun yig'loqi bo'lib tug'ilganligi lavhasi Fuzuliy dostoni muqaddimasini eslatga, Majnunga ota-onasi-niing o'limi haqida g'oyibdan vahiy kelishi, bosh qahramonning Layli huzuriga cho'pon vositasida qo'y terisiga yopinib kelishi Umar Boqiy asaridagi lavhalarga mos keladi.

Demak, baxshi "Layli va Majnun"ning Navoiy, Fuzuliy, Umar Bo-

qiy variantlari bilan yaqindan tanish bo'lgan.

2. Fozil shoir dostonni ijod qilar ekan, undagi chechanlik iste'dodi o'zini to'la namoyon qila olgan.

Dostonning nasriy qismi saj, frazeologik iboralar, maqol va hikmatli so'zlarga, shevaga xos leksikaga juda boy.

Ma'lumki, Fozil shoir, asosan, qahramonlik dostonlarini kuylagan. Shu sababli "Layli va Majnun" dostonida ham qahramonlik dostonlariga xos stilistik formulalar, jangavor epitetlar ko'plab uchraydi. Ayniqsa, ushbu uslub dostonning Navfal bilan aloqador urush sahnasida o'zini yaqqol namoyish etadi.

3. "Layli va Majnun"ning Umar Boqiy varianti ham alohida originallik kasb etadi.

Umar Boqiy asarini yozar ekan, Navoiy asarlarini nasriy bayon orqali ommalashtirishni ko'zda tutadi.

Bu davrda Xorazmda qissaxonlik rivojlanayotgan paytlar edi. Chunki Umar Boqiydan sal oldin Andalib ham "Layli va Majnun"ning qissa-doston shaklini ijod qilgan edi.

Adib mazkur dostonning nasriy bayonini ijod qilishdan oldin ko'pgina manbalarni ko'zdan kechirib chiqqan. Shu sababli Navoiy asaridagiga qaraganda, ko'pgina o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Qolaversa, bu asar Navoiy dostonining oddiy bayoni emas, balki masalaga ijodiy yondoshilgan holda yaratilgan yuksak badiiy asardir.

4. Umar Boqiy yetuk shoir, o'z davrining ilg'or ziyolisi bo'lgan. Asar voqealari bayonida ertaklar, qissalar uslubiga xos xususiyatlardan ijodiy foydalanadi.

Doston sujetini qisqartirgan holda undagi asosiy mazmunni xalq qissalari uslubida ommabop tarzda hikoya qilib, ushbu ijodiy ishi jaryonida o'z mahoratining noyob qirralarini namoyish qila olgan. Dostondagi lirik chekinishlarda berilgan she'rlardagi ta'sirchan ifodalar, Layli va Majnun maktublaridagi qalb harorati bilan bitilgan lavhalar buning yaqqol isbotidir.

5. Dostoning xalq variantlarining qo'lyozma qissa-dostonlar va og'zaki tarzda tarqalishi mazkur sujetning xalq orasida azaldan mashhur ekanligini tasdiqlaydi.

Bu sujetning omma o'rtasida keng doirada tarqalishi o'sha davrdagi sotsial tuzum mohiyati bilan aloqador bo'lib, bunday taqdir shu paytlarda ko'plab kishilarning taqdiri bilan hamohang kelar edi. Shu sababli "Layli va Majnun" sujeti afsona, rivoyat, ertak tarzida qadimdan

ommaviylashib, oxir oqibatda doston tarzida mukammal shaklga kirib, qissaxonlar va baxshilar repertaridan mustahkam o‘rin egalladi.

III BOB. DOSTON VARIANTLARINING BADIY XUSUSIYATLARI

3.1. Yozma nusxa badiiy tilining o'ziga xos xususiyatlari

“Layli va Majnun” dostonining yozma adabiyotdagi variantlari, xususan, A.Navoiyning “Xamsa”siga kirgan dostonlar, ulardagi obrazlar, asarlarning badiiyati xususida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan va bu dostonlar ko‘plab darsliklarda ham o‘zining chuqur tahliliga ega bo‘lgan. Shu sababli biz ushbu bobimizda “Layli va Majnun”ning xalq variantlarini badiiyat tomonidan tahlilga tortamiz.

O‘zbek folklorshunosligida dostonlar badiiyati masalasi ancha keng doirada o‘z tahliliga ega bo‘lgan.¹ Shuni qayd qilish lozimki, “Layli va Majnun”ning Xorazmdan topilgan va Fozil shoir kuylagan variantlari haqida hozirgacha folklorshunoslikda birorta tadqiqot yaratilgan emas.

“Layli va Majnun”ning Xorazmdan topilgan varianti qo‘lyozma shaklida bo‘lganligi sababli uning leksikasida eski o‘zbek tili ustuvorlik qiladi. Shu bilan birga fors va arab tiliga oid o‘zlashma qatlam alohida ko‘zga tashlanib turadi. “Layli va Majnun” dostoni Xorazmda baxshilarning og‘zaki repertuariga o‘tmasdan faqat qissaxonlar tomonidan o‘qib kelinganligi sababli ular qachon ko‘chirilgan bo‘lsa, o‘sha davrdagi til xususiyatlarini barqaror saqlab kelgan. Albatta, doston leksikasini, undagi turkiy, forsiy arabiy qatlamlarga oid so‘zlarni tahlil qilish tilshunoslikka aloqador masaladek tuyulsa-da, mazkur muammoga doir ayrim fikrlarni aytib o‘tish folklor asarlarining qo‘lyozma nusxalari bilan dastlabdan ayrim yechilmagan masalalarni hal qilishga yordam beradi. Doston tiliga e‘tibor berilsa, uning ijodkorining turkiy tildan tashqari fors va madrasa ta‘limini olgan, iste’dodli ijodkor ekanligi sezilib turadi. Asar muallifi o‘sha davrda rasm bo‘lgan eski o‘zbek adabiy tili qoidalari doirasida faoliyat ko‘rsatgan. Shu bilan birga, doston leksikasi o‘g‘uz lahjasi bilan bog‘liq anchagina so‘zlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Unda: o‘v-

¹ Karant: Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. М. ГИХЛ, 1977; Саидов М. Узбек достончилигида бадий махорат. Т., “Фан”, 1969; Мирзаев Т. Эпос и сказитель. Т., “Фан”, 2008; Рузимбоев С. Хоразм достонлари. Т., “Фан”, 1985; Саримсоков Б. Узбек адабиётида сажъ. Т., “Фан”, 1978; Жураев М. Фольклоршunoslik asoslari. Т., “Фан”, 2009; Жуманазаров У. Эл суйган бахшнинг эпик олами. Т., “Фан”, 2008; Ерматов И.Т. Узбек халқ қаҳрамонлик эпоси бадийлиги. Т., “Фан”, 1994; Мирзаева М. Узбек халқ достонларида туркумлик. Т., “Фан”, 1985; Мирзаева С. Узбек халқ романлик достонлари поэтикаси. Т., “Фан”, 2004; Узбек фольклоршunosligi masalalari. II kitob, Т., “Фан”, 2010 va boshqalar.

bo – mahalla; qopu – eshik; is – hid; kosa – piyola; kun o'rt – tush payti; xo'shlashmoq – xayrlashmoq; do'nmoq – o'zgarimoq, aylanmoq; dang-dush – tengqur kabi ko'plab so'zlar ishlatilgan.

Dostonda fors tiliga oid so'zlar, ayniqsa, keng doirani tashkil etadi: pisar – o'g'il; zan – ayol; bod – shamol; badro'y – xunuk; kas – kishi; uryon – yalang'och; nisor – fidoyi; durafshon – porloq.

Forsiy qatlamdan keyin arabiy leksika o'zini namoyon qilib turadi: mavozin – azon aytuvchi; mujovir – muqim yashovchi; nahsh – tobut; maxfil – yig'in; mashub – hamsuhbat; uns – ulfat; uqbo – oxirat; abyot – ikki misralik she'r; xurshid – quyosh; zaifa – ayol; mahv – yo'q qilish; tajallo – ko'rinish; tal'at – qiyofa kabi.

Dostonda o'zlashma qatlamning ustuvorligi sinonimik ifodalarning rang-barang ko'rinishlarini ro'yobga chiqargan. Asarda birgina xudo so'zining 9 shakli keltirilganligi bunga dalil bo'la oladi:

“Bir kuni ango xudoy taolo sohib jamol qiz berdikim, husnda an-dog' hech barobari yo'q erdi (186-bet). “Tangri taolo xalq etganda ikki-si bir-birini ko'rib oshiq bo'lg'on erdilar (187-bet):

*Bismillo o'quldi, haqning kalomi,
Na bo'ldi bilmadim, kelmadi Layli. (190-bet)*

Majnun deb Ollog'a ayladim zori,

San bilursan holim yo Biru bori,

Yorim unutmishdur qasam Jabbori,

Bizning bila qani ahd-u paymoning. (209-bet)

Sig'indim Yaratg'on ulug' Jabbora,

Mani Haq yozmishdur Majnuni zora. (207-bet)

San mango oshiqsan, man sango guvoh,

Murodimiz bersin egam Rabbano. (214-bet)

Falak malohat shohisan,

Yo sattor, davroning sening. (224-bet)

Dostonning she'riy va nasriy qismlarida xudoga murojaat qilish tez-tez takrorlanadi. Ayniqsa, asarda qayg'u-g'am, hijron va ayriliq mo-tiv-larining kuchliroq bo'lganligi yaratganga yolborish, undan madad tilashni taqozo qiluvchi g'oyalarning ustuvor bo'lishiga olib kelgan. Natijada, bitta she'riy bandning o'zida xudoga uch-to'rt marta murojaat qilinadi. Mana shu holatlarda sinonimik ifodalardan foydalanish takroriylik-dan qochish va so'z ishlatishda badiiy nutqning rang-barang tarzda jilo-lanishiga zamin yaratish imkoniyatini ro'yobga chiqaradi. Bu holatni dunyo so'ziga nisbatan qo'llanilgan sinonimik ifodalarda ham ko'rish

mumkin. Uning dunyo, olam, falak, jahon, yolg'onchi kabi bir qancha shakllari ishlatilgan:

Odamdin keldim vujud,

Foniy dunyog'a uchradi. (187-bet)

Oxiri qoldim bu olam, ishq atvoring ko'rub,

Oshiq ahli bilmagaylar, jona jonim nozidur. (219-bet)

Qo'limdin oldilar mashub kitobim,

Falak bizga qo'ymish munday jufolar. (189-bet)

Keldim odamdin bu jahona yana guzar etdim,

Ko'z ochdimu haq qudratig'a bir nazar etdim. (212-bet)

Yolg'onchini derlar yo'qtur poyoni,

Yig'lama, Laylijon, Majnun omondur. (222-bet)

Dorulfanodin dorulbaqog'a rihlat qilib, ko'z yumdilar. (217-bet)

Sinonimik ifodalar asar matnida faqatgina rang-barang so'z shakllari sifatida emas, balki ma'no doirasining turlichaligi bilan ham alohida ko'zga tashlanib turadi. Masalan, "dunyo" so'zi umumiy tarzda qo'llanilsa, olam so'zi ijobiy ma'noda faxr-iftixorga monand holatda, falak, yolg'onchi shakllari qayg'u alam bilan bog'liq holatlarda, dorulfano esa, asosan, o'linga aloqador tushunchani ifodalashda istifoda etiladi. Sinonimik ifodalarning qo'llanilish doirasi boshqa ko'plab so'zlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Masalan, dushman-g'anim, yov, ag'yor, raqib; shod-xursand, xurram, xushvaqt; firoq-hijron-furqat-ayriliq, hijron, judolik va boshqalar.

Doston tilida ishlatilgan ushbu leksik boylik uning badiiylik mezonining to'la qonli chiqishida ijobiy rol o'ynagan.

Doston tilida tarixiy va eskirgan so'zlar ko'p uchraydi: podshoh, xalifa, shohi jahon, azayimxon, shayx, sipohsolar, darvesh, qosid, zindon, dastor, roviy, soqiy va boshqalar. Asarda qo'llanilgan badiiy nutq uslubi ham o'ziga xoslik kasb etadi. Undagi alqissa, alg'araz, alhosil, it-tifoqo, holo kabi so'zlar ko'proq kirish iboralar tarzida istifoda etilgan. Albatta, bu uslub qissaxonlikka aloqador bo'lib, an'anaviylik kasb etadi. Bundan tashqari, dostonidagi badiiy nutqda qissaxonlar repertuaridagi kitoblarga xos evfemistik iboralar anchani tashkil etadi. Masalan, o'lim tushunchasi uch turli ifoda orqali bayon etilgan:

Laylim niqobini chekmish yuzing,

Ajal ko'ylagini bichmish o'zina. (229-bet)

Zayd ham bir necha ibodatxona qilib, alarg'a mujovir bo'lub, shah-rishomg'a ketdi (230-bet). Laylijon bahaqqi taslim qildi (227-bet).

Bunday evfemik ifodalar boshqa tushunchalarni bayon qilishda ham faol qo'llanilgan: "Yana bir odam tolibi farzand erdi" (186-bet), "Ibn Salom Laylini ko'rub, badanig'a larza tushdi" (207-bet), "Alg'araz el oyog'i tingandan keyin Majnunni Zayd olib bordi" (224-bet). Ushbu keltirilgan iboralarning barchasida ularning negizida yotgan asosiy fikrlar silliqashtirilgan holda berilgan. Birinchi iborada "befarzand" – "toli-bi farzand", ikkinchi iborada "chuqur hayojonga tushdi" – "badanig'a larza tushdi", uchinchi iborada "barcha kishilar uxlagandan keyin" – "el oyog'i tingandan keyin" kabi pardali iboralar bilan almashtirilgan. Natijada, badiiy nutqqa xos nozik, samimiy ifoda ro'yobga chiqqan.

Bundan ko'rinadiki, o'zlashma leksika asarda poetik ruhni barkamollashtirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Xorazm dostonlarida ayrim so'zlar yoki grammatik guruhlarining takror qo'llanilishi va turli stilistik holatlarni yuzaga kelishi tez-tez uchrab turadi. Ushbu xususiyat "Layli va Majnun" dostonida ham o'z aslini saqlab qolgan. Bu usul bir tomondan alliteratsiyaga xos ohangni yuzaga keltiradi, ikkinchi tomondan ta'kidni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bu usulni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Ravishdoshning makrorlanib, lirik qahramon ruhiyatini ochib berishda hal qiluvchi rolni bajarishi: Majnun orqasig'a qoriy-qoriy qaytdi (219-bet). Do'na-do'na mani giryon aylading (207-bet).

2. Ot, sifat, son turkumlarining takrorlanishi orqali turli uslubiy ifodalarning yuzaga kelishi:

Andin so'ng bular joyli-joyig'a qaytdilar. (211-bet)

Siynam uzra turlik-turlik yarodur. (211-bet)

Ul alomat kun-kundin dardi ziyoda bo'ldi. (223-bet)

Yor bog'ida ochilmish yuz rang-u ming-ming lola. (225-bet)

Emdi bir-ikki kalima so'zni Laylidan eshiting. (200-bet)

3. Sonning ravishga aylanishi asnosida ma'no kuchaytirish imkoniyatini yaratish: Zaifalar birin-birin tashqarig'a chiqdilar. (188-bet)

4. Sinonimlar takrori negizida uslubiy holatni ro'yobga chiqarish: Majnunim mani izlamish,

Jigar-bag'rin tuzlamish. (205-bet)

So'rmoqg'a lablaring asal-u qandin,

Raqiblaring zahrin totmoqa keldim. (214-bet)

5. Antonimlar takrori negizida ma'noning ifodaviyligini oshirish:

Bir martabada turmas ermish shoh bila darvesh,

Bas jandami kiydim o'zimni darbadar erdim. (213-bet)

*Alifdek qomati doldek bukilur,
Bog'-u bog'chalarning nori to'kilur.* (223-bet)

Yuqorida qayd qilingan tasvir usullarining barchasi asar tilining mukammalligini ta'minlagani holda badiiy nutqning ta'sirchanligi va ifodaviyligini yanada oshiradi.

"Layli va Majnun" ning mazkur variantida tilning morfologik tuzilishi ham o'ziga xoslik kasb etadi. Masalan, so'roq olmoshining qayda shakli qanda tarzida qo'llaniladi:

*Qolmadi qaror manda,
Emdi mango san qanda.* (217-bet)

Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, so'roq olmoshining qanda, qayuda shakllari XIII-XIV asrlarga oid yodgorliklarda, xususan, Sayfi Saroyi asarlarida ishlatilgan.¹

Shu narsa xarakterliki, yuqorida tahlil qilganimiz ravishdoshning juft holda kelishi ham qadimiy bo'lib, lutfiy va Navoiy asarlarida faol qo'llanilgan.²

Doston tilida o'g'uz guruhi lahjalariga xos ifodalar kuchli saqlangan. Ko'rsatish olmoshlarining "bo'yla", fe'l shakllarining "Olon yo'q" (olgani yo'q), "Kelon yo'q" (kelgani yo'q) tarzida ifodalanishi hollari tez-tez uchraydi.

Asar tilidagi ushbu xususiyatlar dostonning qo'lyozma nusxalari ancha qadimda shakllanib, keyinchalik o'zgarishsiz ko'chirilib kelinganligini ko'rsatadi. Uning paydo bo'lishi o'rni esa, asosan, o'g'uz qabilalari muhiti bilan aloqadordir. Yuqorida keltirilgan leksik ifodalar, morfologik shakllar buning yaqqol dalilidir.

"Layli va Majnun" ning qo'lyozma varianti til xususiyatlari bilan alohidalik kasb etganligi sababli uning tarkibida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari ham o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, dostonlarning og'zaki variantlarida asar tilining badiiy bo'yoqdorligi baxshi mahorati bilan uzviy bog'liqdir.

Yozma nusxalarda esa bu muammo asarni yaratgan ijodkor iqtidori bilan bog'liq. Qolaversa, dostonning yozma nusxalari ko'plab qayta ko'chirilganligi sababli undagi badiiy nutqning mukammalligi va bo'yoqdorligi asarni ko'chirgan kotibning dunyo qarashi, ijodkorligi, savodxonligi va mumtoz adabiyot bilan qay darajada oshno ekanligi bilan ham

¹ Абдурахмонов Ф., Шухуров Ш. *Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси*. Т., "Ўқитувчи", 1973, 106-бет.

² Уша манаба, 127-бет.

uzviy bog'liqdir. "Layli va Majnun"ning biz tahlil qilayotgan nusxasi-ning badiiyatiga nazar tashlansa, uning noma'lum muallifining iqtidoriga, ijodkorlik mahoratiga e'tiroz bildirish qiyin. Chunki ilgari qayd qilganimizdek, u, avvalo, A.Navoiy, M. Fuzuliy, Andalib va boshqa qator shoirlarning asarlaridan boxabar bo'lgan. O'z davrida istifodada bo'lgan adabiy tilni mukammal bilgan. O'z navbatida, arab va fors tillarini talab darajasida egallagan. O'zi xorazmlik bo'lganligi sababli doston leksikasida sheva so'zlariga ham o'rin bergan.

Doston ijodkori badiiy nutqqa sayqal berish uchun an'anaviy ifoda vositalarining barchasidan mahorat bilan foydalangan.

Dostonning muqaddimasi, xotimasi, voqealar bayoni jarayonidagi initsial formulalarning ishlatilishi, nazmdan nasrga ko'chishda ishlatiladigan stilistik vositalar yozma nusxalarda tarqalgan boshqa dostonlar bilan aynan bir xillik kasb etadi. Chunki yozuvga olingan dostonlarning barchasi muayyan bir rivoyaviy uslub doirasida shakllangan bo'lib, mazkur andoza asrlar bo'yi barqaror tarzda yashab kelgan.

"Layli va Majnun"ning muqaddimasi ham "Roviylar andog' rivo-yat qilurlarkim..." tarzida boshlanadi. Nasrdan nazmga o'tishda, "zor-zor yig'lab bir so'z aydi", "boz hushig'a kelib bir g'azal aydi", "Yig'lab bu marsiyani aydi", "bul javobni aydi" kabi stilistik iboralar ko'p qo'llanilgan. Ayrim o'rinlardagi dialoglarda "Savoli Layli", "Javobi Majnun" iboralari ham uchraydi.

Nasriy bayonda voqeadan voqeaga o'tishda ishlatiladigan: "Ammo emdi bir-ikki kalima so'zni Laylidin eshiting", "Emdi bular munda tursun, bir-ikki kalima so'zni Majnundan eshiting" kabi formulalarga murojaat qilingan. Doston finali ham ushbu toifa dostonlarga xos bo'lgan: "Timmat ul-kitob baavni malikul vahhob" iborasi bilan nihoyalangan.

Doston matnida saj elementlari ancha kam. Borlari ham qisqa shaklda ifoda etilgan: "ersa otasi bu abyotni eshitib, yuragiga o't tushib Majnunni axtarib ketdi" (197-bet). "Subh-u shom, balki almuldavom yig'lar erdi (192-bet). Dostonlarda saj, odatda, jo'shqin badiiy nutq hosilasi sifatida ro'yobga chiqadi. "Layli va Majnun" mungli va miskin nutqqa moyil. Saj elementlarining kamligi balki ushbu omil bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Dostonning nasriy qismida obraz portretlari tasviriga e'tibor ancha kuchli. Bu tasvirlar mubolag'a aralash samimiy ifodaga ega: "Ul qizlarning orosinda bir parivash qiz bor turur. Jamolig'a oftob rashk etar, bir turfa mahvash, zulflari chin-chin, halqa-halqa, qoshlari misli yoydek,

kipriklari misli o'qdek. Aningdek nozanin dunyog'a sira kelmagan (188-bet).

Ayrim o'rinlarda tabiat tasviriga alohida e'tibor qaratilgan: "Laylini sahrog'a olib chiqdilar. Ajab nozanin gullar ochilg'on, sunbul, rayhonlarning bargi sochilg'on. Xushbo'y islari Laylining dimog'iga kirib, Layli ishqiy ziyoda bo'ldi (203-bet).

Doston tilidagi ushbu o'ziga xosliklar, badiiy nutqdagi qissaxonlar ijrosiga moslangan uslubiy alohidaliklar uning tasviriy ifodalariga ham o'z ta'sirini o'tkaza olgan.

Asarda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalarining ifodaga tortilishida ham muayyan o'zgachaliklar ko'zga tashlanadi. Badiiy nutqning ifodaviyligini ta'minlashda eng faol ishlatiladigan badiiy tasvir vositalaridan biri o'xshatishlardir.

"Odamlar qadimdanoq tabiatan o'xshatishga qobiliyatlidirlarki, ular buni oz-ozdan taraqqiy ettira borib, badiha she'rlardan haqiqiy poeziyani yuzaga keltirganlar".¹

Ma'lumki, dostonlar tarkibidagi poeziya namunalari ham o'sha qadimgi badeha she'rlarning mukammallashgan bir ko'rinishidir. Biz tahlil qilayotgan dostondagi poeziya namunalari esa og'zaki ijrodagi dostonlar she'riyatiga qaraganda ham yanada mukammal holatga kelgan. Chunki qo'lyozma nusxa dostonlardagi nasr va nazm namunalari mumtoz adabiyotga xos an'analarni o'ziga ko'proq singdirgan bo'lib, ular tarkibida murabba, masnaviy, muxammas, g'azal kabi janrlar ham uchraydi. Ushbu she'riy janrlar mumtoz adabiyot talablariga javob beradi, o'z navbatida aruz qonun-qoidalariga ham bo'ysunadi. O'sha nuqtayi nazardan qaraganda ular tarkibida qo'llaniladigan badiiy tasvir vositalari ham yozma adabiyot an'analariga ancha yaqin keladi.

Albatta, bu dostonda ham o'xshatishlarning tub ko'rinishi -day, -dek qo'shimchalari orqali ro'yobga chiqadi:

Savson guli mayrilg'ondek,

Bu doqlari qayrilg'ondek,

Sevdigidin ayrilg'ondek,

Birga yonoyin zorlanib. (201-bet)

Bu misralarda Laylining hijron girdobidagi ayanchli holati o'xshatishlarning ketma-ket takrori orqali uchta qiyoslash vositasida yorqin tasvirga ega bo'lgan.

¹ Аристотел. Поэтика. Т., "Адабиёт ва санъат", 1980, 12-бет.

Dostonda berilgan o'xshatishlarda kabi ko'makchi so'zi orqali ifodalangan original o'xshatishlar ko'p uchraydi:

*Uchib keldi Layli lochin qush kabi,
Ko'rindi ko'zima go'yo tush kabi,
Aqlim ketdi ko'rgach, bir behush kabi,
Ko'nglim xayolim sulton ayladi. (220-bet)*

Layli bilan bir zum uchrashib, undan tezda ajralib qolgan Majnun tilidan aytilgan ushbu misralarda hijron o'tida kuygan oshiq qalbi iztiroblarini ta'sirchan ifodalashda uchta solishtirish orqali namoyon bo'lgan o'xshatish vositasi asosiy rolni o'ynagan.

Asar tarkibida ishlatilgan o'xshatishlarda mintaqaga xos lokal xususiyatlar tez-tez ko'zga tashlanib turadi:

*Maktabda aning birla bo'ldi hamdam,
Bir necha malak misol qizlar ham. (188-bet)*

Oxirgi misradagi "malak misol" birikmasi bu o'rinda "misli, go'yo" kabi ko'makchi so'zlar orqali yuzaga kelgan o'xshatish sifatida ko'zga tashlanadi. Bu birikmada o'xshatishni yuzaga keltiruvchi ko'makchi "misol" so'zida mujassamlashgan. Bunday holatni quyidagi parchada ham kuzatish mumkin:

*Ko'zing o'xshar yor ko'zina,
Tushubsan xo'blar izina. (199-bet)*

Ushbu misolda o'xshatish vositasi "o'xshar" so'zi orqali amalga oshirilgan.

O'xshatish vositasini shakllantirishda boshqa grammatik shakllardan ham foydalanilgan:

*Rahm qilmas bu g'arib bechoralarning holig'a,
Yuragi toshdin battar, ul mehribonim nozidur. (218-bet)*

She'rning ikkinchi misrasidagi "toshdin battar" birikmasi bu yerda "toshga monand" tushunchasi o'rinda qo'llanilgan. "Battar" orttirma darajasi esa undagi ma'noviy ohangni yanada yuksaklikka ko'taradi, oshiqning ma'shuqaga bo'lgan erkalash e'tirozini bo'rttirib ko'rsatadi. O'xshatishlar orasida shundaylari uchraydiki, ular o'z originalligi, o'sha o'rindagi voqeaga quyib qo'ygandek mos kelishi bilan alohida ko'zga tashlanib turadi. Majnun ishqida iztirob chekib, yorini ko'rishga orzu-mand bo'lib, gul sayliga chiqqan Layli o'zining darbadar kezib yurganini, seviklisini izlab topa olmay ovora ekanligini aytar ekan:

*Chiqdim, yorimni izlayub,
Sel kabi sargardon bo'ldim, (204-bet)*

iborasini ishlatadi.

Ushbu o'xshatish Laylining o'sha paytdagi ahvolini juda o'rinli ifodalaydi. Sel tog'dan toshib keladi, uning qayerga borishi noma'lum, qayerga borib to'xtashi ham mavhum, nima maqsadda oqayotganligini o'zi ham bilmaydi.

Layli ham sahroda gul sayliga chiqib Majnunni izlar ekan, nima qilarini, qayerga borishini, nimaga duch kelishini o'zi ham tasavvur qila olmaydi. Shu jihatdan olib qaraganda "sel kabi sargardon" bo'lish iborasidagi o'xshatish Layli taqdirini shunday ta'sirchan va yorqin ifodalaydiki, bunday original o'xshatishlarni har bir ijodkor ham kashf qila olmaydi. Dostonda sifatlashlar o'xshatishlarga qaraganda ancha keng doirada qo'llanilgan. Asardagi sifatlashlarning aksariyati ranglar bilan aloqador shu bilan birga ularning ko'pchiligi inson ruhiyati, xarakter-xususiyatini ifodalashga qaratilgan. Darhaqiqat, "epitet san'atkorning inson qalbini, buyumlar tabiatini, u yoki bu hodisani qay darajada idrok etishini belgilab beradi".¹

Rang bilan daxldor sifatlashlarda ularning ko'proq oq, qora, qirmini, yashil kabi turlari tilga olinadi. Bu ranglar orasida oq va qora ranglar, ayniqsa, faol epitetslar sifatida ko'zga tashlanadi. Chunki "...bu ranglar magik xarakterga ega. Shu sababli oq soqol e'zozli shaxs sanaladi. Qora rang, odatda, salbiy xususiyat tashisa-da, uning "kuchli", "qudratli" ma'nolari ham bor".² Dostonda oq rang ijobiy ma'noda istifoda etiladi. Majnun atrofidagi kiyiklarga murojaat qilar ekan, ularni "oq gulim" deb e'zozlaydi:

Tura turing, oq gulim,

Turinglar, xabarlashali. (199-bet)

Qora rang bilan aloqador sifatlashlar ancha ko'p va turli ma'nolarni o'z ichiga qamrab oladi.

Dostonda qora rang quyidagi ma'nolarda uchraydi:

1. Katta, qudratli, salobatli ma'nosida.

Qora tog'im, muncha faryod etarsan,

Bizga degil sirring sirdosh bo'lali. (198-bet)

Majnun tilidan aytilgan bu misralardagi qora tog' lirik qahramon uchun tayanch ramzida berilgan.

2. Go'zal, chiroyli, yoqimli ma'nosida.

¹ Озеров Л. Мастерство и волшебство. М., 1972, с. 354.

² Ибраев Ш. Некоторые аспекты исторического развития эпитета и его функции в "Книге моего дяди Коркута". Известия АН Казахстана серия филологическая. 1979, с. 18-26.

*Qaro ko'zli oq jayronlar,
Turinglar bir so'zlashali. (199-bet)*

3. Baxtsizlik, omadsizlik ma'nosida.

*Kezgan joying sahromudur, tog'mudur,
Qora bag'rim yor hajrinda dog'lidur. (213-bet)*

*Bosdi mani qora qayg'u,
Bir bistari xoringman. (217-bet)*

*Kecha ko'rdim Majnun jonim yotibdur,
Qaro ko'zi qora qong'a botibdur. (223-bet)*

Bu misollardagi "qora bag'ir", "qora qayg'u", "qora qon" birikmalarining barchasida g'am-alam, jabrdiydalik ohanglari o'zini namoyon qilib turadi.

Aslida oq yorug'lik, qora qorong'ulik ramzi sifatida idrok etiladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda qora rangning aksariyat hollarda salbiy ma'no tashishi ma'lum bo'ladi. Bu tushunchaning ildizlari juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ibtidoiy inson qorong'ulikda ko'p talofatlar ko'rgan. "...shuning uchun u qorong'ulikdan qo'rqqan. Bu qo'r-qish esa uning ongida qora rangni yovuzlik va dahshat ramzi sifatida shakllantirishga olib kelgan".¹

"Layli va Majnun" dostoni fojeaviy doston. Shu sababli uning matnida ishlatilgan sifatlashlar ham mungli xarakterda. Dostonning tarkibida, ayniqsa, she'riy qismida "buzuq tush", "yomon tush", "shum raqib", "shikasta hol", "miskin ona", "siniq ko'ngil" kabi sifatlashli birikmalar tez-tez uchraydi.

Shu bilan birga, qizil, yashil, ko'k ranglar bilan bog'liq ifodalanuvchi sifatlashlar ham mavjud.

Qizil rang ko'p hollarda qirmiz, ol kabi sinonimik so'zlar vositasi-da ro'yobga chiqadi:

*Qirmiz lablaringdan bo'llaring oqib,
Xush kelding Majnunim, sabo kelibsan. (214-bet)*

*Qaro ko'zim, siyoh zulfim shonasi,
Ol yanog'im, navbahorim kel emdi. (223-bet)*

Yashil rang ba'zan savson ko'rinishida ishlatiladi:

Savson guli mayrilg'ondek, (200-bet)

Sifatlashlarning rangdan boshqa so'zlar vositasida yuzaga kelgan

¹ Жуматова Н. Хозирги Ўзбек шеъринида ранг билан боглик рамзий образлар. Филология фан. номз. дисс. автореферати, Т., 2000, 9-бет.

turlari ham anchani tashkil etadi. Sifatlashlarning o'simliklar, ayniqsa, gullarga nisbatan berilgan namunalari alohida ko'zga tashlanadi:

Laylim chiqardi yo'l qarab,

Binafsha zulflarin tarab. (192-bet)

Ham yana nargis ko'zi, qoshi kamonim nozidur. (21-bet)

Bir ko'rib gul yuzlarin, diydora to'ymasdan burun, (228-bet)

Sochlarning binafshaga nisbat berilishida o'simlikning jingalak tarzda o'sishi va uzunligi nazarda tutilgan. Nargis ko'z va gul yuz esa go'zallik belgisi sifatida tanlangan. Doston mungli xususiyat kasb etishiga qaramay, unda sevgi sarguzashtlari bayon qilinganligi sababli yor go'zalligini ifodalovchi "shirin zabon", "pista dahan", "novcha budog'", "siym tan" kabi qator sifatlashlar asar tilini bezab turadi.

Shuningdek, ayrim o'rinlarda yor go'zalligini baholovchi sifatlashlar tizimidan iborat she'riy bandlar ishlatilgan:

Husning chaman, chashming zilol,

Jodu ko'zing, qoshing hilol,

Ishq ahli ziyoda go'zal,

Erursan armonim mening. (224-bet)

Dostondagi ushbu sifatlashlar o'zlarining rang barangligi, voqealar xarakteriga mos tanlanganligi, badiiy nutqqa alohida sayqal bo'lib qo'shilishi bilan kitobxon e'tiborini o'ziga jalb qiladi.

Dostonda mintaqaviy xarakterga ega bo'lgan, shu bilan birga, an'anaviylik kasb etuvchi simvolik ifodalar ham asar badiiyatini ta'minlashga safarbar etiladi.

Simvolik ifodalarning tarixi insoniyat hayoti qadar qadimiydir. Ibtidoiy davrda simvolik ifodalarga katta ahamiyat berilgan. Ba'zan sevgi-muhabbatni izhor etish simvolik sovg'a shaklida amalga oshirilgan.¹ Ayrim qabulalarda tut' qo'lgan ayol' erining qo'g'irchoq shakliga ishlangan simvolik shaklini uning ruhi sifatida bo'yninga osib yurgan.² Albatta, bu ko'rinishlar simvolik ifodaning ilk shakllanishiga oid masalalardir. Biz aytmoqchi bo'lgan poetik simvollar esa o'sha ibtidoiy shakllardan o'sib taraqqiy qilgan badiiy ifodalardir. "Layli va Majnun" dostonida bu badiiy vositaga katta ahamiyat berilgan.

Simvolik ifoda negizida ham o'xshatish hodisasi yotadi. Bir tomonlama metaforaga o'xshab ketadi. Lekin metaforada ikki predmet

¹ Косвен М.О. Ибтодоий маданият тарихидан очерклар. Т., "Фан", 1960, 147-бет.

² Колер И., Ранке И., Ратцель Ф. История человечества. Доисторический период. СПб., Политехн., 2003, с. 77-78.

qiyosi bir-biriga belgi jihatidan yashirin aloqaga ega bo'ladi. Simvolga qiyoslashda belgi o'xshashligi bo'lishi shart emas. Masalan, Laylining onasi Majnunga qizining dunyodan o'tganligini quyidagi simvolik ifoda orqali bildiradi:

Majnunim, san bo'lsang eshit zorimni,

Uyda shamchirog'im o'chdi, naylayin. (227-bet)

Ikkinchi misradagi "shamchiroqning o'chishi" birikmasi Laylining o'limiga nisbatan simvolik ifoda sifatida xizmat qiladi. Bu yerda belgi o'xshashligi ko'rinmaydi. Lekin shamchiroqning o'chishi bilan insonning dunyoni tark etishi masalasida ikki hodisa orasida ichki aloqadorlik mavjud.

Dostondagi simvollar obyekti, asosan, o'simliklar, qushlar dunyosidan tanlangan. Ayrim hollarda osmon jismlari tilga olingan. Asar ishqi sarguzasht tarannumiga bag'ishlanganligi sababli unda gul va bulbul asosiy simvolik ifoda darajasiga olib chiqilgan:

Bir gulning ishqida sen dod etarsan,

Bizga degil siring, sirdosh bo'lali. (198-bet)

Uyg'otmishsan g'ofil, g'anamlar elin,

Xayolingdur ko'rmak bog'ing bulbulin,

Ochilib qo'ydimay murodim gulin,

Avval bahorimni xazon aylading. (207-bet)

Birinchi misolda tilga olingan gul so'zi mahbuba ma'nosida kelgan. Bu ifodaning berilishi dostonida Majnun qalbidagi iztiroblarni yorqinroq ochib berish uchun imkoniyat yaratib bergan. Majnun tog' yonbag'rida turib "Layli" deb tovush berganda tog'dan ham "Layli", "Layli" degan aks sado eshilib turadi. O'sha ta'sir natijasida Majnun sen ham men kabi bir "gul"ning ishqida dod etar ekansan, deb uni sirdosh bo'lishga chaqiradi.

Ikkinchi she'riy parchada Layli monologi bo'lib, u o'zi-o'ziga "xayoling bog'ing bulbulini ko'rish"dir, deb Majnunga ishora qiladi.

Qushlar haqida gap ketganda ularning simvolik qiyofasi o'sha qushning qaysi toifaga aloqadorligi bilan belgilanadi. Shunqor yor, oshiq ma'nosida, to'ti ayol siymosida gavdalanadi. Layli lipillab yonayotgan chiroq bilan muloqotga kirishar ekan, uning ma'yuslik holatini o'ziga qiyoslab, sen ham shunqoringni yo'qotdingmi, deb savol beradi:

Shunqoringni uchurdingmu,

Nega yonarsan zorlanib. (201-bet)

Laylining onasi esa qizidan judo bo'lganligini bayon qilar ekan,

Laylini to'ti qush timsolida tilga oladi:

*Oldimda asrag'on to'ti qush erdi,
Ul qushim qo'limdin uchdi naylayin.* (227-bet)

Ayrim qushlar esa salbiy timsollar sifatida beriladi. Majnun Layli-ning Ibn Salom unashilganini eshitib yoriga ta'na qilib, bog'chaga zog'qo'nganini" baxtsizlik ramzi sifatida bayon qiladi:

*Bog'ila bog'chani beribsan zog'a,
Hajringda ko'zlarim do'ndi balog'a.* (208-bet)

Odatda baxt, shodlik haqida so'z ketsa bog'ga bulbul qo'nishi, baxtsizlik, omadsizlik ro'y bersa zog', qarg'a, quzg'unlar ramziy ifoda tarzida keltiriladi.

Asarda osmon jismlaridan yulduz ko'p hollarda baxt simvoli sifatida keltiriladi. Layli Majnunni "baxtim yulduzi" deb ataydi. Yomon tush ko'rib, Majnun taqdiridagi xatarni bashorat qilar ekan, uning o'sha iztirobi, she'riy misralarga ko'chiriladi:

*Xalifam, yo'liqdi menga bir mojaru,
Baxtim yulduziga chekmisham qaro.* (221-bet)

Xullas, asardagi simvolik ifodalar an'anaviy xarakter kasb etib, doston badiiyatida muhim o'rin tutadi. Xalq ijodiyotini mubolag'asiz tasavvur qilish qiyin. Chunki "...mubolag'a xalqimiz epik an'anasining qadimiy uslublaridan biri" bo'lib,¹ bu badiiy vosita "obraz yaratishning asosiy vositalaridan biridir".² Shu sababli dostonlar badiiyati haqida gap ketganda "mubolag'ani chetlab o'tib bo'lmaydi".³

Epos tarkibidagi mubolag'alar haqida maxsus tadqiqot olib borgan T.Zuparov mubolag'alarni tablig', ig'roq, g'uluv kabi turlarga bo'ladi.

Biz tahlil qilayotgan dostonda ham mubolag'aning ushbu uchta turida ko'zda tutilgan mezonlarga mos keluvchi namunalar uchraydi. Tablig' san'ati asosida yuzaga keluvchi bo'rttirishlar muayyan darajada aqlga muvofiq kelsa-da, hayotda bunday holatni kuzatish mumkin emas:

*Ko'kka chiqdi bu nolishim,
Kelmas bo'ldi Layli deb.* (192-bet)

Ig'roq shaklida ifodalangan bo'rttirishlarda tasvirni tasavvur qilish mumkin. Lekin u hech ham hayotda uchramaydi:

*Oh deganda kuydirurman chirog'ing,
Chekarman siynamda dardu firog'ing.* (207-bet)

¹ Мирзасев Т. "Алпомиш" дostonининг ўзбек вариантлари. Т. "Фан", 1968, 117-бет.

² Чичеров В.И. Русское народное творчество. Изд. МГУ, 1939, с. 245.

³ Селиванов Ф.М. Гипербола в былинах. Фольклор как искусство слова, изд. МГУ, 1975, с. 6.

G'uluv san'ati orqali ro'yobga chiqqan mubolag'alarni tasavvur qilib ham bo'lmaydi, hayotda ham uchramaydi:

O't chiqar og'zidin har oh urganda... (209-bet)

Dostonning nasriy qismida ham mubolag'aning har uchala turiga mos keluvchi namunalar uchraydi.

Tablig'. *Layli ko'z yoshini seldek oqizib holi o'zgacha bo'ldi.* (224-bet)

Ig'roq. *Og'zidin ko'pik, o't chiqar boshladi.* (208-bet)

G'uluv. *Nogoh bir mozordin Majnun, degan ovoz chiqdi.* (228-bet)

Albatta, bunday toifadagi mubolag'alar boshqa dostonlarda ham uchraydi. Lekin ushbu dostonda mubolag'alarning tasvirlanishidagi til uslubi o'zgacha xarakter kasb etadi.

"Layli va Majnun" dostonining mazkur variantida tazod san'atiga mansub namunalarga ham e'tibor kuchli. Tazod san'ati, voqealarni o'zaro zidlash va shu asnoda masalaning asosiy mohiyatini ochib berishda istifoda etiladi. Aslida har qanday asar sujetini tashkil etuvchi voqealar ham o'zaro qarama-qarshilik, konflikt asosida ro'yobga chiqadi. Shu sababli tazod usuli "...katta badiiy shakllarda sujet hosil qiluvchi, kompozitsion va stilistik usul bo'lib hisoblanadi,¹ deya ta'kidlangan. Ammo biz bu yerda asar she'riyatidagi ayrim tazod san'atiga daxldor usullarga to'xtalib o'tamiz.

Dostonning she'riy qismlarida bu usulga asosiy e'tibor qaratilgan. Bu usul turli o'rinlarda turlicha obyektlar orqali namoyon bo'ladi.

1. Insonlar o'rtasidagi munosabatlarga tegishli tushunchalar orqali zidlash:

Oshiq bo'lg'on kishi sabr etib kezar,

Xoh yaxshi, xoh yomon jabrina do'zar. (203-bet)

Yosh edim, bilmadim do'st-u dushmani. (189-bet)

2. Insonning chehra qiyofasini zidlash:

Yosh bola xushro'yni, badro'yni na bilur. (188-bet)

3. Ijtimoiy tabaqa vakillari mavqeyini zidlash:

Bir martabada turmas emish shoh bila darvesh.

4. Zidlashda harfiy iboralardan foydalanish:

Alifdek qomati doldek bukilur. (223-bet)

Tazod sanatida asardagi obrazlar kayfiyatini, ruhiy iztiroblarini ochib berishda asosiy ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Yuqorida mi-

¹ Морозова Л.А. Антипеия в пословицах. Фольклор как искусство слова, изд. МГУ, 1975, с. 96.

sollarda ezgulik va yovuzlik, go'zallik va xunuklik, boylik va kambag'allik, xushchaqchaqlik va tushkunlik kabi tushunchalar turlicha qarama-qarshi ma'noli so'zlarni keltirish orqali yoritib berilgan. Dostonda sintaktik resurslarga alohida e'tibor berilgan.

Ma'lumki, sintaktik resurslarning eng qadimgi turlaridan biri anaforalardir. Dostonda uning eng mukammal ko'rinishlari uchraydi:

Salom, ey nuri chashmim podshohim,

Salom, ey padarim nuri ollohim,

Salom, ey sarvari xurshidi talhat,

Salom, ey gavhari daryoi iffat.

Salom, ey nuri chashmim podshohim,

Salom, ey taxti sarvim podshohim,

Salom, ey otayi munis xazinam,

Salom, ey dilnavozim, toj-u taxtim. (216-bet)

Majnunning otasiga yozgan ushbu maktubida uning qalbidagi mehr-muhabbat o'ynoqi va samimiy satrlarda jilolanib turadi. She'rdan anaforalarning ohangdorlikni ro'yobga chiqishi bilan birga ularning takrorlanishi farzandning otasiga bo'lgan cheksiz hurmat-e'zozini ham bo'rttirib ta'kidlagan holda ifoda etadi.

Doston she'rlari orasida epiforaga asoslangan misralar ham anchani tashkil etadi. Layli o'lim to'shagida yotar ekan, Majnunni huzuriga taklif etadi. O'z seviklisi bilan vidolashar ekan, ushbu visol damlaridan mast bo'lib, Majnunni ta'rif qilib, bir muxammas o'qiydi. Muxammasdagi epiforalar misralarning ohangdorligini kuchaytirib, Layli qalbidagi jo'shqin ruhiy iztiroblarni tasvirlashda muhim rol o'ynaydi:

Xo'blar ichinda bir xush donosan, ollo hay-hay,

Yoz-u qishin ochilg'on ra'nosan, ollo hay-hay,

Boshdin oyog'i zebo ra'nosan, ollo hay-hay,

Bir Yusufi zamona mirzosan, ollo hay-hay,

Na bo'lg'ay o'z qo'lingda bersang mango piyola? (226-bet)

Doston tarkibida bir necha g'azallar berilgan. Ularning barchasi badiiy jihatdan mukammal ishlangan. Ayrim g'azallar ichki qofiya asosida ohangdor va o'ynoqi bitilgan:

Majnun oshiqi ziyoda, kezar cho'llarda piyoda,

Layli jonim, deb dunyoda, mashhuri e'tibor ermish.

Ko'rdi bir oshiq navbatin, chekdi jahonning kulfatin,

Behol chekar oshiq mehnatin, yuragi dilafkor ermish. (204-bet)

Bu kabi she'riy parchalar doston tarkibida ko'plab uchraydi. Shuni ta'kidlash kerakki, doston ijodkori mumtoz she'riyat sirlarini yaxshi tushunadi. Shu sababli asardagi g'azal, muxammas kabi mumtoz adabiyotga daxldor she'riy shakllar ancha mukammal bitilgan. Ba'zilarida ayrim saktaliklar uchraydiki, bu holat qo'lyozmani qayta ko'chirish jarayonida sodir bo'lgani ehtimolga ancha yaqin. Chunki, dostondagi aksariyat she'riy parchalar o'zining teran ma'noliligini, ixcham badiiy nutqqa asoslanganligi, saktalikdan holi ekanligi bilan ajralib turadi.

Dostondagi she'riy parchalarning asosiy qismi murabbalardan iborat. Murabba tipidagi she'rlarning aksariyatida radif vazifasini bajaruvchi ko'makchi so'zlar ishlatilib, ohangdorlik, o'ynoqilik, ta'sirchanlik xususiyatlarini hosil qiladi:

*Guldin mango tuto bilmay,
Raqiblardin o'to bilmay,
Dod etarman yeto bilmay,
Majnunimg'a zor ayladi. (206-bet)
Kecha-kunduz fig'on aylab,
Yer-u ko'kni osmon aylab,
Sirrin eldin pinhon aylab,
Ul anda yig'lar, man bunda. (215-bet)*

Binobarin, dostonning she'riy qismi o'zining mukammalligi, badiiy-estetik tomondan yuksakligi, ifodaviy vositalarga boyligi, aruz vazni qoidalariga mosligi bilan ushbu toifadagi boshqa dostonlardan farq qilmaydi. Undagi masnaviy janri esa Xorazmda tarqalgan boshqa dostonlarda deyarlik uchramaydi.

3.2. Og'zaki variantda baxshi mahorati

Bulung'ur dostonchilik maktabining so'nggi talantli vakili Fozil Yo'ldosh o'g'li hisoblanadi.¹ Fozil shoir o'zbek dostonchiligining eng ko'zga ko'ringan iste'dodli namoyandasidir. Uning repertuarida qirqdan oshiq doston bo'lgan.

Folklorshunos U.Jumanazarov o'zining shoirga bag'ishlangan kitobida baxshidan yozib olingan 30 ta dostonning va yozib olinishi lozim bo'lgan 11 ta dostonning ro'yxatini keltiradi.²

¹Раззоков Х., Мирзаев Т., Собиров О., Имомов К. Узбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Т., "Ўқитувчи", 1986, 199-бет.

² Жуманазаров У. Эл суйган бахшларнинг эгик олами. Т., "Фан", 2008, 20-бет.

Talantli baxshi haqida ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Uning 100 yillik to'yiga bag'ishlab chop etilgan kitobda baxshi haqida yozilgan 363 ta tadqiqotning nomlari keltiriladi.¹ Biroq bu tadqiqotlarning birortasida ham "Layli va Majnun" dostoni haqida so'z yuritilmasdan, faqat asarning nomi tilga olinib o'tiladi. Ushbu doston haqidagi mulohazalalar faqat N.Mallayevning ishlarida ko'zga tashlanadi. Bu haqda yuqorida aytib o'tdik.

"Layli va Majnun" dostonining Fozil shoir varianti yuksak badehago'ylikning yorqin namunasi.

Unda og'zaki dostonlarga xos saj usuli o'zini tez-tez namoyon qilib turadi. B.Sarimsoqov saj haqida so'z yuritarkan, uni badiiy san'atlardan biri sifatida baholaydi. Saj turlarining folklorda qo'llanilishini esa uch turga bo'ladi.²

1. To'liq saj (saj mutavoziy) Bir yoki bir necha gaplar turkibidagi ayrim bo'laklar ham vaznda, ham harfi raviyda mos bo'ladi.

Bu toifa saj elementlari "Layli va Majnun"da anchagina topiladi. Laylining husni-kamolini, Oyday to'lgan jamolini eshitib, o'g'limga olib bersam, deb yurgan edi (12-bet). Kichkinagina to'y olib kelsa, unga yarasha qo'y olib kelsa... (14-bet).

2. Qofiyali saj (saji mutarraf). Bir yoki bir necha gapdagi ayrim bo'laklar vaznda emas, faqat raviydagina mos bo'ladi. Majnun Laylining bu so'zini eshitib, ko'nglini xushlab, ko'zini yoshlab, boshidagi laylak uyalarini buzib tashlab... (26-bet). Otini ushlab, otdan tushirib, makon joyga boshlab, ostiga libos tashlab, ko'nglini xushlab, dasturxon yozib, oldiga taom tashlab, xush keldingiz mehmonlar, deb o'tirdi (39-bet).

3. Vazndosh saj (saji mutavozin). Bir yoki bir necha gapdagi ayrim bo'laklar ham vazn bo'lib, raviyda mos bo'lmaydi.

Uyga o'zimni urayin, yo o'ldirayin, yo o'layin, bu ishni bir yoqli qilayin. (36-bet)

Meni tashlab, o'z ko'nglingni xushlab ketding. (57-bet)

Bu ishlar ham o'tar, ko'nglida bo'lsa, bitar. (19-bet)

Saj usuli Fozil shoir variantida faol ishlatilgan. Bu esa asarning badiiy nutqdagi evfonik jarangdorligini ta'minlay olgan.

Baxshi, asosan, qahramonlik dostonlarini kuylab yurganligi sababli

¹ Фозил шоир. Т., "Фан", 1973, 182-191-бет.

² Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. "Фан", 1978, 18-19-бет.

“Layli va Majnun” romanik xarakterda bo‘lishiga qaramasdan, uning tarkibida stilistik formulalar o‘z tuzilishi jihatidan qahramonlik eposiga xos tasvirlarni o‘z jismiga singdirgan:

Mergan otar dayrabotning g‘ozini,

Kuchuk bosmas, yo‘lbars, sherning izini. (16-bet)

Bedov minsang baland-pasiga chopilar,

Ko‘nglingda maqsading sening topilar. (35-bet)

Botir urushda havasda,

Bosh kesilib chaparasta. (46-bet)

Ushbu xarakterdagi jangavor misrali formulalar, asosan, Novpaling Layli qabilasiga boshlagan urush sahnasidan o‘rin olgan. Dostonda baxshi mahalliy so‘zlashuv nutqiga aloqador ko‘plab sheva so‘zlaridan ham foydalangan: og‘ru – kasal; ulgi–andoza; zinkiyib – tikka turib; ong – ov; jaynab – qaynab-toshib; irkilib – kechikib; iyarib – ergashib; elikmay – o‘rganishmay; shobir – harakat, intilish; ulim – o‘g‘lim; qavosat–vajohat va boshqalar. Shuningdek, shevaga xos so‘z birikmalari ham ko‘plab uchraydi: og‘iz yengil – sir saqlay bilmaslik; pasot so‘z – g‘iybat; shaka – man mergan – katta kamandlik ovchi; odam tuxmi – odam zoti; yebi – yesir–yetim–yesir; dasta-dasta odam-to‘p-to‘p odam kabilar.

Fozil shoir j-lovchi sheva vakili bo‘lganidan o‘sha shevaga xos bo‘lgan: mushki jipor, jilovuq, juvonmaydi kabi ko‘plab so‘zlarni ham ishlatgan. Ushbu nuqtayi nazardan qaraganda doston leksikasi tom ma’noda og‘zaki nutq mahsulidir. Bunday deyishimizga sabab shuki, Xorazm dostonlarining og‘zaki variantlarida ham kitobiy so‘z va iboralar uchrab turadi.

Fozil shoirning dostonidagi badiiy nutqida kitobiy uslubning ta’siri ko‘rinmaydi. Dostonidagi badiiy tasvir vositalarining tuzilishida ham og‘zaki badiiy nutqqa xos ko‘tarinki tasvir o‘zini namoyon qilib turadi.

Baxshi tanlagan o‘xshatishlarda ko‘makchi so‘zlar juda kam. Uning nutqida, asosan, *-day* qo‘shimchasi qo‘llanilgan. Holbuki, Xorazm dostonlarida *kabi, singari, yanglig‘, misoli, go‘yo, monand* kabi ko‘makchi so‘zlar yordamida yasalgan o‘xshatishlar ustuvorlik qiladi. Bu, albatta, yozma adabiyotning ta’siri sifatida baholanadi. Fozil shoir nutqida bunday holat kuzatilmaydi. Shoir baxshi o‘xshatish obyektlarini turli manbalardan izlaydi. U Jumanazarov Fozil shoir repertuaridagi dostonlarda ishlatilgan o‘xshatish manbalarini beshta guruhga bo‘ladi.¹

¹ Жуманазаров У. Эл суйган бахшнинг эпик олами. 58-бет.

"Layli va Majnun" dostonida ham baxshining o'xshatish vositalari-ni tanlashida o'sha holat ko'rinadi.

1. Tabiat hodisalari bilan bog'liq o'xshatishlar.

Birga yurgan sanam bo'lib,

Ikki yuzi oyday to'lib. (4-bet)

Oyning qabatida cho'lpon yulduzday bo'b, ko'zlari jamol yuzlari bilinardi. (28-bet) -day qo'shimchasining -dayin shakli ham ishlatiladi:

Quvondim aytgan so'zingdan,

Oydayin to'lgan yuzingdan. (62-bet)

Bu mardlar daryoday toshib. (46-bet)

Layli ham ul o'tday yonib. (53-bet)

Turli hayvon va parrandalar nomlari bilan aloqador o'xshatishlar:

Quralayday ko'zlaring. (29-bet)

Sen kelibsan qo'yday bo'lib. (61-bet)

Layli bulbulday sayrab, ko'ngli ochildi. (81-bet)

Parvonaday aylanardi boshimdan. (73-bet)

Qurol-yaroqlarga daxldor o'xshatishlar:

Hamoyilday soya solib,

Kelib mening holim so'rsa. (8-bet)

O'simliklarga aloqador o'xshatishlar:

Sarg'aymasin, gulday yuzim

Qo'limdadir Layli qizim. (40-bet)

Dostonda ikki joydagina o'xshatishlar ko'makchi so'zlar vositasi-da ro'yobga chiqqan:

Qagrus kabi kuyib-yondim,

Men kuyib endi o'rtandim. (29-bet)

Misli asov toyday bo'lib. (61-bet)

O'xshatishlarning -dek qo'shimchasi orqali yasalgan shakllari Fozil shoir variantida uchramaydi. Darvoqe, o'zbeklarning qipchoq lahjasi vakillari nutqida, asosan, -day, o'g'uz lahjasi vakillariga mansub baxshilar og'zaki nutqida -dayin, -diyin qo'shimchalari o'xshatish vositasini yuzaga keltirishda juda faol ishlatiladi.

Baxshi nutqida sifatlash usuliga alohida e'tibor qaratilgan. Doston-dagi sifatlashlar ko'proq go'zallik tushunchasini ifodalashga safarbar qilingan. Bu ifoda manbalarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

1. Noyob metallarga nisbatan berilgan sifatlashlar:

Har kimga aylanib kelar,

Oltin kosa, shunday davron. (41-bet)

Novpal tortar tilla karnay
Alomatli bu ajab joy. (46-bet)

2. Ranglarga aloqador sifatlashlar:

Enam deb axtarib kelib,
Oq sutimni hurmat qilib. (67-bet)
Bari mingan bir bedov ot ustiga,
Kiyik yurar qora tog'ning pastida. (31-bet)

Sifatlashlarning rang bilan aloqador turlari go'zallik tushunchasini ifodalashda noyob metallarning ko'rinishiga nisbatan berilgan tasvirlar ishlatiladi:

Majnunga yaxshi zarbof liboslar kiygizib, qimmatbaho zarrin das-torlar o'ratib, sopi oltin qilichni beliga bog'latib... (43-bet).

Shu narsa e'tiborni tortadiki, badiiy nutqda poetizm ruhini yuzaga keltirish uchun o'zlashma so'zlarga ko'proq murojaat etiladi. Ushbu mi-soldagi "zarbof libos", "zarrin dastor" birikmalari oddiy so'zlashuv nut-qida "yaltiroq kiyim", "sariq salla" kabi ma'nolarni bildiradi. Ushbu bi-rikmalar o'rniida o'zlashma iboralarni qo'llash nutqqa muayyan darajada ko'tarinkilik baxsh etadi va sayqal beradi.

1. O'simliklarga daxldor sifatlashlar:

Telmursin nargis ko'zim,
Qo'limdadir Layli qizim. (40-bet)

Baxshi nutqida ba'zan so'zlashuv nutqida uchraydigan so'zlar si-fatlash o'rniida istifoda etiladi. Shoir tez-tez "toza" so'zini qo'llaydi:

Ketar edi munda zulm,
Bog'da ochilgan toza gulim. (21-bet)
Men yuribman oq sut bergan bolam deb,
Tog'larda ochilgan toza lolam deb. (21-bet)

Baxshi bu so'zni "yangi" ma'nosida qo'llaydi va amallar go'zallik-tasvirini yaratishda foydalanadi.

Dostonda inson ruhiyatini, kishilar xarakterini ochib beruchi, sal-biy ma'no anglatuvchi sifatlashlar ham mavjud:

Agar pasot so'z so'zlasa,
Esingdan chiqmas armondi. (6-bet)
Oshiqlar maqsadga yetar,
G'arib ko'nglingni shod etar. (79-bet)

"Pasot" aslida fisqu fasod birikmasidagi keyingi so'zning shevada aytiladigan shaklidir. Uning "Pasot so'z" sifatidagi ko'rinishi ig'vo, g'iybat ma'nosini anglatib, o'sha joydagi ma'noni kuchaytirgan holda

bayon etadi. "G'arib ko'ngil" esa Majnunning g'amgin hayotining birdan yaxshi tomonga aylanib ketishiga ishoradir. Shuningdek, dostonida "Po'lat nayza", "Qizil qon", "Oltin bayroq", "Shirin so'z" kabi sifatlashlar ham o'z o'rni bilan qo'llanilib asar tiliga sayqal berishda muhim omil bo'lib xizmat qila olgan.

Dostonida mubolag'alarga keng o'rin berilgan.

Mubolag'a xalqimiz epik an'analarining qadimiy uslublaridan biri bo'lib, folklorda, xususan, eposda yozma adabiyotdan farq qiladigan xususiyatlari bor.¹ Bu xususiyatlar mubolag'alarning ko'pligi va ulardagi bo'rttirish usulining o'ta yuksakligidir.

Baxshi o'z asari voqealari davomida Layli va Majnunlar ishqining nihoyatda yuksakligini ochib berish uchun obrazlarning qalbidagi ruhiy bo'hronlarni o'ta mubolag'ali qilib tasvirlaydi. Baxshi Majnun Laylini ko'rish orzusida yurib cho'ponga yo'liqqanini shunday tasvirga oladi: "Cho'pon qarasa, buning tutuni badanidan osmonga chiqib borayapti, ko'zlari o'tday yonib turibdi" (59-bet).

Baxshi Majnun haqida so'z yuritganda uning ruhiyatiga nisbatan ko'proq o't so'zini o'xshatish vositasi sifatida tanlaydi:

Endi darkor emas menga,

O't tutashib aziz tanga. (75-bet)

Xuddi shu tasvirni Laylining ruhiyatini ochishda ham qo'llaydi: "Layli ota-enasiga dardini yormas edi. O'z havonida oh tortsa, og'zidan chiqqan tutun yonayotgan o'tday chiqar edi (79-bet).

Qurib tanimda darmonim,

O'tga yonib ustixonim.

Majnun ishqida dod etib,

Chiqayozdi shirin jonim. (77-bet)

Baxshi ikkala sevishtan qalbdagi ishqni o'tga qiyoslaydi. Bu muqoyasa an'anaviy mubolag'aga daxldor bo'lib, yozma adabiyotda ham ishq bilan otash yonma-yon yuradi. Og'zaki nutqda esa o't-olov ishqiy mubolag'ada eng ustuvor o'xshatish vositasidir.

Ba'zi o'rinlarda Majnunning hijron girdobiga tushishi mubolag'a usulida tasvirlanadi:

Tushib boshga judolikning savdosi,

Tinmay oqar ikki ko'zdan jalasi. (70-bet)

Hajrinda iztirob chekayotgan Majnun Laylidan noliqlari ham

¹ Мирзэев Т. "Алломнаш" дostonининг ўзбек вариантлари. Т., "Фан", 1968, 117-бет.

mubolag'aviy usulda bayon etiladi:

*Layli edi mening vafoli yorim,
G'amzasi jon olar, ko'zlari zolim,
Yolg'izlikda zabun bo'ldi ahvolim.* (64-bet)

Binobarin, dostondagi badiiy nutq jarayonida mubolag'alarga ko'p ahamiyat qaratilgan. Ayrim hollarda qahramonlik eposidagi tasvirlarga monand bo'rtirishlar ham qo'llanilgan:

*Dushmanga kelar quvvating,
Tog'ni nuratar g'ayrating,
Dushman kelsa, ko'kka oting,
Olamni tutar sifating.* (68-bet)

Baxshi Majnunning ahvoli tasvirida fantastik bayonga asoslangan mubolag'alarni ham qo'llagan: "Bahor – ko'klam vaqti bo'lib, yil aylanib, Hindiston ketgan qushlar kelib, buning qimirlamay turganini ko'rib, boshiga laylaklar uya solib, necha marta bola ochib, uchib, chiqarib yurdi (24-bet).

Dostonda an'anaviy ramziy tasvirlar ham anchani tashkil etadi. Baxshi qo'llagan ramzlar oshiq va ma'shuqa qiyofasini gavdalandirishga safarbar qilingan bo'lib, an'anaviylik kasb etadi. Unda eng faol ishlatiladigan ramziy ifodalar gul bilan bog'lanadi. Majnunning do'stlari unga Laylidan uzoq yurishni maslahat berishadi:

*Yaqinlama, turgan gulga,
O'zing yurgin to'g'ri yo'lga.* (6-bet)

Ular gul ramzi orqali Laylini nazarda tutishadi. Ba'zan Majnunning o'zi ham sevgilisini gul ramzi orqali tilga oladi:

*Qizil guldi (r) g'unchasida so'lmasin,
Meni topmay, munda abgor bo'lmasin.* (25-bet)

Oshiq, asosan, bulbul ramzida namoyon bo'ladi. Baxshi Layli va Majnunlar taqdirini optimistik ruhda nihoyasiga yetkazar ekan, ularning birini gul, ikkinchisini bulbul qiyofasida gavdalandiradi:

*Oshiqlik ishini bunda bitkazib,
Bulbul sayrar o'zin gulga yetkazib.* (84-bet)

Baxshi nutqida gajakdor, jig'ador kabi ramzlar ham uchraydiki, bu ifodalar aksariyat hollarda Fozil shoir kuylagan qahramonlik dostonlarida uchraydi.

Majnun Laylini goh gajakdor, gohida esa jig'ador tarzida tilga oladi:

Ketar ko'ngildan g'ubori,

Qaysning shunday gajakdori. (4-bet)

Oti Layli jig'adorim,

Sevikli hamdamim yorim. (58-bet)

Shuningdek, dostonda qo'zim, lolam kabi ramziy ifodalar uchraydi:

Qiyomatli kunlar ko'rdim,

Qo'zim, sendan ayrilgani. (66-bet)

Tog'da bitgan bu sevikli lolam, deb,

Ahvoling na bo'ldi, jonim bolam deb. (11-bet)

Umuman olganda, dostondagi ramzlar, asosan, romanik dostonlar ruhiga monand tarzda tanlangan. Ular asardagi badiiy bo'yoqdorlikni ta'minlashda, baxshi nutqining badiiy-estetik ta'sirchanligini yuksaltirishda muhim ifodaviy vositalar tarzida xizmat qiladi. Dostonda tazod usulini qo'llash orqali badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashi xususiyati mavjud.

Epik asarlarda har bir obraz ijobiy va salbiy toifalarga ajratiladi. Keyinchalik bu obrazlarning har biri o'z qiyofasini qilayotgan ishlarida, hatto nutqlarida ham namoyish qila boradilar.¹ Mana shu nutqlarda bayon qilinadigan fikrlar mazmunida ikki o'zaro qarama-qarshi tipning qiyofalari tazod usuli orqali ro'yobga chiqa boradi.

"Layli va Majnun" dostonida Laylining otasi nutqi bilan Majnunning otasi nutqi o'zaro zid tarzda ko'zga tashlanadi.

Majnunning otasi Laylini so'rab, unga sovchi yuboradi. Shunda Laylining otasi sovchiga qarab: "Majnunni tentak desa, sen undan ham o'tgan tentak ekansan. Dunyoda odam qurib, mening qizimga sen bir aqli yo'q ahmoqni topib keldingmi?" – deb uni haqoratlab tashlaydi. Sovchi esa joni xalqumiga kelib, bu gaplarni Majnunning otasiga yetkazadi. Hatto unga: – Ey o'g'lingni uylantirmay o'l, – deb do'q uradi.

Shunda Majnunning otasi bag'ri kenglik bilan:

– Qizi borning nozi bor, – degan. Sovchilikning sha'ni shunday bo'ladi. Gap eshitadi, gap eshitmagan kishi sovchi bo'lmaydi. Qizni kim aytmaydi, qimizini kim ichmaydi, – degan gaplar bor. Yana borganingda yuvashib qoladi, deb bosiqlik bilan javob beradi. Ikkita yoshi ulug' kishining nutqidagi bir-biriga mutlaqo nomutanosib holat ularning xarakteridagi asosiy nuqtalarni ochib beradi. Bu obrazlar o'rtasidagi zidlash usulining hosilasidir.

¹ Водерникова Н.М. Антитеза в волшебных сказках. Фольклор как искусство слова. М., МГУ, 1975, с. 67.

Dostonning she'riy qismida aksariyat hollarda voqealar tazod usuli orqali ochib beriladi.

Majnundan Laylini ajratib qo'yishgandan so'ng u ahvolini bayon qilar ekan, qalbidagi o'y-fikrini, o'rtalarida yuz bergan ayriliqni ifodalashda tazod usulidan foydalanadi:

*Oshiq xalqi kuyib-yongan,
Ko'ngli yaqin, o'zi uzoq.*

Laylining otasi hakimdan qiziga sovchi kelganda o'zini u bilan teng qo'yib so'zlaydi, qiziga kelgan sovchiga buni ta'kidlash uchun tazodga murojaat etadi:

*O'zini mard, bizni nomard bilmasin,
Gapimni ko'ngliga og'ir olmasin. (15-bet)*

Layli o'z monologida ko'nglidagi chuqur iztiroblarning cheksizligini bayon qilar ekan, bu joyda ham tazod usuli qo'l keladi:

*Ko'p yig'ladim kecha-kunduz,
Majnunim yo'q, o'zim yolg'iz. (55-bet)*

Baxshining mahorati shu yerdaki, u og'zaki nutqning barcha imkoniyatlaridan samarali foydalanadi.

Novpalning Laylining otasi bilan jangi sahnasi juda yaxshi ishlangan. Baxshi qahramonlik dostonlariga xos morfologik resurslardan foydalanib, voqealarni, harakatlarni ta'sirchan ifodalaydi:

*Botirlar qaytmayin turar,
G'ayratimni ko'r-ha, deyishib,
Talab qilsang, kel-ha, deyishib,
Agar qaytsang o'l-ha, deyishib. (46-bet)*

Bu misralardagi og'zaki nutqqa xos "ko'r-ha", "kel-ha", "o'l-ha" so'zlarning "deyishib" takrori bilan birga kelishi o'ziga xos ohangdorlikni yuzaga chiqarishidan tashqari, botirlarning ijang jarayonidagi harakatlarini ham jonli ifodaga tortadi.

Askarlarning jang manzaralarini tasvirlashda juft so'zlarga murojaat qilinadi:

*Shu vaqtda saf-saf bo'lib,
Katta-kichik to'p-to'p bo'lib. (46-bet)*

Yoki:

*To'sat-to'sat yo'lga tushib boradi,
Botirlar urushni havas qiladi.
Jo'nayotir chapar asta,
Yo'lga tushib dasta-dasta. (43-bet)*

Ushbu tasvirda og'zaki badiiy nutqqa xos tilning turli resurslariga murojaat qilish doston leksikasini yanada boyitib, uning xalqchilligini, ta'sirchanligini oshirgan. Asarning ijro jarayonida tinglovchiga tushunarli bo'lishini taminlagan.

She'riy parchalar, asosan, 7, 8, 11 bo'g'inli vaznlarda yaratilgan:

Yig'lama Majnun jonim, =7

Layliga seni uchratay. =8. (53-bet)

Ne polvonlar yakka-yakka, =8

Tutuni ketsin falakka. =8. (45-bet)

Hozir xafa ko'zdan to'kib yoshini, =11

Ko'tarsa farzandim bundan boshini. =11 (51-bet)

Sevgini bayon qilish, turli lirik kechinmalar asosan 7–8 bo'g'inli vaznda, epik tasvirlar aksariyat holda 11 bo'g'inli vaznlarda yaratilgan. Qofiyalanish tartibi o'zgarib turadi. Ba'zi hollarda bandlarga ajratilgan ruboiy yoki murabbaga o'xshash qofiyadagi she'riy parchalar ko'zga tashlanib qoladi:

Ayriliq qattiq alomat,

Bo'lg'in hamisha salomat,

Yaqin kelib sen so'z aytma,

Xalq qilar bizni malomat. (5-bet)

Binobarin, doston badiiyatida baxshining yuksak mahorati o'zini namoyon qilib turadi.

3.3. Dostonning Umar Boqiy variantida adib mahorati

“Layli va Majnun”ning Umar Boqiy varianti o'zining muallifiga ega bo'lishidan qat'iy nazar, xalq varianti sifatida baholanadi. Chunki asarning asl xususiyatlari va bayon qilish uslubi qo'lyozma nusxalarda tarqalgan xalq dostonlarinikidan deyarlik farqlanmaydi. Biroq bu variantda qur'on oyatlaridan tanlab voqealarga mos joylarda matnga kiritib yuborilgan. Shuningdek, anchagina arabiy, forsiy o'zlashmalarga oid murakkab so'zlar uchraydi. Bir so'z bilan aytganda, matnda Umar Boqiyning til bilish salohiyati o'zini namoyish qilib turadi. Jumladan, asar matnida mutavajjih, afhol, munqatah, tarahhum, muqotala, payg'om, muazzam, mukarram kabi arabcha, otash, go'sha, siporish, tirboron, obdor, ko'h, bisyor, sad chandon kabi forscha so'zlar xanjari obdor, otashi ishq singari izofalar ko'plab uchraydi.

Adib o'z asarida shevaga xos so'z va iboralarga ham murojaat qil-

gan. Masalan, "qo'zgalmoq" so'zi asarda "qo'pmoq" tarzida berilgan: "Darhol o'rnidin qo'pdi" (8-bet). "Birdan" so'zi o'rniga, "sachrab", "kichik" so'zi ma'nosida "ushoq" so'zi ishlatilgan: "o'rnidin sachrab qo'pdi" (12-bet): "Ushoq bolalar" "jinni", deb tosh otar erdilar" (10-bet).

Umar Boqiy doston sujetini nasriy bayon qilish jarayonida xalq ijodiyotiga xos ko'plab usullardan unumli foydalana olgan. Asarning tarkibida saj usuliga tez-tez murojaat qiladi: "Ul nazokat bo'stonining navni holi va Eram bog'ining sohib jamoli, husn iqlimining Shahsuvori, latofat xalqining tojdori parivashg'a... basad salom" (26-bet).

"Ey ishq dashtida yagonai zamon va muhabbat vodiysida nodirayi davron..." (34-bet).

Adib voqealar tasviri jarayonida obrazlar ruhiyati va kechinmalari ta'sirchan ifodalash uchun mubolag'aviy ifodalarni qo'llaydi:

"Yuz ming nola va tazarru birla bu kechani yoritdi" (5-bet).

"Bular ko'rdilar, bisyor parishon bo'lib, nola va afg'on qo'pordilar" (6-bet).

"Bu asnoda Majnun uyida tanho qolib erdi va yana Laylini firoqida beorom va betoqat bo'lib, ko'zlaridan daryolar ravon bo'ldi. Oh tortdi, behudona boshini urib, biyobon tarafig'a ravon bo'ldi" (28-bet).

Umar Boqiyning bayonida o'ziga xos tasvirlar uchrab turadi. Masalan, yuqoridagi misolda "kechani yoritdi" birikmasini "tongni otqizdi" ma'nosida qo'llaydi.

Xuddi shunday tasvirni quyidagi jumlada ham ko'rish mumkin:

"Ammo Qaysni otashi ishq bisyor bechora qildi. Beqaror va beorom bo'lib, Laylini yodida kunduzni kechaga yetkurdi" (7-bet).

Bu misolda ham adib "Kun bo'yi", "ertadan kechgacha" tushunchalarini o'ziga xos tarzda bayon qilgan. Ijodkor nasriy bayonni bo'yoqdor nutq vositasida amalga oshirish uchun tashbehlardan faol foydalangan. Dostonda Ibn Salom voqeasi aytilar ekan, unga unashilganligi haqidagi xabar Layliga borib yetgach, uning ruhiy ahvoli original o'xshatishlar orqali berilgan: "Layli bu so'zni eshitib, hayron bo'lib, parishon bo'ldi. Go'yo yuragig'a xanjar tekkandek pora-pora bo'ldi" (14-bet).

Majnun Navpalga o'z dardini bayon qilgandan keyin Navpalning qalbida unga nisbatan mehr-muhabbat uyg'onganligi lavhasida ham ta'sirchan o'xshatish qo'llanilgan: "Majnunni dard-u so'zi Navfalg'a ta'sir qilib, ko'ngli mumdek bo'ldi" (17-bet).

Layli o'z o'limi oldidan onasiga vasiyat qilar ekan, o'z sevgilisidan judo bo'lishning Majnunga qanday zarba bo'lib tegishini shunday

tasavvur qiladi: "Mast tevadek meni mozorimg'a kelur, albatta, ul yerda jon fido qilur" (44-bet). Ijodkor bu yerda juda ta'sirchan o'xshatishni ishlatib, bayondagi bo'yoqdorlikni yuksak darajaga ko'targan.

Adib tasvir jarayonida epitet tanlaganda ko'proq o'zlashma so'zlarga murojaat qiladi va original tashbehlar yaratadi. U sovchi tanlash odatini bayon qilar ekan, bu vazifani bajaruvchi shaxsga xos epitetlardan tanlashga harakat qiladi: "Majnunga ul qiz maslahat qildilar. Ittifoq birla xushfahm, pursuxan kishi yubardilar" (29-bet).

Navfal haqida gap ketar ekan adib bu shaxsga nisbatan muvofiq keladigan, uning qiyofasini gavdalanitiradigan sifatlarni ifoda etuvchi so'zlarni epitet qilib keltiradi: "Navfal arab ichida bisyor qobil-u mukar-ran va muazzam kishidur" (32-bet). Umar Boqiy dostonning nasriy bayonida xalq kitoblariga xos ko'plab iboralarni qo'llaydi. U har bir voqeani boshlashdan oldin "Ammo ahli ta'qiqlar andog' debdurlarkim", "Alqissa, rivoyatlarda andog' bayon qilibdurlarkim" kabi an'anaviy jumalardan foydalanadi. Voqealar bayoni davomida "Holo", "ammo", "va lekin", "alqissa", "oxirul amir" kabi yordamchi so'zlarni faol ishlatadi. Shuningdek, asarda "bir ohi sard az dili purdard" kabi forsiy iboralarni qo'llaydi.

Agarda adibning asarni boshlash va nihoyalash uslubiga razm solsak, unda ilgari ta'kidlaganimiz kabi Xiva ta'rixnavis olimlari an'analariga ergashish ham ko'zga tashlanadi:

"Ammo band ma'lum bo'lsinkim, barcha xaloyiqlarg'a haq subhono taolo farmoniga kamari xizmatni mahkam bog'lab, ubudiyat rusumin zohir qilmoq barchadin ahamroqdur va bu jumla tarixi ishq birla otashi muhabbatda o'rtanib ko'nglin xolis qilmoq hammadin behroqdur. Va bu bobdin nachand dostonlarni nasr tartibi birla poklik martabasin bayon qilib, ravshan qilmoq uchun mazhari aql va kiyosat, xazinayi donish va ganjinayi binish, xujasta xisol va pasandida afhol, ya'ni hazrati Avazbek "ahlo ollohu martabatahu" ning vaqtlarida faqiri haqir Umar Boqiy beistetoat "Layli bilan Majnun" din necha hikoyalarni tartib birla zohir iboratlar keltirdi" (3-bet).

Albatta, xalq qissa-dostonlarida kotib kitob ko'chirilgan davrdagi hukmdor va o'zi haqida ma'lumot berib o'tirmaydi, o'z navbatida, yuqoridagi uslubda murakkab jumalarga kam murojaat qiladi. Umar Boqiy doston muqaddimasida bunday uslubni qo'llasa-da, keyingi bayonlarda xalq qissalari uslubiga tushib ketadi. Adibning bu asari o'zi ta'kidlaganidek, nasriy bayon maqsadida amalga oshirilgan bo'lishiga qa-

ramay undan she'riy parchalar ham o'rin olgan. Ijodkor asarning ilk sahifalaridanoq baytlarga tayangan holda ish ko'rib boshlaydi.

Dostonda Qays bilan Laylining ilk uchrashuvidagi o'zaro oshuftahol bo'lishlari tasvirlanar ekan, adib o'sha lavhaga monand holda ikki yosh ruhiyatini ochib berish uchun she'riy misralarni keltirib, o'sha joydagi badiiy tasvirning ta'sirchanligini kuchaytirishga muvaffaq bo'ladi:

*Ko'zum jamolig'a tushgach, qarorsiz bo'ldum,
Ko'ngulni olduribon ixtiyorsiz bo'ldum. (6-bet)*

Adibning bu usuli ham Xorazm tarixnavislarining bayon uslubiga monand keladi. Chunki Munis Ogahiy kabi tarixchilar tarixiy voqealarga mos holda matn orasida hamisha bayt, qit'a, masnaviy kabi adabiy shakllardan unumli foydalanishadi.

Dostonning tarkibida berilgan she'rlar badiiy jihatdan ancha pishiq-puxta ishlangan. Adib she'riy parchalarni doston nihoyalayotgan o'rinda keltiradi. Bu o'rinda u ikkita fojiaiy lavhani bayon qilishda liri-kaga ehtiyoj sezadi.

Majnunning otasi va onasi vafot qilganida ularning qabrlari boshiga kelib iztirob chekishi, armon bilan yig'lashi voqeasini ijodkor nasriy bayonda ta'sirchan berish qiyinligi sababli poeziyaga murojaat qilgan bo'lsa kerak. Negaki, bu she'riy tasvirda Majnunning butun orzu armonlari, ota-onasidan uzr so'rashlari, ularni azob-uqubatga qo'yishidan afsus chekayotganligi to'laligicha o'zining ta'sirchan ifodasiga ega bo'lgan:

*Ki ey boniy binag' vujudum,
Isyone zabon rizosi sudum.
Irshodingni bilmadim g'animat,
Yuz voyki, favd o'lundi fursat,
Yuz hayfki tutmadim tariqing,
Bir necha kun o'lmadim rafiqing.
Fayzing manga o'lmadi muyassar,
Sen xayr deding men ayladim shar. (41-bet)*

Majnunning dil iztiroblari she'riy satrlarda mungli faryod sifatida namoyon bo'ladi. Misralar qatidagi "Yuz voyki", "Yuz hayfki" birikmalari Majnun qalbining aks sadosi bo'lib otilib chiqadi va kitobxonni larzaga soladi. Shoir she'r misralarida, avvalo, Majnun monologini ifoda etib, oxirgi misralarda lirik qahramonning holatini o'zi hikoya qila boshlaydi:

*Chun ko'rdi otasini mozorin,
Sham ayladi anga jismi zorin.*

Lavhayladi ko'ksini mozora,

Tirnog'ila qildi pora-pora.

Afg'on ila qildi toza motam,

Afg'on ichida der erdi har dam, deya she'rni tugatib, Majnunning monologini nasrda davom ettiradi. Nasriy monologda Majnun afsus-nadomatlar, pushaymonlar bilan o'z dardini to'kib soladi.

Umar Boqiy Layli monologini she'riy bayonda beradi va uning dard-alamlarini ham ta'sirchan misralarga singdiradi. Layli o'lim to'shagida yotar ekan, o'zining holidan ko'ra Majnunning ahvoliga ko'proq achinadi. Uning sevgisiga javob bera olmaganiga afsus chekadi:

Man oshiqu zor-u benavoman,

Bir mahiliqog'a mubtaloman.

Ko'p orzu ayladim jamolin,

Bir dam ko'ra olmadim visolin.

Holo keturam ko'ngilda so'zi,

Qo'ldin ne kelur bu ersa ro'zi.

Majnun mani zora mubtalodur,

Sargashtayu zor-u benavodur.

Mandindur oni jumuni afzun,

Qays erkan o'lubdur oti Majnun.

Doim kechirur g'amimda ayyom,

Bir kun onga hosil o'lmayub kom.

Rasvoyi zamona o'ldi mandin,

Ofoqa afsona o'ldi mandin,

Behuda emas fig'on-u ohi,

Yoqmasmu meni oning gunohi. (43-bet)

Bu she'rning nihoyasida ham adib Laylining so'nggi so'zlarini nasrda davom ettiradi. Layli o'zining o'limidan keyin Majnunning ham, albatta, halok bo'lishini bashorat qilib jon taslim qiladi. Adib dostonning ushbu sahnalarini juda hayojonli qalamga oladi. Shu narsa xarakterliki, doston fojea bilan yakun topadi. Biroq ijodkor asarni xalqona an'anaga ergashib optimistik tarzda tugallanadigan jumlaning qo'llaydi: "Ikkalasini namozini o'tab bir marqadda qo'ydilar. Ishqi majoziyda oncha javru jaf tortdilar. Xudoyi taolo muhabbatlarin haqiqitg'a mubaddil qilib, murodu maqsadlarig'a yetdilar" (45-bet). Adib Layli va Majnunlarning ishqini ishq majoziy va ishq haqiqiyga ajratadi va haqiqiy ishqning boqiy dunyoda amalga oshishini ta'kidlaydi. Asarni "murod-maqsadga yetishib" tugallanganligini "Ishqi majoziyda o'rtansa va muhabbat yo'lida poymol

bo'lsa, ishqi haqiqiyg'a musharraf bo'lsa ne ajab durur" (45-bet), deya asarni nihoyalab kitobxonning ko'nglida umidvorlik nishonalarini uyg'otadi va unga taskin beradi. Albatta, kitob yozilgan davrda islom dini qonun-qoidolari yuksak qadrlanadigan bir payt edi. Adibning o'zi esa yuksak e'tiqodga ega bo'lgan, Islom dini g'oyalarini ulug'lovchi inson sifatida hamisha yaratganga shukronalik bilan yashagan. Shu boisdan asarning oxiri ham qissa-dostonlar finalidan bir muncha boshqacharoq tugallanadi.

Ijodkor tugallanma qismda qur'on oyatlaridan bittasini keltirib, asarni quyidagicha yakunlaydi: "Ilohi ul oshiqi sodiqlarning haqqi hurmatidin barcha mo'minlarni g'ayrdin begona qilib, o'z muhabbatingg'a oshno qilib, diydoringg'a musharraf qilg'il" (46-bet).

Qissa shaklidagi dostonlarning aksariyati "Tammatul kitob baavni malikul vahhob" tarzida yakunlanadi.

Umar Boqiy esa o'z nasriy dostonida bu andozani chetlab, o'sha davrda birga yashagan tarixchi adiblar an'anasiga ko'proq amal qiladi.

Binobarin, adibning ushbu dostoni yozma adabiyot an'analari-ga ko'proq og'ib ketsa-da, xalqchillik ruhi, tilining soddaligi, she'rларining samimiyligi va oddiyligi, folklor an'analari-dan unumli foydalanilganligi bilan xalq ijodiyotiga ko'p jihatdan yaqin turadi.

Oxirgi bobimizda hal qilingan muammolar yuzasidan quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

1. "Layli va Majnun" dostonining Xorazmda qo'lyozma tarzida tarqalgan varianti nasriy va she'riy qismlardan iborat xalq dostonlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uning nasriy qismi ham, she'riy qismi ham badiiy jihatdan pishiq-puxta ishlangan. Uni ko'chirgan kotibning kuchli salohiyati doston-dagi leksik boylik va undan mohirona foydalanishda yaqqol ko'rinib turadi.

Doston leksikasida arabiy, forsiy qatlam juda faol ishlatilgan. Natijada, badiiy nutqda sinonimik ifodalar va poetizmlarning salmog'i yanada oshgan.

Shu bilan birga doston-da shevaga xos bo'lgan ko'pgina leksik birliklar va xalqona ifodalar ham tez-tez ko'zga tashlanib turadi.

2. Dostonning mazkur varianti XIX asrning o'rtalarida ko'chirilganligi sababli unda diniy atamalar, munojotlar ko'p bo'lib, matnda eskirgan va tarixiy so'zlar anchani tashkil etadi. Dostonning xalq qissalari-ga mansub o'z uslubi mavjud bo'lib, uning ijodkori o'sha qissalarga xos an'analarga to'la rioya qilgan. Natijada, asar tilida evfemistik iboralar,

soʻz takrorlari natijasida turli nozik ifodalarni roʻyobga chiqarish sanʼati ustuvorlik qiladi. Bu ifodaviy usullar ravishdosh, ot, sifat, son, va sonning ravishdoshga aylantirilishi, sinonim va antonimlar takrori orqali namoyon boʻladi. Oʻz navbatida, asar tilida badiiylik mezonini kuchaytirishi uchun morfologik va sintaktik usullarga ham keng eʼtibor qaratilgan.

3. Ogʻzaki yaratilgan dostonlarda asar tilining badiiy boʻyoqdorligi uning ijrochisi mahorati bilan bogʻliq boʻlib, har bir ijroda oʻzgacha koʻrinish kasb etsa, yozma nusxalar orqali ommalashgan dostonlarda asar badiiyati uni ijod qilgan shaxs salohiyati bilan aloqadordir. Bunday dostonlar nusxadan nusxaga koʻchirilganda ham unchalik oʻzgarishlarga uchramaydi.

Xorazm varianti ijodkori Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy, Andalib kabi daho yozuvchilar ijodi bilan tanish boʻlgan, ulardagi eng yaxshi xususiyatlarni oʻz asarida sintezlashtirgan. Dostonda initsial formulalar, badiiy tasvir vositalaridan keng doirada foydalanilgan. Nasriy matnlarda maqollar, frazeologik iboralar, mifologik lavhalarni istifoda etgan, rivoyaviy uslubning barqaror anʼanalariga murojaat qilgan.

Mumtoz adabiyotda ishlatiladigan gʻazal, muxammas, masnaviy kabi janrlarni doston tarkibida mahorat bilan qoʻllagan.

1. Dostonning Navoiy, Fuzuliy, Andalib kabi turkigoʻy shoirlar tomonidan yaratilgan namunalari va xalq orasida ilgaridan ommalashib kelayotgan "Layli va Majnun" haqidagi turli afsona va rivoyatlar bu sujetning xalq orasida keng ommaviylashishiga va uning baxshilar ijodiga ijobiy taʼsir koʻrsatishga olib keldi.

Natijada Fozil shoirning ogʻzaki repertuarida "Layli va Majnun" ning yangi bir varianti yuzaga keldi. Fozil shoir asarni tom maʼnoda xalqchil uslubda yaratdi. Uning tarkibida saj, turli stilistik formulalar, stereotip ifodalar, maqollar sheva elementlari koʻplab uchraydi. Hatto asarning urush sahnasida qahramonlik eposlariga xos stilistik ifodalar ham koʻplab qoʻllanilgan.

2. Fozil shoir asar tilini ishlaganda xalq orasida ogʻzaki tarqalgan dostonlardagi anʼanalar doirasida ish koʻradi. Oʻxshatish va sifatlashlarda tabiat hodisalari, turli hayvonlar, parrandalar, oʻsimliklar, narsa-predmetlarni obyekt sifatida tanlaydi.

Shuningdek, dostonda xalqona mubolagʻalar, ramziy ifodalardan oʻrinli foydalanadi. Shoirning mahorati asar tilida ishlatilgan tazod sanʼatida, sinonimik ifodalarni tanlashda oʻzining yuksak mahoratini namoyish qiladi. Bu toifa ifodalarni baxshi inson ruhiyati bilan uzviy aloqa-

dor holda juda o'rinli ishlatadi. Bu holat badiiy nutqning bo'yoqdorligini yanada oshiradi.

3. Fozil shoir talantli baxshi, an'anaviy dostonlarning mohir ijrochisi bo'lganligidan tilning og'zakilik xususiyatlariga tayanib morfologik vositalardan ham unumli foydalanadi. Uning ushbu xalq tiliga xos mahorati juft so'zlardan, ko'makchi so'zlardan, fonetik ohangdorlikdan ijodiy oziq olganligida ko'zga tashlanadi.

Shoir asardagi she'riy parchalarni 7, 8, 11 bo'g'inli vaznlarda yaratgan. She'rlarning 7-8 bo'g'inli vaznlari, asosan, ruhiy kechinmalarini ifodalashda, 11 bo'g'inli vaznlar esa epik tasvirlarda istifoda etilgan. Ba'zan asarda mumtoz adabiyotdagi murabbahlarga o'xshagan shakllar ham uchrab qoladi. Binobarin, Fozil shoir varianti o'zining xalqchil tili, baxshiyona ifodalari, an'anaviy dostonlarga xos uslubiy ko'rinishlari bilan alohida e'tiborga loyiq.

4. "Layli va Majnun" dostonining yozma adabiyotda ko'plab shoir-lar tomonidan rang-barang namunalarining paydo bo'lishi asarning om-maviy tarqalishiga yo'l ochdi. Natijada asarning qissa shaklidagi vari-antlari yuzaga kela boshladi. Shulardan biri Umar Boqiyning "Layli va Majnun" dostonidir. O'z davrining yetuk ziyolisi bo'lgan Umar Boqiy qissaxonlarga moslab asarning nasriy bayonini ishlab chiqdi.

Adib garchi asarni nasriy bayondan iborat deb qayd qilsa-da, unda bir qancha she'riy parchalar ham mavjud. Umar Boqiy doston sujeti-ni nasriy bayonini yaratar ekan, uni xalq orasida yanada ko'proq om-maviylashishiga o'z hissasini qo'shadi.

5. Adibning ushbu asarining tilida xalq orasida tarqalgan doston-lardagi kabi arabcha, forsha leksika ustuvorlik qiladi. Ayniqsa, doston-ning muqaddima va xotima qismlaridagi bayon o'zining ancha murak-kabligi bilan ko'zga tashlanib turadi. Shu bilan birga, bu asarda Xorazm shevasiga xos bo'lgan leksik ifodalar, xalq ijodiyotiga xos mubolag'a-viy, mifologik tasvirlarga ham keng o'rin berilgan. Ayniqsa, matn tarki-bidagi saj usuli asar tiliga alohida jilo bag'ishlab turadi. Adib nasriy ba-yon jarayonida badiiy nutqning jozibadorligini ro'yobga chiqarish uchun o'xshatish va sifatlashlarning original shakllarini topishga muvaffaq bo'lgan. Ko'p hollarda ijodkor o'zlashma leksikadan foydalanishga ha-rakat qilib, badiiy ifodalarning yangi, ta'sirchan shakllarini izlab topadi.

6. Umar Boqiy dostonning eng mungli sahnalarida she'riy tasvir-dan foydalanadi. U Laylining onasiga izhor qilgan vasiyatini, Majnun-ning ota-onasi qabri ustidagi ruhiy kechinmalarini she'riy bayon orqali

kuchli ehtiros bilan ifodalaydi. She'rlar masnaviy shaklda bitilgan. O'z navbatida, matnning ayrim joylarida boshqa janrlarga ham murojaat etilgan. Shoir, dastlab, Layli va Majnunlarning monologini beradi. So'ngra ularning ruhiy holati va keyingi harakatlarini muallif tilidan bayon qiladi. Natijada, she'riy parchalarning ta'sir kuchi yanada ortadi.

Bonabarin, Umar Boqiyning ushbu asari til xususiyatlari jihatidan biz oldingi faslimizda tahlil qilganimiz – asarning Xorazm variantiga juda yaqin keladi.

“Layli va Majnun” dostonining har uchala varianti ham badiiy jihatdan o'z mavqeiga ega. Ayniqsa, biz Xorazm varianti sifatida belgilagan variantimiz bilan Umar Boqiy varianti uslub va leksik xususiyatlari bilan o'zaro yaqinlik kasb etadi. Shu bilan birga, Umar Boqiy varianti o'z til xususiyatlari bilan ancha murakkabligi, asosan, nasriy bayonda yaratilganligi bilan alohidalikka ega.

Fozil shoir ijod qilgan og'zaki variant esa butunlay qayta ishlangan sujet asosiga qurilgan va badiiyat jihatidan an'anaviy og'zaki dostonlar bilan adekvat xususiyatga ega. Uni shoir xalqchil til, boy rang barang tasviriy ifodalar asosida, original tarzda yarata olgan.

UMUMIY XULOSALAR

1. "Layli va Majnun" dostoni Sharqda yaratilgan eng mungli asar bo'lib, uning tarixiy ildizlari juda qadimiydir.

Ushbu sujet ko'plab xalqlar orasida faol tarqalgan bo'lib, turli til-larda ellikdan oshiq dostonlarning paydo bo'lishida asosiy omil bo'lib xizmat etgan. Tadqiqotlardagi ma'lumotlarga qaraganda, ushbu sujet-niing dastlabki ildizlari VII asrlardagi arab dunyosiga borib taqaladi. Un-dagi Majnun va Layli obrazlarini ko'pgina tadqiqotchilar tarixiylikka bog'lashsa, aksariyat olimlar bu fikrni inkor qilishadi. Qanday bo'lishiga qaramasdan ushbu sujetga asos bo'lgan afsona va rivoyatlarning shakl-larishiga biror bir hayotiy voqealarning turtki bo'lganligi, shubhasiz.

2. "Layli va Majnun" haqidagi afsona va rivoyatlar IX asrga kelib, yanada ommaviylashib Arabistondan boshqa mamlakatlarda ham keng yoyilgan, ayniqsa, turkiy xalqlar orasida mashhurlik qozongan.

XII asrga kelib, bu afsona va rivoyatlarning muayyan bir tizimga solinib, yaxlit sujet asosida Nizomiy Ganjaviy tomonidan yozma ada-biyotga olib kirilishi, mazkur sujetning yozma va og'zaki adabiyotda yanada dovrug' qozonishiga sababchi bo'ldi. O'z navbatida, ushbu ta-shabbus xamsachilik an'anasining davom etishiga, taraqqiyotiga turtki bo'ldi.

Nizomiydan keyin A.Navoiy, Fuzuliylarning bu yo'ldagi xizmatla-ri, mazkur sujetning o'zlari yashagan davr bilan bog'lab, ijtimoiy g'o-yalarni rivojlantirgan holda, original doston yaratishlari Layli va Majnun obrazlarini sevgi-muhabbatning ilohiy ramzi darajasiga ko'tardi.

3. XVIII asrga kelib Andalib dostonning nasr va nazm aralash qi-lib, qissa shaklidagi variantini, xuddi shu davrda Umar Boqiy ushbu sujetning nasriy bayonini yaratdilar, natijada doston variantlari xalq ora-sida ommaviy tarzda tarqala boshladi.

O'sha davrga kelib dostonning xalq variantlari ham ommaviylasha boshlagan. 1872-yilda uning Ozarbayjonda xalq variantining chop etili-shi, shu davrlardayoq asarning xalq kitoblari shaklida qozoqlar orasida paydo bo'lishi, Xorazmda asarning ko'plab qo'lyozmalarining yuzaga kelishi, Umar Boqiyning yaratgan varianti bilan ushbu an'ananing yana-da kuchayishi ushbu fikrimizni tasdiqlaydi.

Biz tahlilga tortgan Xorazmda ko'chirilgan qo'lyozma nusxaning ilk ildizlari ham o'sha davrlardan boshlab kitobdan kitobga ko'chirila boshlagani, shubhasiz.

4. "Layli va Majnun" sujeti juda mungli, marsiyanamo xususiyatga ega bo'lganligi sababli, u uzoq asrlar davomida qissaxonlar repertuaridan o'rin egallab kelgan.

Dostonning XIX asr boshlarida ko'chirilgan Xorazm nusxasi nasr va nazmning teng hajmda ishtirok etishi, uning tarkibida mumtoz adabiyotga xos g'azal, bayt, muxammas kabi janrlarning berilishi, rivoyaviy usulning mohirlik bilan ishlatilishi jihatidan Andalib dostoniga hamohang keladi. Uning ijodkori o'zidan oldingi va o'z davridagi adiblarning asarlaridan ijodiy foydalangan holda ajayib original doston yarata olgan. Dostonning muqaddima qismi Fuzuliy asariga, voqealar rivoji va finali ko'proq Navoiy dostoniga hamohang keladi. She'riy qismda esa Andalib she'rlariga xos ohangdorlik seziladi. Dostonning til xususiyatlari, arabiy, forsiy leksikaning ustuvorligi Umar Boqiy variantiga yaqin keladi.

5. Dostonning qo'lyozma variantini yaratgan ijodkor mumtoz adabiyot va xalq ijodiyotidan boxabar shaxs bo'lganligi asarning mazmunidan yaqqol anglashiladi.

Ijodkor doston tarkibiga kiritgan muxammaslar, g'azallar, bayt va murabba shaklidagi janrlar she'riyatning go'zal namunalari sifatida ko'zga tashlanadi. Ular aruz qonun-qoidalariga to'la mos holda yaratilgan. Doston voqealari ichiga Xorazm arxaik eposida uchraydigan cranlar, chiltanlarga hamohang keluvchi azilar obrazining kiritilishi, boshqa turli mifologik lavhalardan ijodiy foydalanilganligi ijodkorning xalq ijodiyotidagi motivlar bilan yaqindan tanish ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, asar voqealarida Xizr obrazining tez-tez ishtirok etishi doston voqealaridagi keskin lavhalarining ezgulik bilan nihoyasiga yetishishida asosiy rol o'ynaydi.

6. Ushbu variantda Layli va Majnunlar bilan birga Majnunning ota-onasi, Laylining onasi obrazlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Majnun bilan otasi orasidagi munosabatni maktublar orqali bayon etilishi va bu aloqalarning she'riy bayonda ifodalanishi obrazlar ichki kechinmalarini yorqin va ta'sirchan ifodalay olgan. Laylining onasiga aytgan vasiyatining muxammas orqali bayon qilinishi ham kishi qalbini junbushga keltiruvchi haroratli misralarning yaratilishini ro'yobga chiqargan. Ushbu variantda Zayd obrazi asosiy figura sifatida namoyon bo'ladi. Uning Zaynab ismli sevikli yori obrazi ham oz bo'lsa-da voqealar doirasida ko'zga tashlanib, kishida iliq taassurot uyg'otadi. Zaynab obrazi boshqa variantlarda ishtirok etmaydi. Ijodkor Zayd bilan Zaynab

obrazlarini berish orqali Zaydni ishq-muhabbatning mohiyatiga tushunuvchi shaxs sifatida gavdalantirishni maqsad qilib qo'yadi.

7. XIX asrlarga kelib "Layli va Majnun" haqidagi qissa dostonlarning faol tarqalishi bu sujetning Fozil Yo'ldosh repertuariga kirib kelishiga sababchi bo'ldi. Tadqiqotlarda Fozil shoir repertuaridagi og'zaki variantning yuzaga kelishida Navoiy asarining ta'siriga ko'proq urg'u beriladi. Agarda og'zaki variantdagi voqealar tafsilotiga nazar solinsa, baxshining bu asarni ijod qilishida ko'plab manbalarning ta'siri mavjudligi ayon bo'ladi. Dostonning muqaddimasidagi Majnunning yig'loqi bo'lib tug'ilishi, chaqalog'ini ko'tarib kelgan Laylining onasi ularning xonadoniga kirib kelishi bilan yig'lashdan to'xtashi lavhalari Fuzuliy dostonining boshlanmasiga o'xshash keladi.

Majnunning cho'ponga yo'liqib, bitta qo'yni so'yib, uning ichiga kirib, Layli bilan uchrashish ilojini topishi, unga ota va onasining o'limi haqida g'oyibdan xabar kelishi epizodlari Umar Boqiy variantidagi detallarga to'la mos keladi.

8. Fozil shoirning azaldan qissaxonlar ijrosida maxsus auditoriyalarda o'qilib kelingan asarni og'zaki doston tinglovchilari davrasiga olib chiqishi uchun dostondagi ayrim motivlarga jiddiy o'zgartishlar kiritishi zarur edi. Baxshi ishni, eng avvalo, doston finalini optimistik ruh bilan yakunlashdan boshlaydi. Chunki to'y va sayllarda kuylanadigan an'anaviy dostonlarning deyarlik barchasi "murod-maqsadiga yetish" bilan yakunlanganligi sababli tinglovchi qalbida umid-ishonch tuyg'ularini mujassamlashtiradi. Baxshining ushbu o'zgartishi natijasida an'anaviy syujetdagi eng mung'li sahnalar tushirib qoldirilgan. Butar – Laylining o'limi oldidan onasiga qilgan vasiyati, Majnunning Layli qabri ustida nola chekishi va fojiali o'limi, ularning bir qabrga joy bo'lishlari va boshqa voqealardir.

9. Talantli baxshi obrazlarni qayta ishlashda ham katta o'zgartishlarni amalga oshirgan, ayrim obrazlarni yangidan kiritgan. Yangi kiritilgan obraz Xoruni Rashid bo'lib, u aslida tarixiy shaxs. Xalq ijodida bu shaxs haqida ko'pgina rivoyatlar to'qilgan bo'lib, xalq orasida ancha taniqli nomdir. Baxshi bu obraz orqali Majnunga himoya qo'lini cho'zgan hukmdor qiyofasini ko'rsatmoqchi bo'ladi. U Majnunga istagan kanizlardan bittasini tanla, ot, qurol-yaroq ol, maza qilib hayot kechir, degan taklifni o'rta tashlaganda Majnun bu sahovatni qat'iyan rad qiladi. Bu lavha Majnun obrazidagi ilohiy muhabbatga sadoqatlilik g'oyasini yanada bo'rtirib ko'rsatadi.

Baxshi asar voqealari bayonida Laylining onasi obrazidagi adolat-peshalik, haqgo'ylik, mehribonlik kabi xususiyatlarni yanada oshiradi, otasi obrazidagi johillik va qaysarlik xususiyatlarini yumshatadi. Natijada, asar "murod-maqсадga yetish" bilan tugallanadi.

10. Fozil shoirga mansub ushbu og'zaki variantning yaratilishi va kuylanishi davri sho'ro mafkurasi avj pallaga ko'tarilgan paytlarga to'g'ri keladi. Doston mazmunida bu holat yaqqol ko'rinadi. Asardagi voqealar tasvirida biror joyda ham xudo, payg'ambar yoki diniy homiy-lar tilga olinmaydi. Dostondagi voqealarda baxshi ko'proq obrazlar taqdiri qaltis jarayonga kirganda g'oyibdan xabar kelishi usulini qo'llab, voqealarni o'zaro ulab, yaxshi tomonga yo'naltirib yuboradi. Fozil shoirning muvaffaqiyati shu yerdaki, o'sha qaltis zamonda qadimiy sujetni yangilab, xalqchillik xususiyatlarini yuksaltirib, voqealarni ezgulik, umidvorlik tomonga burib, ajoyib bir original dostonni xalqqa tuhfa qilishning uddasidan chiqqa oldi.

11. "Layli va Majnun" dostonining xalq variantlari orasida Umar Boqiy tomonidan mazkur asarning nasriy bayonga aylantirilgan shakli ham o'zining muayyan o'rniga ega. Umar Boqiy Xorazmda, umuman, Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatida yuksalish davri bo'lgan XVIII asrda yashab ijod qildi.

Bu davrga kelib hozirgi O'zbekiston hududida, jumladan, Xorazm vohasida yashovchi xalqlar orasida dostonchilik, qissaxonlik an'analari taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ydi. Umar Boqiy bu asarning nasriy bayonini yaratish bilan "Layli va Majnun" haqidagi mungli dostonning xalq orasida yanada keng ommalashishiga yo'l ochdi.

Bu asar qissaxonlar orqali Xorazmdagi qirotxon-qissaxon xalfalar repertuariga o'tib, xotin-qizlar davralaridagi tadbirlarda ham o'qila boshlagan.

12. Umar Boqiy madrasa ta'limini olgan yetuk ziyoli, talantli shoir bo'lganligidan "Layli va Majnun" haqidagi ko'plab dostonlarni ko'zdan kechirgan.

Shu sababli asar Navoiy dostonining oddiy bayoni bo'lmay, jiddiy badiiy ijodning mahsulidir. Adib Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy asarlaridan, shuningdek, o'z zamondoshi Andalib ijodidagi variantdan ham xabardor bo'lgan va ulardagi eng yaxshi fazilatlarni sintezlashtirgan holda o'z asarini yaratgan. Uning dostoni bilan tanishish ushbu fikrning to'g'riligini isbot qiladi.

Umar Boqiyning xizmati shundaki, endilikda u xalq ommasiga tu-

shunarli bo'lgan, yozma adabiyot bilan og'zaki bayon usulini omuxta qilgan holda qiziqarli sujetni qayta hikoya qilib berdi.

Asarning ommaviyligi shu yerdaki u XX asming boshlarida ko'plab nusxalarda ketma-ket chop etilgan. Hatto shoir Xislatning nazariga tushib, uning tashabbusi bilan qayta nashr etilgan.

13. Adibning mazkur dostoni garchi "Layli va Majnun"ning nasriy bayoni deb atalsa-da, unda ijodkor tomonidan kiritilgan 68 misra she'r alohida ko'zga tashlanib turadi. Adib doston voqealarining eng yuqori nuqtaga chiqib, obrazlarning ichki ruhiy olamini ochib berishda poeziyaga murojaat qilgan. Layli va Majnunlarning o'zaro maktublari, Layli-ning onasiga qilgan vasiyatlari lirik chekinishlar orqali bayon etiladi. Obrazlarning monologlaridan keyin shoir keyingi voqealarni she'r orqali o'zi davom ettiradi. Natijada, obrazlarning ichki kechinmalari juda ta'sirchan va haroratli misralarda o'z ifodasini topadi. Shuningdek, shoir Navfalning urush manzaralarini ham she'riy bayon qilib, jang tasvirini jonli va hayojonli misralarga mujassamlashtira olgan.

14. "Layli va Majnun"ning xalq variantlari sifatida qayd qilingan uchala variant ham badiiy-estetik talablarga to'la javob bera oladi.

Qo'lyozma tarzda yetib kelgan yangi topilgan variant bilan Umar Boqiy varianti voqealarning rivoyaviy tarzda hikoya qilinishi, tarkibida arabiy, forsiy leksika va izofalarning ko'pligi, badiiy ifoda vositalarining ko'p jihatdan mumtoz adabiyotdagi uslubga o'xshashligi, asar tarkibida mumtoz janrlarning qo'llanilishi bilan o'zaro bir-birlariga ancha yaqinlik kasb etadi. Shu bilan birga, biz Xorazm varianti deb nomlagan yangi topilgan variant o'zining hajman salmoqdorligi, she'riy janrlarning ko'pligi, nasr va nazm aralash xalq dostonlariga to'la mos kelishi, badiiy ifoda vositalarining ko'p qirraliligi bilan alohida ajralib turadi.

15. Fozil Yo'ldosh variantida an'anaviy og'zaki yaratilgan dostonlarga xos baxshi uslubi o'zini to'la namoyon qiladi. Asar badiiyatida saj usulining rang-barang ko'rinishlari, maqollar, hikmatli so'zlar, shevaga oid leksika, sayyor iboralar tez-tez ko'zga tashlanib turadi. Ayniqsa, urush sahnasida baxshi qahramonlik dostonlariga xos stilistik formulalardan o'rinni foydalangan. Ushbu omillar vositasida badiiy nutqning bo'yqondorligini ta'minlagan. Dostonning 7-8 bo'g'inli vaznlari obrazlarning ichki ruhiyatini ochishda, 11 bo'g'inli vaznlarda esa, asosan, epik tasvirlarda istifoda etilgan. Asar tarkibida original o'xshatishlar, sifatlashlar, xalqona mubolag'alar ko'plab qo'llanilgan.


MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. “Layli va Majnun” dostonining tarixiy asoslari	6
1.1. Doston sujetining ilk manbalari va uning xalq orasida tarqalish tamoyillari.....	6
1.2. Doston sujetining yozma adabiyotga kirib kelishi.....	19
II BOB. Dostonning xalq variantlari	45
2.1. Xorazmdan yangi topilgan qo‘lyozma varianti.....	45
2.2. Dostonning Fozil Yo‘ldosh varianti.....	63
2.3. Dostonning Umar Boqiy varianti.....	80
III BOB. Doston variantlarining badiiy xususiyatlari	89
3.1. Yozma nusxa badiiy tilining o‘ziga xos xususiyatlari.....	89
3.2. Og‘zaki variantda baxshi mahorati.....	104
3.3. Dostonning Umar Boqiy variantida adib mahorati.....	113
Umumiy xulosalar	122

Maqsuda Jammato'va

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONINING XALQ VARIANTLARI

(monografiya)



Muharrir: Yo'ldoshev Ro'zimboy
Texnik muharrir: Sherali Yo'ldoshev
Musahhih: Tamara Turumova

UrDU noshirlik bo'limi O'zbekiston matbuot va axborot agentligining 2009-yil 19-avgustdagi №148 raqamli buyrug'i bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.

Terishga berildi: 22.07.2015

Bosishga ruxsat etildi: 27.07.2015

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 60x84 ¹/₁₆.

Tayms garnituras. Adadi 100. Buyurtma №48.

Hisob-nashriyot tabag'i 6,3.

Shartli bosma tabag'i 5,9.

UrDU noshirlik bo'limida tayyorlandi.

Manzil: 220110. Urganch shahri,

H. Olimjon ko'chasi, 14-uy.

Telefon: (0-362)-224-66-01.

UrDU bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 220110. Urganch shahri,

H. Olimjon ko'chasi, 14-uy.

Telefon: (0-362)-224-66-01.

ISBN 076-9943-4516-4-3



0769943451643